Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Jahon siyosati, tarix va falsafa fakulteti Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasida o’qitiladigan ushbu kurs MOXT uchinchi kurs talabalariga mo’ljallangan bo’lib, maxsus talab asosida rejalashtirilgan va ikkinchi yarim yillikda o’tiladi.

Asosiy maqsad, talabalarga Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar tarixi bo’yicha atroflicha tushuntirish, xalqimizning dunyo madaniyati rivojiga qo’shgan hissasi haqida bosqichma-bosqich hamda to’liq ma’lumot berishdan iborat.

Dasturning asosiy **maqsadi** Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar tarixi xaqida, uning rivojlanish bosqichlari xakida, shuningdek, Dune madaniyatiga qushgan ulkan xissasini atroflicha o’rganishdan iboratdir.

Shu asnoda dastur maqsadining oldiga quyidagi **vazifalar** qo’yildi:

- Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar tarixini tarixiy manbalarga va zamonaviy ilmiy adabiyotlarga asoslangan xolda urganish orqali talabalarni mustaqil tadqiqot ishlariga o’rgatish;

- Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar tarixiga oid tarixiy manbalarni qidirib topish, qiyosiy tahlil etish orqali Markaziy Osiyo xalqlari tarixinin rivojlanish bosqichlari haqida atroflicha ma’lumotlar yig’ish;

- Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar tarixi buyicha davrlashtirilgan xolda slaydlar tayyorlash;

- Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar tarixi bilan boshka mintaqalar tarixini qiyosiy tahlil etish;

- mantiqiy fikrlash va mavzularning uzviyiligini ta’minlash masalalarini, ilmiy taraqqiyotning zamonaviy talablariga javob berish, ilmiy-uslubiy hamda amaliy jihatlarini majmuaviy ta’minlash xususiyatlarini o’zgartirish;

- mamlakatimiz jahon jamiyatiga xo’jaligiga integratsiyalashayotgan bosqichda mintaq davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ularning jadallashtirilishiga qaratilgan davlat siyosatini ishlab chiqarishda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tendensiyalari va qoqununiyatlarini tadqiq etish va ularning asosiy omillarini aniqlash, takomillashtirish yo’nalishlarini belgilash hamda istiqboldagi taraqqiyot parametrlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O’zbekiston hududida azaldan zardushtiylilik, buddaviylilik, xristianlik va islom dini vakillari istiqomat qilib kelishyapti. Mintaqada diniy asosda nizo yoki kelishmovchilik kelib chiqqani tarixda ma’lum emas. Diniy bag’rikenglik millatimizning qon-qoniga

singib ketgan, mentalitetiga aylanib ulgurgan hodisadir. Yurtimizda vujudga kelgan va qaror topgan bag'rikenglik masalalari ko'plab asarlarda aks ettirilgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining ko'pmillatlilik sharoitida milliy-diniy an'analarning davom etib kelishi BMT Bosh Assambleyasining 1948-yili e'lon qilingan Inson huquqlari to'g'risidagi deklaratsiyasiga to'la mos keladi. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va murosas borasida nafaqat MDH, davlatlari, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda. Bu haqida Moskva va Butunrus patriarxi Aleksey II, Xillari Klinton va Madlen Olbrayt, Iordaniya shaxzodasi Husan bin Tallol kabi dunyo miqyosida katta obro' va nufuzga ega insonlar ham yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta'kidlab o'tdilar.

Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar tarixi. Kursning maqsad va vazifalari. qadimgi davr madaniyati, Shel, Ashel, muste. Markaziy Osiyoning paleolit davri yodgorliklari Qirg'izistonning Ong' Archa daryosi, O'zbekistonning Obiraxmat va Teshiktosh g'orlari, Tojikistondagi qora Bura yodgorliklari. Tosh qurollar. Ibtidoiy odamning tafakkur tarzi. Mehnat taqsimoti. Xo'jalik elementlarining shakllanishi. Matriarxat, Olovdan foydalanish. Turar-joy qurilishining ilk ko'rinishlari. Ov qilish usullarining rivojlanishi. Ilk diniy tasavvurlar.

Mezolit. Mehnat qurollarining takomillashishi. Kulolchilik. Ilk dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va baliqchilik qishloqlarining tashkil topishi.

Mezolit davri yodgorliklari. Neolit davri. Ishlab chiqarishni o'zlashtirish xarakteridan ishlab chiqarishga o'tish. «Neolit inqilobi» g'ovchilik va dehqonchilik hamda chorvachilikdagi o'zgarishlar. Jaytun madaniyati. Tosh anjomlari, sopol idishlar, uy qurilishi, Urug'dosh ovullar, Kaltaminor madaniyati, Jonbos qal'a.

Xisor madaniyati, katta xajmdagi turar joylar. qo'yg' Bulyon, Tepeg'g'ozyon. Devordagi suratlar – Saymalitosh (Farg'ona). Langarg'isht (g'arbiy Pomir). Rangli rasmlar. Zarautsoy yovvoyi xo'kizlar ovining tasviri. Shaxta g'ori – ikki xil rang ishlatilgan odamlar hamda hayvonlar tasviri.

Kulolchilik, rangli tasvirlar va ularning ma'naviy, estetik ma'nosi. Avlodlarning ma'naviy madaniyatini aks ettiruvchi haykallar, avlod davomchisi obrazini namoyon etuvchi ona tasviri tushirilgan kulol idishlar, turli xil diniy qarashlar.

Bronza davri madaniyati. Ishlab chiqarish kuchi rivojlanishida, ijtimoiy tuzumda o'zgarishlar mavjudligi: moddiy va ijtimoiy tabaqalanish. Moddiy va diniy madaniyat rivojlanishining yuqori darajasi. Namozgohtepa – shaharsozlik: Sarazm, Sopollitepa, Jarqo'ton. Ritual metall buyumlar, hunarmandchilik madaniyati, arxitektura qurilish ishi. Zardushtiylik diniy qarashlar tizimining tuzilishi. Yagona xudo ideali. Avesto. Zardushtiylikda dafn marosimlari, ostadonlar. Ushbu jarayonlarning ijtimoiy – siyosiy qonuniyligi hamda qadimgi o'choqlarning paydo bo'lishi.

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. Ilk ijtimoiy tasavvurlar va ularning turli shakllari haqida nimalarni bilasiz?
2. Ilk ijtimoiy tasavvurlar va insonlar dunyoqarashida aks etishi nimalarda ko'rinadi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Ёвқочев Ш.А. ва Ё. Марказий Осиё халқлари ижтимоий-сиёсий ва диний ҳаракатлари тарихи. Ўқув қўлланма. - Т.: ТошДШИ, 2011.
2. Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти. - Т., 2005.

2-mavzu: Zardushtiylik ta'limotida axloqiy dunyoqarash tizimining xalqlar tarixidagi o'rni

REJA:

1. Zardushtiylik ta'limoti va o'sha davr ijtimoiy hayoti
2. Zardushtiylik ta'limotida ijtimoiy-siyosiy qarashlar
3. Ibtidoiy jamoa tuzumida ijtimoiy hayot

Tayanch iboralar: Avesto. Zardusht. Axuramazda. Xaoma. Turon. Zant. Avesto geografiyasi. Zardushtiylikda ezgulik tamoyillari. Animizm, totemizm, fetishizm, shomollik.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi - Avesto. U O'rta Osiyoda, xususan Xorazmda mil. avv. 1-ming yillikning 1-yarmida paydo bo'lgan. Zardushtiylikning asoschisi afsonaviy payg'ambar Zardusht (Zoroastr)dir. Avesto deyarli 2 ming yil ichida yaxlit holga keltirilgan. Dastlabki yozma nusxasi 12 ming mol terisiga bitilgan, deb rivoyat qilinadi. Avestoning axlokiy-falsafiy mohiyati «ezgu fikr», «ezgu so'z», «ezgu amal» tushunchalarida o'z ifodasini topgan. Zardushtiylarning ibodat oldidan aytiladigan niyati, so'zlari shu 3 ibora bilan boshlangan. Avestoda diniy, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar bayon etilgan. Avestoga ko'ra, olam ikki asos, ya'ni yorug'lik bilan zulmatning, yaxshilik bilan yomonlikning to'xtovsiz kurashidan iborat. Axuramazda yorug'lik va yaxshilik xudosi, kaxramaynu zulmat va yomonlik xudosi hisoblanadi. Axuramazda bilan Anxramaynu to'xtovsiz kurashadi. Bu kurashda pirovardida Axuramazda g'alaba qiladi, ezgulik barqaror bo'ladi. Avesto hajmi katta kitob bo'lganligi sababli dindorlar kundalik faoliyatida fydalanish uchun uning ixchamlashtirilgan shakli - Kichik Avesto yaratilgan. 2001-yili O'zbekistonda Avesto kitobining 2700 yilligi tantanali nishonlandi. Yerga ishlov berish, qoramolga yaxshi munosabatda bo'lish, don yetishtirish g'oyasi ulug'lanadi. Kimki don yetishtirsa, u haqiqatni yetishtiradi. Xamir ovqat pishirilgan xonadonga devlar ham kirolmaydi. Zardushtiylikda, shuningdek, saxiylik, er-xotin vafodorligi, bola tarbiyasi kabi insoniylik nunosabatlari ham nazarda tutilgan. Zardushtiylik diniy qarashlar tizimining tuzilishi. Yagona xudo ideali. Avesto. Zardushtiylikda dafn marosimlari, ostadonlar. Ushbu jarayonlarning ijtimoiy – siyosiy qonuniyligi hamda qadimgi o'choqlarning paydo bo'lishi. Zardushtiylik diniy qarashlar tizimining tuzilishi. Yagona xudo ideali. Avesto. Zardushtiylikda dafn marosimlari, ostadonlar. Ushbu jarayonlarning ijtimoiy – siyosiy qonuniyligi hamda qadimgi o'choqlarning paydo bo'lishi. "Biz tarixga zanjirbandmiz; biz qayerga chopmaylik tarix zanjiri biz bilan birga chopadi". (F.Nisshe) Shunday ekan, faoliyatimiz mahsuli bo'lgan madaniyat ham tarixga "zanjirband" tarix bilan chambarchas bog'liq. Madaniyatning yuzaga kelishini, rivojlanish bosqichlarini hozirgi davrdagi o'rni va kelajagini aniqlash unga tarixiy yondashishni talab etadi. Bu o'rinda biz tarixiylik (tarixiy yondashish) va vorisiylik, madaniyat sub'ektlari haqidagi tushunchalarimizni aniqlab olishimizga to'g'ri keladi.

Tarixiylik yoki tarixiy yondashish u yoki bu ob'ektning (mavzuning) yuzaga kelish va rivojlanish yo'llarini, bosqichlarini ilmiy tadqiq etish usulidir. Ob'ekt (mavzu) ilk bor qanday qaysi holatda edi? Uning boshqa ob'ektlar (mavzular) bilan aloqalari, umumiy rivojlanish bosqichlarida tutgan o'rni qanday bo'lgan? Ijtimoiy vazifalari qaysi manfaatlarni, ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan? Uni yaratuvchi kuchlar kimlar bo'lgan? Har qanday mavzuni o'rganishda talab etiladigan ushbu savollarga tarixiy yondashish usuli orqali javob berish mumkin.

Tarixiylik usuli Madaniyatshunoslik uchun o'tmishda sodir bo'lgan madaniy hodisalarni tiklash va ularni to'g'ri baholash uchun zarur. U bizga har bir tarixiy-ijtimoiy bosqichga xos bo'lgan madaniyat turlarini aniqlashga yordam beradi.

Tarixiylik aslida hozirgi davr mohiyatini anglashga qaratilgan. Biroq tarixiy yondashish nafaqat hozirgi davrning shu bilan birga, uning kurtaklari mavjud bo'lgan o'tmishini anglashga hamda kurtaklari mavjud kelajakni aniqlashga ham yordam beradi. Demak, tarixiylik nafaqat ob'ekt (mavzu) o'tmishini, shu bilan birga, uning hoziri va kelajagini ham anglash usulidir.

Tarixiylik madaniyatni ijtimoiy-tarixiy davr bilan birga, uni jamiyat hayotidan ayricha kechadigan hodisa yoki ayrim shaxs va guruhlar faoliyatining, xayolotining mahsuloti sifatida emas, balki jamiyat, tuzum, davlat va umuminsoniy taraqqiyot bilan bog'liq tarzda kechadigan hodisa sifatida qarash imkonini beradi. Aynan tarixiylik orqali madaniyat va ijodsagi umumiy va xususiy, baynalminal va milliy, ilg'or va qoloq, betakror va nusxa, muallifli va muallifsiz kabi belgilar aniqlanadi. Aynan tarixiylik orqali biz insoniyat tarixi madaniyat tarixi ekanini, madaniyat orqali esa davr, bosqichning qanday qadriyatlarga tayanganini, bir davrning ikkinchi davrga, bir avlodning ikkinchi avlodga munosabatlarini kuzatamiz. Aynan tarixiylik orqali biz madaniyat ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarida har bir kishining yoki ayrim shaxslarning, keng xalq ommasining yoki tor guruhlarining manfaatlariga xizmat qilganini, shaxs kamoloti, uning orzu umidlari, jamiyatdagi tutgan o'rni va o'z ijodiy kuchlarini namoyon qilishi qay darajada hayotda o'z o'rnini topganini bilamiz. Xullas, tarixiylik o'tmish mohiyatini anglash, ana shu asosda esa kelajak rejalarini ishlab chiqish uchun zarur. Tarixiylik madaniyatga "madaniyatli va madaniyatsiz", "kerakli yoki keraksiz", "ijobiy yoki zararli" deb baholash usulini ham qo'llash mumkinligini inkor qilmaydi. Inson nima qilmasin, nimaga o'z munosabatlarini bildirmasin eng avvalo hayotiy tajribasi (tarixiylik usuli) va hayotiy ehtiyojlari (hozirgi va kelajakdagi) nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Madaniy boyliklarni ham ana shu nuqtai nazardan baholaydi, qadrlaydi. Shuning uchun "madaniyatning barcha ko'rinishlarida biz doimo" - deb yozadi olmon faylasufi G.Rikkert odam ma'qul topgan qadriyatlarni uchratamiz ..."

Madaniyatga bunday yondashish boshqa bir olmon mutafakkiri I. Gerder faoliyatiga ham xosdir. Uning fikriga ko'ra, madaniyat-kosmogenez va biogenez taraqqiyot natijasidir. Madaniyatning mohiyati uning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga yaxlit tarzda rivojlanib borishida. Odamni madaniyatga chorlagan narsa aqlni uyg'otgan tildir. Aynan til hayotiy kuchga aylandi, odamni harakatga chorladi.

Odamda, F.Nisshe aytganidek, nafaqat "o'tmish hikmatlari, shu bilan birga, o'tmish illatlari ham quturib turadi". Nachora odam bequsur farishta ham emas, serhiyla iblits ham. Unda ijtimoiy hayot va turmushning hikmatona va illatona tomonlari yashiringan. Madaniyatshunoslikning vazifasi esa odamdagi hikmatona tomonlarini ko'proq o'rganish, shu tariqa undagi yashirin ijobiy kuchlarni uyg'otishdir. Bu bilan biz, Madaniyatshunoslik o'tmishdagi hodisalarga bir tomonlama, ya'ni maqtash nuqtai nazaridan yondoshishi zarur, demoqchi emasmiz. Madaniy merosga xolisona baho berish Madaniyatshunoslik fanining ham vazifasidir.

Baholash usuli tabiiy ravishda madaniy hodisalarni yaxshi yoki yomon, ilg'or yoki qoloq, kishilarni, xalqlarni madaniyatli yoki madaniyatsizga ajratishga olib keladi. Bir paytlari bu usul jamiyatni guruhlariga, sinflarga bo'lganlar maqsadlariga mos kelganini inkor qilib bo'lmaydi. Xuddi shu boisdan ham xalq ommasi ilg'or, demokratik madaniyat, badavlat kishilar, burjuaziya esa ekspluatatsiya maqsadlariga xizmat qiluvchi, antidemokratik madaniyat

yaratuvchilarga ajratilgan. Biroq shunday bo'lsada, bu usul kundalik hayotda ham, ilm-fanda ham saqlanib qolmoqda. Mashhur etnograf E. Taylor va M. Midning etnografiyaga oid o'tkazgan tadqiqotlaridan keyin fanda har bir davr o'ziga xos va o'z davri uchun qadrlil madaniyat yaratadi, madaniyat Yaxshi "ham", "yomon" ham bo'lmaydi, u har xil bo'lishi mumkin degan fikr shakllana boshladi. Haqiqatan ham, baholash usuli ma'lum bir boyliklarni, davrlarni, hatto xalqlarni kamsitishga yo'l ochib berishi mumkin. Masalan, Janubiy Amerika o'rmonzorlarida zamonaviy taraqqiyotdan chekkada yashab kelayotgan qabilalarni "madaniyatsiz" deb baholash hamon, nafaqat kundalik muloqotda, hatto ilm-fanda ham uchrab turadi. Vaholanki, har bir xalq, elat va davr o'zining betakror xislatlari hamda madaniy hayotiga egaki, ularni baholaganda nafaqat umumjahon shu bilan birga, ularning ichki xususiy taraqqiyoti ham hisobga olinishi lozim. Madaniyatda rang-baranglik, har xillik tarafdorlari, insoniyat uchun bir xil bo'lgan va bir bosqichdan ikkinchi bosqichga tadrijiy rivojlanib boruvchi madaniyat yo'q, degan xulosaga kelishadi. Shuning uchun ular Madaniyatshunoslikning vazifasi, tarixi va madaniyatning tadrijiy rivojlanish chizmasini yaratish emas, balki turli xalqlar madaniy hayotining rang-barang ko'rinishlarini yoritish, tasnif etish va turlashdan iboratdir deb ko'rsatishadi.

Albatta, bu yondashishning ham o'ziga xos nuqsonlari mavjud. Tarix va madaniyatning rivojlanishidagi o'xshashliklarni va tadrijiy bog'liqlikni inkor etish umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirishga xalaqit bermaydimi? Agar madaniyat bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tuvchi hodisa bo'lmasa ilm-fanning kelajakni tadqiq etishi besamar mashg'ulotga aylanmaydimi? Biz insoniyat qaysi maqsadlarga va qanday kelajakka intilayotganini nimaga qarab aniqlaymiz? Madaniyatga funksionalizm nuqtai nazaridan yondoshish usuli ham mavjud. Bu usulni fanga B. Malinovskiy kiritgan. Uning fikriga ko'ra, madaniyatni boshqa madaniyatga qiyoslash ham, hatto unga umuminsoniy madaniyatning bir qismi sifatida qarash ham mumkin emas, balki u o'zaro bir-birlariga funksional bog'liq ichki qismlari va xususiyatlariga ega butun sistemadir. Bu usul bilan madaniyatlarni tarixiy-qiyosiy o'rganish, madaniyatlardagi umuminsoniy belgilarni topib, xalqlarni yaqinlashtirish yo'llarini izlash qiyin edi, albatta. Madaniyatshunoslik o'z tushunchalari, tadqiqot ob'ekti va (usullariga ega fan sifatida falsafadan o'sib chiqdi. Shu bois madaniyat haqidagi qarashlarni o'rganishda ko'pincha faylasuflarning asarlari va fikrlariga murojaat qilinadi. Yangi davr (XX-XIX asrlar) mutafakkirlarining qarashlari insonning olam va jamiyatdagi o'rni, uning ijodiy va ma'naviy kuchlari haqidagi tasavvurlarini, ular orqali esa madaniyat haqidagi tushunchalarni kengaytirdi. F. Bekonning insonning aql-zakovatini, ilmiy salohiyatini ulug'lab: "Bilim - kuchdir". "Inson aqliga chek yo'q. U bir yerda to'xtashni ham, xotirjamlikni ham bilmaydi, tinmay olg'a intilaveradi", - degan fikrlari butun ilm olamining kelgusi yo'nalishlarini belgilab berdi.

G'arb ma'rifatparvarlari Volter, Didro, Monteske, Lessing, Xyote, Shiller, Russo ilm-fan va madaniyat tarixini yangi-yangi g'oyalar, qarashlar bilan boyitdi. Ayniqsa, yangi davrning buyuk faylasuflari I. Kant va Gegelning xizmatlari katta. Kantning fikriga ko'ra, odam "tabiat" va "erk" dunyosidan iborat. Unda tabiat in'om etgan jihatlardan tashqari axloqiy qarashlardan kelib chiqadigan erkin xatti-harakat qilish imkoniyati ham mavjud. Madaniyat esa ana shu imkoniyatdan foydalanish vositasi, quroli, o'z axloqiy burchini bajarish yo'lidir. Kant madaniyatni axloqiy tartibotlar va tushunchalar bilan yonma-yon qo'ydi, inson faoliyatiga axloqiy madaniyatni asos qilib oldi. "Ikki narsa ruhimizni doimo yangi va yanada kuchli hayrat hamda ehtirom bilan to'ldirib turadi, ular tepamizdagi yulduzli osmon va ichimizdagi axloqiy tartibotdadir" (Qarang: Кант И. Сочинения. Т.4., Ч.1. - М., 1965. С.499.). Gegel ta'limotida madaniyatning deyarli barcha asosiy yo'nalishlari o'z

ifodasini topadi. Din, falsafa, san'at, huquq, ma'naviy madaniyatning barchasi "ruh", "olam ruhi"ning qonuniy rivojlanish bosqichlari sifatida tasvirlanadi. "Ruh", "ong"ning tarixiy rivojlanish bosqichlarida madaniyatlar bir-birlaridan farq qiladi. Odam jamiyat va umumjahon taraqqiyotiga qo'shib madaniyatga aralashadi. Bu esa falsafa orqali ro'y beradi. Gegel inson aqlini tarixiy jarayonning hal qiluvchi kuchi sifatida qaradi. Aql tashqi olamni o'z maqsadlariga shunday shijoat bilan bo'ysundiradiki, u odamning ushbu dunyo ustidan hokimligini ta'minlaydi" (Qarang: Гегель Г. Энциклопедия философских наук. Т.3. - М., 1977. С.656). Yaratilgan barcha narsalarda odam aqli, tafakkuri, ruh evolyutsiyasi orqali madaniyatning qudrati namoyon bo'ladi. Tarix va madaniy hayot bir-birlari bilan chambarchas bog'liq bosqichlardan tashkil topadi. Ma'naviy madaniyat - ruh ijodiy kuchining aks etishi, madaniyat orqali ruh o'zining yaratuvchiligini anglaydi. Har bir kishi o'zining aqli - tafakkuri orqali jamiyat, umuminsoniy boyliklarni egallashga erishadi.

Gegelning fikriga ko'ra, ilm-fanga asoslangan va tinmay bilimga intiluvchi Yevropa madaniyati boshqa xalqlar uchun namuna, o'rnak oladigan andoza bo'lmog'i kerak. Bu o'rinda biz Gegelning fikri Yevropotsentrizm oqimining rivojlanishiga ta'sir qilganini payqashimiz mumkin. Keyinroq bu oqimga qarshi Vostokotsentrizm oqimi yuzaga keldi va natijada Yevropa misolida G'arb madaniyati bilan Sharq madaniyatini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish shakllandi. To'g'ri, ayrim tadqiqotchilar Yevropa bilan Sharq o'rtasidagi farqlarni emas, balki mushtarak tomonlarni ko'proq o'rganishga da'vat etadilar. Biroq hozirgi paytda, xuddi shuningdek, Madaniyatshunoslikda ham, G'arb va Sharq madaniyatlarini bir-birlaridan farq qiluvchi hodisa sifatida qarash keng tarqalgan. Biz buni o'tkinchi hol deb qaraymiz.

XX asrda madaniy taraqqiyot keskin burilishlarni o'z boshidan kechirdi. Sinfiy nifoqlarning avj olishi, birinchi va ikkinchi jahon urushlari, Yevropada keng demokratik o'zgarishlar va nihoyat 80-yillarning oxirlarida sovet totalitar tuzumining yemirilishi, eng avvalo, madaniy jarayonlarga ta'sir etdi. Bu voqealarning ta'sirida yangi-yangi ilmiy nazariyalar va qarashlar yuzaga keldi. O. Shpengler, A. Toynbi, K.Yaspers, P. Sorokin, E. Kassirer, Y. Xayzinge, V. Solovev] N. Berdyaev, N. Danilevskiy, L. Gumilev, K. Kantor, M.S. Kagan] E.S. Markaryan, V.M. Mejuev, S. Xatington, F. Xayek va boshqalarning ilmiy-nazariy izlanishlari tarixiy-madaniy jarayonlarning yangi qirralarini, madaniyatning ichki xususiyatlarini, ayniqsa, ziddiyatli tomonlarini kengroq ochib berishga qaratildi. Madaniyat - inson faoliyatining natijasi va mahsuli. Inson esa o'z faoliyati uchun zarur narsalarni jamiyatda tayyor holda topadi. Agar har bir avlod va har bir kishi yashashi va faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan qurollarni mutlaqo qaytadan kashf qilishga majbur bo'lganida edi taraqqiyot haqida hech qanday gap ham bo'lmas edi. "Tarix esa odamzod nasli tarixidan emas, ayrim shaxslar tarixidan iborat bo'lardi". (I. Gerder). Kishilar o'zidan oldingi jamiyat va avlodlar yaratgan boyliklarga tayanib yashaydilar, ana shu boyliklar yordamida yangi boyliklar yaratadilar. A. Eynshteyndan, siz nisbiylik nazariyasidek buyuk kashfiyotga qanday erishdingiz, deb so'raganlarida, men buyuklar yelkasida o'tirgandim, deb javob bergan ekan. Madaniyat quruq yerda paydo bo'lmagani uchun uning tarix bilan bogliqligi to'g'risida fikr yuritganda madaniyatda vorisiylik va avlodlarning madaniy merosga munosabati masalasi haqida to'xtalib o'tish zarur bo'ladi.

Qadimgi Sharqda shakllangan turmush tarzi, diniy, falsafiy va axloqiy qarashlar, san'at va adabiyot kelgusi madaniy taraqqiyotning asosiga aylandi. Har bir keyingi davr ularni qayta va qayta kashf etishi an'anaga kirdi. Masalan, hind madaniyati hanuzgacha Vedalar, "Ramayana", "Maxobhorat", "Bxagavatgita", buddizm va jaynizmning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlariga tayanib keladi. Hind ijtimoiy-falsafiy hayotida birorta mutafakkir yoki ilmiy oqim yo'qki, yuqoridagi asarlar hamda ta'limotlarga tayanmagan.

“Insondan yuqori narsa yo‘q”, “Kim barcha narsada yagona ruhni va yagona ruhda barcha narsani ko‘ra olsa yaratilgan hech bir narsaga u nafrat bilan qaramaydi”. (Upanishadlar). “O‘zingga yoqmagan narsani boshqaga ham ravo ko‘rma”. “Ipak qurtini boylikka o‘chligi o‘ldiradi”. (Maxobhorot). “Jang maydonida mingta yov ustidan g‘olib chiqish mumkin, ammo haqiqiy g‘olib uki, kim o‘zini o‘ziga itoat ettiradi”. “Bu dunyoda hech qachon nafratni nafrat bilan yengib bo‘lmaydi, nafratni faqat muhabbat mavh eta oladi (Budda). “O odam! Do‘st - o‘zingga o‘zing. Do‘stni avvalo o‘z ichingdan izla! (Jaynizm) hatto jaynizm, tarafdorlari yon-atrof, havo va tuproq ko‘zga ko‘rinmas jonivorlarga to‘la, degan fikrga tayanib, ularga zarar yetkazmaslik uchun og‘izlariga doka tugib, oldlarini supurib yurishgan. Bu qarashlar nafaqat Hindiston, shu bilan birga butun Sharq, hatto G‘arb falsafasining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatdi. Mashhur sharqshunos Maks Myuller yozgandi: “Eng zamonaviy va eng qadimiy hind sivilizatsiyasi o‘rtasida uzluksiz vorisiylik mavjud”. Vorisiylik negizida esa hayotiylik yotadi. Shuning uchun ham yuqoridagi fikrlar bir necha asrlar oldin aytilgan bo‘lsada, davrimiz va zamondoshlarimiz ularni qayta-qayta takrorlamoqda. Agar vorisiylik negizida hayotiylik bo‘lmaganida edi, deb yozadi Javaharlal Neru, “Biz uchun o‘tmish sovuq, befoyda, o‘lik va qiziqarsiz bo‘lib qolaverardi” (Qarang: Неру Дж. Открытие Индии: Философские и эстетические воззрения в Индии XX в. - М., 1987. С.246).

O‘zbekiston xalqlari haqidagi dastlabki yozma manba Avesto hisoblanadi. Avesto so‘zi “asos” yoki “asosiy matn” degan ma‘noni anglatadi, ya‘ni u zardushtiylarning diniy va falsafiy qarashlari bitilgan asosiy manbadir.

Avestoda yorug‘lik, yaxshilik xudosi Axuramazda bilan zulmat, yovuzlik xudosi Axriman o‘rtasidagi kurash haqida hikoya qilinadi. Bu qarama-qarshi kuchlar o‘rtasidagi kurash tabiatda, koinotda va yerda davom etadi. Avestodagi falsafiy va axloqiy qarashlar keyinchalik g‘arb mutafakkirlari (F. Nisshe, va b.) ijodiga ham ta‘sir ko‘rsatadi.

Makedoniyalik Iskandarning O‘rta Osiyoga bostirib kirishi (er. av. 329-y) nafaqat o‘lkamiz xalqlari o‘rtasida ozodlik harakatlarini kuchaytirdi, shu bilan birga, ularga Yunon-Makedon madaniyati bilan tanishish imkoniyatini yaratdi. Iskandar vafotidan keyin Yunon-Baqtriya va Parfiya davlatlari yuzaga keladi. Keyingi yillarda o‘tkazilgan arxeologik qazilmalar er. av. Amudaryoning o‘ng va so‘l qirg‘oqlari ham Yunon-Baqtriya davlatiga kirganidan, shu tariqa butun hududda ellinizm madaniyati yoyilganidan, shuningdek, O‘rta Osiyoning qadimgi aholisi ellinizm ta‘siri ostida bo‘lgan davlatlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lganligidan dalolat beradi. Natijada yunon madaniyati mahalliy aholi madaniyati bilan qo‘shilib ularning har ikkalasi ham yangi bosqichga ko‘tariddi. (Qarang: O‘zbekiston tarixi. - T., 1997. 76-b.)

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. Zardushtiylik ta‘limoti va o‘sha davr ijtimoiy hayoti
2. Zardushtiylik ta‘limotida ijtimoiy-siyosiy qarashlar

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Ёвқочев Ш.А. ва б. Марказий Осиё халқлари ижтимоий-сиёсий ва диний ҳаракатлари тарихи. Ўқув қўлланма. - Т.: ТошДШИ, 2011.
2. Струве В.В. Родина зороастризма. - Сталинабад, 1945.

3-mavzu: Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy dunyoqarashi masalalari

REJA:

1. Ko'pxudolik va yakkaxudolik masalalari
2. Xalqlar hayotida geografik omilning o'rni
3. Ijtimoiy-siyosiy ta'limotlarning o'zaro integratsiya masalalari

Tayanch iboralar: Monoteizm. Matriarxat. Patriarxat. Baqtriya. Marg'iyona. Marokanda. Buyuk Ipak yo'li. Seleng'ur. Jaytun. Kaltaminor. Jarqo'ton. Zamonbobo. Sarazm. Tozabog'yob. Chust.

Madaniyat va tarixdagi umumiy jihatlar ularning yaratuvchisi, sub'ekti inson va jamiyat ekanligi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek madaniyat nafaqat tarixiy rivojlanish ko'rsatkichi, shu bilan birga, rivojlanishning yo'nalishini, ko'lamini belgilab boruvchi omil hamdir. Kishilar ma'lum bir tarixiy bosqichda, davrda yashaydilar va ana shu vaqt doirasida faoliyat ko'rsatadilar. Davrni kishilar yaratadilar. Ular yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarga, amal qilgan axloqiy qarashlarga, tayangan, ilmiy-nazariy, tafakkuriy fikrlar, ilm, fan, texnika yutuqlariga qarab tarixiy-madaniy bosqichlar haqida xulosa chiqaramiz. Ijtimoiy fanlarda, shu bilan birga, Madaniyatshunoslikda ham, madaniyat va tarixning rivojlanish bosqichlari haqida turli fikrlar mavjud. Keyingi yillarda bu bosqichlarni eng qadimgi davr, qadimgi dunyo, (antik davr) O'rta asrlar va yangi davrlarga bo'lib o'rganish shakllanmoqda. XX asr madaniyati esa alohida bir mavzu sifatida o'rganiladi. Madaniyat qachon paydo bo'lganini aniq aytish mushkul, ammo uning paydo bo'lishi insonning hayvonot olamidan ajralib chiqishi bilan bog'liq. Tarixchilarning fikriga ko'ra, ilk kishilik jamoalarining paydo bo'lishi tosh asriga borib taqaladi. Tosh asri esa quyi paleolit (3 mln. -100 ming yillar avval), o'rta paleolit (100-30 ming yillar avval) va yuqori paleolit (30-8 ming yillar avval)larga bo'linadi. Arxeologik qazilmalar ko'rsatadiki, quyi paleolitdagi ilk odamlar (tarixchilar ularni odamsimon maymunlar - pitekanthrop, sinanthrop va boshqalar deb atashadi) yaratgan mehnat qurollari o'ta sodda, ko'pincha yo'nilgan toshlardan iborat bo'lgan. Kishilar kichik ijtimolar bo'lib yashagan, tayyor ne'matlarni yig'ib kun ko'rishgan. Nutq, so'zlashuv shakllanmagan, ammo kishilar o'rtasida imo-ishora bilan bir-birlariga o'z fikrini, g'oyasini yetkazish usullari mavjud bo'lgan, shubhasiz.

O'rta paleolitda ham nutq rivojlanmagan bo'lsada, bu davrda mehnat qurollarida ma'lum bir o'zgarishlar bo'lgani qayd etiladi. Bu davrda nayza uchiga o'rnatiladigan moslamalar, teri shiluvchi pichoqlar, toshni o'yadigan qurollar yaratilgan. Kiyim-kechakka ehtiyoj paydo bo'lgan. Toshga, suyakka o'yilgan ilk tasviriy san'at asarlari yaratilgan. O'lganlarni ma'lum bir tartibda ko'mish odati yuzaga kelgan. Bu esa neandertal odamlarda ilk diniy tasavvurlar shakllana boshlaganidan darak beradi. Tarixchilarning fikriga ko'ra, "haqiqiy odam" - o'rta paleolit bilan yuqori paleolit davrlarida shakllangan. Odam mehnat qurollari yasash va ulardan keng foydalanishni, so'zlash va fikrlashni, yaxshi va yomonni ajratishni o'rgangan. Oila, urug', qabila bo'lib yashashni turmush tarziga aylantirgan. Ekzotamiya, ya'ni bir ota-onadan tug'ilgan farzandlar, ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi nikoh taqiqlanadigan bo'lgan. Shu tariqa odam tabiiy evolyutsion rivojlanishdan tarixiy-madaniy rivojlanishga o'tgan.

Qadimgi dunyo (antik davr) tarixi va madaniyatining rivojlanishida Mesopotamiya, Bobil, Misr, Hindiston, Xitoy va qadimgi Gretsiyaning o'rni benihoya katta. Shuning uchun ham S.N. Kramer, "tarix Mesopotamiyadan boshlanadi" deb ko'rsatgan edi. Mesopotamiya o'z yozuviga, ibtidoiy bo'lib yashash va shaharlarni boshqarish, xo'jalik yurg'izish usullariga ega bo'lgan. Aholi asosan shahar - davlatlarda va ularning atroflarida yashagan. Yerlar maxsus qurilgan to'g'on ariqlar orqali keladigan suvlar bilan sug'orilgan.

Dehqonlar asosan bug'doy, no'xat, kunjut, xurmo, uzum, qovoq yetishtirish bilan shug'ullangan. Shaharlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanish keng tarqalgan. Ulkan ibodatxonalar, hukmdorlarning qarorgohlari, ma'muriy binolar va ustaxonalar qurilgan. Ibodatxonalar mis va oltindan ishlangan haykallar bilan bezatilgan. Har bir shahar-davlatni o'z boshqarish tizimlari: podsho, vazirlar, amaldorlar, ularni himoya qiluvchi qo'shinlar, qo'riqchilar bo'lgan. Barcha Xammurapi qonunlariga itoat etib yashagan. Bu qonunlar 247 moddadan iborat bo'lib unda podsho "xudolar tomonidan qo'yilgan rahbar" deb ulug'lanadi. Savdo-sotiq va oilaviy munosabatlarni yo'lga qo'yish, ijtimoiy bo'lib yashash haqida turli ko'rsatmalar berilgan. Demak, qadimgi Mesopotamiya - ijtimoiy-madaniy hayoti insoniyat yangi bir tarixiy rivojlanish bosqichiga o'tganidan dalolat beradi. Endi kishilar o'z hayoti va faoliyatini madaniy boyliklar yaratishga yo'naltiradigan bo'ldi.

Qadimgi dunyo (antik davr) madaniyatida Misr katta o'rin tutadi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, kunning 24 soatga bo'linishi, doira yuzini aniqlash, o'nlik sanash, quyosh kalendari va boshqalar Misrda kashf etilgan. Misrliklar geometriya, matematika, astronomiya, tarix, tibbiyot, adabiyot ilmlaridan yaxshi xabardor bo'lgan. Bu fanlar maktablarda maxsus o'qitilgan. Hatto Misrda amaldorlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurti ham bo'lgan. Ilk yozuv ham Misrda kashf etilgan. Qadimgi Misrda adabiyot, san'at, hunarmandchilik va me'morchilik yuqori darajada rivojlangan. "Osiris va Iliada haqida" afsona, "Ikki og'a-ini haqida ertak", "O'g'ri va to'g'ri haqida ertak"lar to'hanuzgacha tildan tilga, xalqdan-xalqqa o'tib keladi. Misrliklar fir'avnlr, amaldorlar uchun zeb-ziynat buyumlari yasashgan, ajoyib saroylar qurishgan. Sakkaradagi Joser, Gizzadagi Xeops maqbaralari o'z salobati va yuksak darajada qurilgani bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Masalan, Xeops maqbarasi 52900 kv.metr yerni egallagan. Uning balandligi 150 metr, qo'yilgan har bir toshning vazni 2 tonnadan 15 tonnagacha. Maqbara ana shunday 2 million 300 ming toshdan qurilgan. Toshlar orasidan hatto qil ham o'tmasligi o'sha davrdagi qurilish madaniyatining qanchalik yuqori saviyada ekanligini ko'rsatadi. Qadimgi Misrda politeizm keng tarqalgan. Har bir joyning sig'inadigan o'z totemlari, narsalari va xudolari bo'lgan. Xudolar soni mingga boradi. Ular ichida keng tarqalgani quyosh xudosi Ra bo'lgan.

Misr madaniyati insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirdi. U Sharq madaniyatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi. G'arb madaniyatining beshigi bo'lgan Yunoniston va Rim ham Misr madaniyati ta'siridan chetda qolmadi. Hindiston o'zining juda qadimiy madaniy hayoti va tarixiy rivojlanishi bilan ajralib turadi. Hind madaniyati er.avv. U ming yilliklarda shakllangan. A. Toynbining fikriga ko'ra, hind sivilizatsiyasi boshqa o'lkalar madaniyati va sivilizatsiyasi bilan bog'liq tarzda rivojlanmagan. Hududiy cheklanganlik bu sivilizatsiyalarning asosiy belgisidir. Bu fikrga qo'shilish qiyin. Chunki hind sivilizatsiyasi Rim-grek va g'arb madaniyatidan alohida rivojlangan bo'lsada, (S. Radxakrishnan) uning er. av. Kichik va Old Osiyodan ko'chib borgan oriy qabilalari ta'sirida shakllanganini barcha tarixchilar tan oladi. Hindistonning shimoliy-g'arbiy o'lkalariga ko'chib borgan osiyolik oriy qabilalari tub aholinikidan farq qiluvchi turmush tarzi, ijtimoiy hayotni boshqarish usullari, xo'jalik yuritish va sig'inish tartiblariga ega bo'lgan. Keyinchalik bu o'ziga xosliklar tub aholi hayotidagi urf-odatlar bilan qo'shib ketgan. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, hind madaniyati er. av. ming yillik oxirlari va II ming yillik o'rtalarida tarkib topgan. O'tkazilgan arxeologik qazilmalar ko'rsatadiki, Qadimgi Hindistonda dehqonchilik, chorvachilik,

hunarmandchilik va savdo-sotiq keng rivojlangan. Hind daryosi atroflarida aholi zich yashagan Moxinjo-Daro, Xarappa kabi yirik shaharlar yuzaga kelib, ularda ikki-uch qavatli binolar, suv quvurlari va havzalari, ibodatxonalar, podsho saroylari mavjud bo'lgan. Topilgan zargarlik, to'qimachilik, kulolchilik, qurolsozlik buyumlari qadimgi Hindistonda madaniy hayotning serqirra va rang-barang bo'lganidan dalolat beradi. Osiyoda Hindiston paxtaning vatani hisoblanadi. Qadimgi hindlar paxta yetishtirib undan ip, yog' olishni turli kiyimlar tikish va gazlamalar to'qishni yaxshi bilishgan. Qadimgi Hindistonda matematika, tibbiyot, me'morchilik juda qadrlangan. Shaxmat aql o'yini sifatida Qadimgi Hindistonda yaratilgan. O'lkaning juda issiqligi turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Natijada tibbiy bilimlarga katta ehtiyoj uyg'ongan.

Qadimgi Hindistonda qurilgan ibodatxonalar va saroylarning haybati va serhashamatligi to hanuzgacha kishilarni hayratga solib keladi. Hindistonda falsafa, din va diniy qarashlar shunchalik rang-barang bo'lganki, ularning barini jamlab bir tartibga solib o'rganish hanuzgacha ma'lum bir qiyinchiliklar uyg'otadi. Lekin ular ichida braxmanizm, buddizm, charvoq ta'limotlari, "Rigveda", "Maxobxorot", "Ramayana", "Panchantra" asarlari juda mashhurdir. Qadimgi Xitoy madaniyatining boshlanishi er.av. U 1ming yilliklarga borib taqaladi. Shuni e'tirof etish kerakki, ma'lum bir tarixiy, etnik va jug'rofiy shart-sharoitlar ta'sirida xitoy madaniyati to XVII asrgacha o'ziga xos, boshqa sivilizatsiyalardan jiddiy farq qiluvchi hodisa sifatida yashab keldi. Arxeologik topilmalar er.av. U ming yilliklarda Xuanxe daryosining o'rta va quyi oqimlarida aholi dehqonchilik bilan shug'ullanganidan, chorvachilik va kulolchilikdan yaxshi xabardorligidan darak beradi. In podsholigi davrida Xitoyda oy taqvimi, matematika, astronomiya, kimyoga oid ilk bilimlar paydo bo'lgan. Kishilar yilni 360 kunga, oyni 30-31 kunga bo'lishni, yulduzlarga qarab ob-havoni, hosildorchilik qanday bo'lishini oldindan aytib berishni bilgan. Kompasni xitoyliklar kashf etishgan. Bundan 4, 3, 5 ming yillar ilgari qadimgi Xitoyda yozuv paydo bo'lgan. U ieroglif, ya'ni bir belgi orqali butun birg so'zni ifodalovchi yozuv edi. Xatlar dastlab yog'och va bambukdan qilingan taxtachalarga keyinchalik shoyi matolarga yozilgan. Er. av. I asr oxirida esa qog'oz kashf etilgan. Bu kashfiyot nafaqat Xitoyda shu bilan birga butun jahonda fan va madaniyatning rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi.

Qadimgi xitoyliklar odam tanasining tuzilishi va uni davolash usullarini yaxshi bilishgan. Xitoy tabiblari uqalash va igna sanchib davolashdan, ruhiy-asabiy kasalliklarni so'z, musiqa bilan davolashdan keng xabardor bo'lganlar. Ular mingdan oshiq dori-darmonlarni tayyorlash va qo'llash yo'llarini bilishgan.

Qadimgi Xitoy hukmdorlari yirik davlat tuzishga va uni boshqarishga juda katta e'tibor berishgan. Har bir hudud markazga bo'ysungan va soliq to'lagan. Boshqarishda, oilaviy hayotda an'analarga va rasm-rusmlarga itoat etish muhim hisoblangan. Bu tartib Xitoy madaniyatining o'ziga xos tarzda shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Qadimgi Yunoniston madaniyatining boshlanishi er. av. III-II ming yilliklarga borib taqaladi. Bu madaniyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, u shahar (polis) ijtimoiy va ma'naviy hayoti asosida yuzaga keladi va rivojlanadi. (Qarang: Uchebniy kurs po kulturologii. - Rostov na Donu, feniks, 1997, 117-b.) Krit oroli, Pilos, Miken, Fiva, Afina, Tirinf va Fessaliya - polis shaharlari yunon madaniyatining beshiklaridir. Arxeologik qazilmalar Kritda madaniyat gullab yashnaganidan darak beradi. Ayniqsa, me'morchilik, tasviriy san'at, hunarmandchilik, kemasozlik va savdo-sotiq rivojlangan. Krit o'zining yozuviga

ham ega bo'lgan. Zilzila va XII asrda shimolda yashovchi axeya, keyinchalik esa doriy qabilalarining bostirib kirishi natijasida Krit madaniyati tanazzulga uchragan.

Miken madaniyatining o'ziga xosligi butun ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotning saroy atrofida kechganligidadir. Shahar akropol katta xarsang toshlardan qurilgan qal'a devorlari bilan o'ralgan. Unda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik keng rivojlangan. Mikenlar o'z flotiga ega bo'lgan va Bolqon yarim orolidagi barcha polislar bilan savdo-sotiq olib borganlar. Ular Krit yozuvidan foydalanganlar. Shuning uchun Miken madaniyatini ba'zi mutaxassislar Krit Miken madaniyati deb ham atashadi. Qadimgi Yunoniston madaniyatida klassik davr (er. av. V asrdan to asrimiz boshigacha) alohida o'rin tutadi. Aynan mana shu davrda qadimgi Gretsiya va qadimgi Rimda madaniy hayot, adabiyot, san'at, musiqa, arxitektura, falsafa, ilm-ma'rifat kelgusi davrlar uchun taqlid qiladigan namuna, andoza darajasiga ko'tariladiki, insoniyat tarixida biror davr yo'qki, unga o'zini qiyoslamagan, undan o'ziga ilhom olmagan. Butun Yevropa, g'arb madaniyati va sivilizatsiyasi to hanuzgacha ana shu antik davr madaniyati ta'sirida rivojlanib keladi. Eramizning I ming yilliklarida jahon madaniyatida ikki yirik voqea ro'y berdi, ya'ni g'arbda nasroniylik, Sharqda esa islom dini qaror topdi. Ana shu paytdan beri g'arb madaniyatini nasroniylisiz, Sharq madaniyatini islom dinisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu dinlarning yoyilishi g'ayrihayotiy va g'ayriinsoniy harakatlar bilan ham bog'liq bo'lganini, nasroniylik bayrog'i ostida Ovro'poda ilm, adolat ahliga qarshi kurashlar olib borilganini, islom bayrog'i ostida Sharqda bosqinchilik, talon-taroj, qirg'inlar uyushtirilganini unuta olmaymiz. Har ikkala qit'ada ham milliy-madaniy hayotga diniy aqidaparastlik, mutaassiblik zo'rlab kiritildi. Ammo shuni ijobiy tarixiy-madaniy hodisa sifatida ta'kidlash kerakki, bu ikki jahon dini ta'sirida ko'pgina xalqlar o'rtasida ijtimoiy-madaniy aloqalar o'rnatildi, iqtisodiy munosabatlar kengaydi, madaniy jarayonlardagi mushtarakliklarni qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish imkoni paydo bo'ldi. Bu ikki din e'tiqod birligi asosida insoniyatni birlashtirishga yo'l ochgani uchun ham qimmatlidir.

O'rta asrlar madaniyatida bir tomondan olam va odam, aql va hayol, yaratuvchi va yaratilgan haqidagi diniy qarashlar keng yoyilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ilm, ma'rifat, san'at, adabiyot, arxitektura sohalarida yangilik izlash, insonning yaratuvchilik kuchini, olijanob his-tuyg'ulari va go'zalligini madh etish kuchaydi. To'g'ri, o'rta asrlarda diniy mutaassiblik avj oldi. Ovro'pa o'rta asrlari madaniyati diniy safsataga asoslangan vahiylikni takrorlashdan iborat bo'lib, u "inson tomonidan mustaqil yaratilgan madaniyat degan narsani bilmadi" (Qarang: *Filosofiya kulturm. Stanovlenie i razvitie.* -SP. 1998, 23-b.). Shunga qaramasdan, Uyg'onish davri mutafakkirlari (J. Va-zari, Dante, Petrarka, Bokkachcho, Bottichelli, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rafael, Rotterdamskiy, Dyurer va boshqalar insonning aqliy, tafakkuriy va ijodiy kuchlarini namoyon etuvchi shunday durdonalar yaratdilar, ular nafaqat antik davr madaniyatini tikladilar, shu bilan birga uyg'onish davrini jahon xalqlari uchun namuna sifatida o'rganish davri darajasiga ko'tardilar. Antik davr madaniyatiga vorislik qilish, uni tiklash bu davr shiori edi. Shu bilan birga, yuqoridagi daho ijodkorlar o'z davrining farzandlari ham edi. Shuning uchun ham ular asarlarida diniy-mifologik mavzular yetakchilik qiladi.

XVI asr tarixga Ovro'pada Reformatsiya davri sifatida kirgan. Martin Lyuter, Yan Gus, Savonarola, Jan Kalvin, Jon Nokslarning Rim papasining cheksiz hukmronligiga qarshi kurashlari nafaqat diniy qarashlarning muqaddasligiga shubha uyg'otdi, shu bilan

birga, milliy-madaniy taraqqiyotga keng yo‘l ochib berdi. Cherkovni, diniy reformatsiya qilish ilm, fan, adabiyot, san’at va xurfiylikni rivojlantirdi.

Yangi davrlarda ijtimoiy-tarixiy va madaniy voqealarga to‘la. Bu davrda Ovro‘pada burjua ishlab chiqarish usuli qaror topib u barcha ma’naviy, ijodiy va tafakkuriy kuchlarni o‘z atrofida birlashtirishga intildi.

Shu bilan birga, har bir asr turli mamlakatlarda turlicha kechdi. Masalan, XVII asr Niderlandiya va Angliyada feodal; tuzumini keskin tanqid qilish, Fransiyada diniy safsatabozlikni ratsionalizm nuqtai nazaridan fosh etish davri bo‘ldi. XVIII asr - ma’rifatchilik, Fransiya va Amerikada inqiloblar davri sifatida tarixga kirgan. XIX asr esa burjua madaniyatining gullab yashnagan, keyinchalik esa tanazzulga yuz tutish davri hisoblanadi. Qanday bo‘lmasin ijtimoiy-madaniy taraqqiyot bir on ham to‘xtamadi, u yangi va rang-barang yo‘nalishlarda, ko‘rinishlarda rivojlanib inson qudratini aks ettiruvchi voqelik sifatida saqlanib keldi.

Shunday qilib, uzoq tarixiy rivojlanish, birinchidan, madaniy rivojlanish hech qachon to‘xtamaganini, madaniyat bir bosqichdan ikkinchi bosqichga, ziddiyatlarga to‘la holda bo‘lsada, rivojlanib kelganini, ikkinchidan, har bir tarixiy bosqichning o‘ziga xos madaniyati bo‘lganini, davrlar o‘tishi bilan xalqlararo va qit’alararo madaniy aloqalar kengayganini, uchinchidan, ushbu madaniy aloqalar o‘z navbatida milliy, etnik madaniyatlarning ham shakllanishiga, rang-baranglashishi va qaror topishiga ta’sir etganini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilarni quyidagi chizma orqali ifodalash mumkin:



Мавзунини mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. Ko'pxudolik va yakkaxudolik masalalari haqida ma'lumot bering?
2. Xalqlar hayotida geografik omilning o'rni qanday?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Ёвқочев Ш.А. ва б. Марказий Осиё халқлари ижтимоий-сиёсий ва диний ҳаракатлари тарихи. Ўқув қўлланма. - Т.: ТошДШИ, 2011.
2. Ҳусниддинов З. Ислом: йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар. - Т.: ЎзМЭ, 2000.

4-mavzu: Mazdakiylik ijtimoiy oqimining o'rne

REJA:

1. Mazdak ibn Xamdoddan
2. Mazdakiylar harakati
3. Mazdakiylik ijtimoiy oqimining o'rne

Tayanch iboralar: Mazdak ibn Xamdoddan. Mazdakiylar harakati. Mazdakiylik

Mazdak ibn Xamdoddan (470-529) mazdakiylik ta'limotining asoschisi, mazdakiylik harakatining rahbari. Mazdak Eron shohi Kubot I (488-531) hukmronligi davrida Zardushtiylik otashgohlarining birida kohin, keyinchalik Eron bosh kohini bo'lgan. Mazdak ta'limotining asosida tenglik g'oyasi yotadi. Uning fikricha, dunyoning barcha boyliklari odamlarga teng taqsimlanishi lozim. Buni zo'rlik bilan amalga oshirishni yoqlagan. Kohinlar va amaldorlarning iqtisodiy, siyosiy hukmronligi barbod bo'lgandan keyin Kubot I Mazdak bilan aloqani uzdi. Mazdak zardusht kohinlari va zodagonlarga qarshi dehqon va hunarmandlar qo'zg'oloniga rahbarlik qildi. 529-yil qo'zg'olon bostirilgach, Mazdak qatl etildi.

Mazdakiylar harakati- Sosoniylar davlatidagi xalq harakati (5-a. 90-yillari-6-a. 20-yillari). G'oyaviy rahbarlari – Mazdak. Mazdakiylar ta'sirida vujudga kelgan. Mazdakiylar harakati jamoa huquqlarini qayta tiklash, yer-suv va mol-mulkka barobar egalik qilish, hammaning teng huquqli bo'lishini ta'minlash uchun kurash shiori ostida boshlangan edi. Mazdak harakatining boshlang'ich davrida sosoniylar podshosi Kubot I (488-531) bu harakatdan o'z manfaatlari maqsadlarida foydalanishga intilgan va mazdakiylar yordamida yirik yer egalari, zodagonlar va zardusht kohinlari (mubotlar)ning mustaqilliklarini tugatmoqchi bo'ldi. Lekin Mazdak harakati kuchayib ketishi, zodagonlar va kohinlarning mol-mulkklarini tortib olinishi shohni cho'chitib qo'ygan. 528/529-yillar Kubot Ining o'g'li Xusrav I Anushervon Mazdak harakatini shavqatsiz bostirgan va Mazdakni qatl ettirilgan.

Mazdakiylik – diniy-falsafiy ta'limot. Asoschisi – Mazdak. Mazdakiylar harakati davrida Eronda keng tarqalgan Mazdak ta'limotiga ko'ra, olamda bo'ladigan jarayonlar va ongli va biror maqsadni ko'zlab harakat qiluvchi yaxshilik, yorug'lik manbai bilan ko'r-ko'rona va tasodifiy harakatlanuvchi yomnlik, qorong'ulik (johillik) manbai o'rtasidagi kurshdan iborat. Bu kursh "yaxshilik"ning "yomonlik" ustidan g'alabasi bilan tugallanadi. Mazdakda birinchi o'rinda sof falsafiy va diniy masalalar emas, ijtimoiy masalalar turadi. Mazdakiyda asosiy yovuzlik boylikka hirs qo'yish va kambag'allik, deb ta'kidlanadi. Ijtimoiy zulmga qarshi kursh muqaddas vazifa sifatida talqin etiladi va unga diniy tus beriladi. Mazdakning asosiy g'oyasi mulkiy tenglikni o'rnatishdan iborat. Bu tenglik barcha moddiy boyliklarga dehqonlar jamoasi orqali egalik qilish, ya'ni moddiy boyliklar odamlarga teng taqsimlanishi kerak deb tasavvur etiladi. Bu g'oya xalq ommasi ichida keng tarqalib, mazdakiylik harakatining mafkurasi sifatida xizmat qilgan. Bu ta'limot garchi hayoliy bo'lishiga qaramay, uning adolatsizlik va zulmga qarshi qaratilgani, tinchlikka chaqirishi ijobiy ahamiyat kasb etdi. Mazdakiy keyingi asrlar davomida Eron, O'rta Osiyo va Ozarbayjondagi dehqonlarning va shahar kambag'allarining (Abu Muslim, Muqanna, Bobak qo'zg'aloni) kurash bayrog'i bo'lib qoldi. Eftaliylar bir necha bor o'zlarining eng kuchli raqibi Eron sosoniylari bilan ham urushlar olib boradilar. Xususan Eron shohi Pero'z bilan bo'lgan urushlarda ularning qo'li baland kelib, Eron hukmdori ikki bor asirlikka tushadi. Katta to'lov va majburiyatlar evaziga arang qutilgan Pero'z o'g'li Kubodni uzoq muddat eftaliylarga garovga berishga majbur bo'ladi. Pero'zning 484 yildagi uchinchi urushi

sosoniylar shohining halokati bilan tugaydi. Eftaliylar Marvni egallaydi, Eron ustiga og'ir o'lpon yuklanadi. Pero'zdan so'ng hokimiyatga kelgan Kubod(488-531) davrida ham Eron eftaliylarga xiroj to'lashga majbur bo'lgan. VI asr boshlariga kelib Eftaliylar davlati shu qadar kuchayib ketadiki, ular 502-yilda Vizantiyaga ham yurish qilib unga katta talofat yetkazadilar. 506 yilda ikki o'rtada tuzilgan sulx shartnomasi bo'yicha eftaliylar Vizantiyadan katta miqdorda o'lja olib qaytganlar. Kubodning o'g'li XusravI Anushirvon ham 554 yilga qadar eftaliylarga har yili xiroj to'lab turgan. Keyinroq Turk xoqonligining eftaliylarga bergan kuchli zarbasi natijasidagina Eron eftaliylar ta'siridan qutilishga muvaffaq bo'lgan. Eftaliylar davrida davlat yakka hukmdor tomonidan boshqarilgan, biroq taxt otadan bolaga meros bo'lib qolmay, sulolaning eng loyiq deb topilgan kishisiga berilgan. Mamlakat hududlari markaziy hokimiyat noiblari orqali idora etilgan. Davlatni boshqarishning o'ziga xos qonun-qoidalari bo'lgan. Mamlakat lashkarini asosan otliq askarlar tashkil etgan. Yer egaligi munosabatlari. Ilk o'rta asrlardayoq ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim o'zgarishlar yuz berdi. Vohalarda yirik sug'orish inshootlari barpo etilib, yangi yerlar o'zlashtirish ishlari kengayib bordi. Yangi yerlarni o'zlashtirish ishlariga urug' boshliqlari, qishloq oqsoqollari boshchilik qiladi. Shu boisdan ular o'zlashtirilgan yerlarni katta qismini, sug'orish inshootlari yonidagi yerlarni egallaydilar. Shu tariqa katta yer egaligiga asoslangan mulkdorlar tabaqasi shakllanadi, ular bora-bora ziroatkor aholi ustidan xukmronlik qila boshlaydilar. O'sha zamonda ular dehqonlar deb atalgan. Dehqonlarning shaharlarda hashamatli uylari, qishloqlarda esa qo'rg'onlari bo'lib, xizmatkor-cho'rilarga qo'riqlovchi choparlarga ega bo'lgan. V asrda obikor yerlarning asosiy qismi hali qishloq jamoalarining qaramog'ida edi. Qishloq jamoalarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkda o'ziga tegishli yerlari bo'lgan erkin ziroatchilar kashovarlar deyilar edi. Ularning bir qismi o'ziga tegishli yerlaridan dehqonlar foydasiga mahrum bo'lib, bora-bora Kadivarlarga aylanib borganlar. Kadivarlar dehqonlar yerida ijarador bo'lib ishlashga majbur bo'ladi, dehqonlarga qaram tabaqaga aylanib boradilar. Shu tariqa qishloq ahli uch tabaqaga bo'linadi. Eng asosiy o'zgarish– yerga egalik qilish munosabatlarining vujudga kelishi. Yirik mulkdorlar– dehqon xo'jaliklari salmog'ining kuchayishi. Ularga qaram– ijarador– kadivarlar tabaqasining ortib borishi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar. O'ziga tegishli yerlarda erkin xo'jalikni yurituvchi kashovarlar tabaqasining mavjudligi. Yirik mulkdorlar, zodagonlar zulmi va asoratining ortishi, aholi quyi tabaqalari huquqining poymol etilishi, ularning ayovsiz ekspluatatsiya qilinishi pirovardida ijtimoiy adolat va haqqoniyat yo'lidagi xalq harakatlari, g'alayonlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

VI asr birinchi choragida Eronda boshlanib, O'rta Osiyo hududida ham keng aks-sado bergan Mazdak1 qo'zg'oloni buning yaqqol ifodasidir. Mazdakchilar «Z» harfi bilan boshlanadigan 4 narsaning aholi o'rtasida teng baham ko'rilishini yoqlab chiqqandilar: Zamin (yer), Zar (oltin,boylik), Zo'rlik (kuch-hokimiyat) va Zan (xotin). Mazdak (470-529) – mazdakiylik ta'limotining asoschisi, mazdakiylar harakati rahbari o'rtasida barovar taqsimlash talabini ilgari surganlar. Ular davlat hokimiyati tomonidan fuqarolarning daxlsizligi va qonuniy huquqlarini himoya qilinishini, ayollar tengligini yoqlaganlar. Biroq o'sha davrda, sinfiy tabaqalanish tobora kuchayib, mulkiy tengsizlik avj olayotgan bir paytda mazdakchilik g'oyalarining tantana qilishi yohud hayotga tatbiq etilishi mumkin emas edi. Shu bois ham Mazdak qo'zg'oloni tez orada hukmron tuzum kuchlari tomonidan bostirildi. Mazdak va uning ko'plab

tarafdorlari qo'lg'a olinib qatl etildi. Shunga qaramay Eron va Turon aholisining keng qatlamlari orasida Mazdak g'oyalari saqlanib, ularning haq, adolat yo'lidagi kurashlariga xizmat qildi. Eftaliylar davrida aholining katta qismi ko'chmanchi chorvadorlar bo'lib, ular chorvachilik, yilqichilik bilan shug'ullangan. Suv havzasi, daryo bo'ylariga yaqin hududlarda dehqonchilik rivoj topib bordi. Jumladan, Xorazm, Sug'd Chag'oniyon va Toshkent vohasida dehqonchilik madaniyati salmoqli o'rin tutgan. Darg'om, Zog'ariq, Bo'zsuv kanallari singari suv inshootlari dehqonchilik tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qilgan. Bu davrda yangi tipdagi ko'rkam va gavjum shahar-qal'alar ko'rinishidagi aholi manzilgohlari vujudga keladi. Xorazmdagi Berkutqal'a, Bozorqal'a, Toshkentdagi Oqtapa mavzeilari shular jumlasidandir. Bir necha oilalardan tashkil topgan mazkur manzilgohlar qo'rg'onlar, qalin paxsa devorlar bilan o'ralgan. Ularda hukmron tabaqa kishilariga xos hashamatli, bezakli ark-qasrlar, ko'p xonali binolar bilan birlikda oddiy fuqarolarga mos qilib qurilgan oddiy ko'rinishdagi turar joylar ham o'rin olgan.

Eftaliylar poytaxti Poykand o'z davrining eng ko'rkam, obod shaharlaridan sanalgan. Bu yerda hunarmandchilik, savdo-sotiq, qurilish ishlari ancha rivojlangan. Shahar Buyuk ipak yo'lida joylashganligidan, unda turli mamlakatlarning savdo karvonlari xilma-xil mollari bilan kelib savdo qilganlar. Buning uchun shaharda ko'plab bozoru rastalar, karvonsaroylar mavjud bo'lgan. Mamlakatning savdo-sotiq ishlarida Eronning tanga pullari bilan bir qatorda buxorxudotlar tangasi, Sug'diy va Xorazm tangalari ham keng muomalada yurgan. Eftaliylar Eron, Hindiston, Xitoy va uzoq Vizantiya davlatlari bilan ham qizg'in savdo-sotiq aloqalarida bo'lganlar. Bu esa ularga foyda, manfaat keltiribgina qolmay, ayni chog'da o'sha davlatlar bilan o'zaro yaqinlashuvlarida muhim rol o'ynagan. Eftaliylar davrida madaniyati ham o'sdi. Varaxsha shahri obidalari, Termiz yaqinidagi Bolaliktepadan topilgan saroy, uning devorlariga ishlangan betakror tasvirlar, o'ymakorlik va ganjkorlik namunalari-bular ajdodlarimiz yuksak badiiy mahoratidan yorqin dalolatdir. Bu davrning moddiy madaniyatiga oid yodgorlik sifatida Xorazmdagi Tuproqal'a to'g'risida bir qadar ma'lumot keltirib o'tish joizdir. Uning tuzilishi to'g'ri burchakli bo'lib (500x360 m), gumbazsimon yo'lakli va burjli mudofaa devori bilan o'ralgan. Devorning janubiy qismidagi darvozadan ibodatxonaga tomon asosiy ko'cha o'tgan. Ko'ndalang tushgan ko'chalar shaharni 10 ta mavzega bo'lgan. Tuproqqal'aning shimoliy-g'arbiy qismida maxsus ko'tarma supa ustiga xom g'ishtdan saroy qurilgan. Unga yonma-yon ark binosi joylashgan. Bundan tashqari 100 ga yaqin turar-joy, xo'jalik binolari va 8 ta saroy zali mavjud bo'lgan. Qal'aning janubiy-sharqiy burchagidagi 4ta xonada teri va yog'ochga yozilgan qadimgi Xorazm yozuvidagi 80 dan ortiq hujjatlar topildi. Bu davrda o'lkamizda yozuv madaniyati ham rivoj topgan. Aholi o'rtasida keng tarqalgan sug'd yozuvi bilan birlikda undan bir qadar farq qiluvchi xorazm va eftaliy yozuvlari ham qo'llanilgan. Bu yozuvlarda ajdodlarimizning tarixi, taqdiriga oid ko'plab qimmatli bitiklar, ma'lumotlar bayon qilingan. Shuningdek, eftaliylar davri qo'shiqlari va eposlari A. Firdavsiyning mashhur «Shohnoma»sida ham o'z ifodasini topgan. Sharqda qadimdan nishonlanib kelingan «Navro'z» va unga xos xalq marosimlari Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda va hududlarda keng bayram qilingan. Eftaliylar shaharlarida mangu olov uylari-otashkadalar bo'lib, ular zardushtiylik dinining muqaddas maskanlari sifatida aholi tomonidan ziyorat etilgan. Xullas, Eftaliylar davrida o'lkamiz odamlari o'ziga xos boy madaniy va ma'naviy turmush tarzini yaratib, undan bahramand bo'lganlar. Ayni chog'da ular o'zlaridan keyingi avlodlar uchun ham

munosib iz qoldirganlarki, bunga ularning davriga oid turli hududlardan topilgan ko'plab noyob topilmalar, asori atiqalar guvohdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. Mazdak ibn Xamdoddan kim edi?
2. Mazdakiylar harakati haqida ma'lumot bering.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Ёвқочев Ш.А. ва б. Марказий Осиё халқлари ижтимоий-сиёсий ва диний ҳаракатлари тарихи. Ўқув қўлланма. - Т.: ТошДШИ, 2011.
2. Ҳусниддинов З. Ислом: йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар. - Т.: ЎЗМЭ, 2000.

5-mavzu: Islomgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar

REJA:

1. Zardushtiylik ta'limoti va o'sha davr ijtimoiy hayoti
2. Zardushtiylik ta'limotida ijtimoiy-siyosiy qarashlar
3. Ibtidoiy jamoa tuzumida ijtimoiy hayot

Tayanch iboralar: Avesto. Zardusht. Axuramazda. Xaoma. Turon. Zant. Avesto geografiyasi. Zardushtiylikda ezgulik tamoyillari. Animizm, totemizm, fetishizm, shomollik.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi - Avesto. U O'rta Osiyoda, xususan Xorazmda mil. avv. 1-ming yillikning 1-yarmida paydo bo'lgan. Zardushtiylikning asoschisi afsonaviy payg'ambar Zardusht (Zoroastr)dir. Avesto deyarli 2 ming yil ichida yaxlit holga keltirilgan. Dastlabki yozma nusxasi 12 ming mol terisiga bitilgan, deb rivoyat qilinadi. Avestoning axlokiy-falsafiy mohiyati «ezgu fikr», «ezgu so'z», «ezgu amal» tushunchalarida o'z ifodasini topgan. Zardushtiylarning ibodat oldidan aytiladigan niyati, so'zlari shu 3 ibora bilan boshlangan. Avestoda diniy, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar bayon etilgan. Avestoga ko'ra, olam ikki asos, ya'ni yorug'lik bilan zulmatning, yaxshilik bilan yomonlikning to'xtovsiz kurashidan iborat. Axuramazda yorug'lik va yaxshilik xudosi, kaxramaynu zulmat va yomonlik xudosi hisoblanadi. Axuramazda bilan Anxramaynu to'xtovsiz kurashadi. Bu kurashda pirovardida Axuramazda g'alaba qiladi, ezgulik barqaror bo'ladi.

Avesto hajmi katta kitob bo'lganligi sababli dindorlar kundalik faoliyatida fydalanish uchun uning ixchamlashtirilgan shakli - Kichik Avesto yaratilgan. 2001-yili O'zbekistonda Avesto kitobining 2700 yilligi tantanali nishonlandi. Yerga ishlov berish, qoramolga yaxshi munosabatda bo'lish, don yetishtirish g'oyasi ulug'lanadi. Kimki don yetishtirsa, u haqiqatni yetishtiradi. Xamir ovqat pishirilgan xonadonga devlar ham kirolmaydi. Zardushtiylikda, shuningdek, saxiylik, er-xotin vafodorligi, bola tarbiyasi kabi insoniylik munosabatlari ham nazarda tutilgan. Zardushtiylik diniy qarashlar tizimining tuzilishi. Yagona xudo ideali. Avesto. Zardushtiylikda dafn marosimlari, ostadonlar. Ushbu jarayonlarning ijtimoiy – siyosiy qonuniyligi hamda qadimgi o'choqlarning paydo bo'lishi. Zardushtiylik diniy qarashlar tizimining tuzilishi. Yagona xudo ideali. Avesto. Zardushtiylikda dafn marosimlari, ostadonlar. Ushbu jarayonlarning ijtimoiy – siyosiy qonuniyligi hamda qadimgi o'choqlarning paydo bo'lishi. "Biz tarixga zanjirbandmiz; biz qayerga chopmaylik tarix zanjiri biz bilan birga chopadi". (F.Nisshe) Shunday ekan,

faoliyatimiz mahsuli bo'lgan madaniyat ham tarixga "zanjirband" tarix bilan chambarchas bog'liq. Madaniyatning yuzaga kelishini, rivojlanish bosqichlarini hozirgi davrdagi o'rni va kelajagini aniqlash unga tarixiy yondashishni talab etadi.

Bu o'rinda biz tarixiylik (tarixiy yondashish) va vorisiylik, madaniyat sub'ektlari haqidagi tushunchalarimizni aniqlab olishimizga to'g'ri keladi.

Tarixiylik yoki tarixiy yondashish u yoki bu ob'ektning (mavzuning) yuzaga kelish va rivojlanish yo'llarini, bosqichlarini ilmiy tadqiq etish usulidir. Ob'ekt (mavzu) ilk bor qanday qaysi holatda edi? Uning boshqa ob'ektlar (mavzular) bilan aloqalari, umumiy rivojlanish bosqichlarida tutgan o'rni qanday bo'lgan? Ijtimoiy vazifalari qaysi manfaatlarni, ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan? Uni yaratuvchi kuchlar kimlar bo'lgan? Har qanday mavzuni o'rganishda talab etiladigan ushbu savollarga tarixiy yondashish usuli orqali javob berish mumkin.

Tarixiylik usuli Madaniyatshunoslik uchun o'tmishda sodir bo'lgan madaniy hodisalarni tiklash va ularni to'g'ri baholash uchun zarur. U bizga har bir tarixiy-ijtimoiy bosqichga xos bo'lgan madaniyat turlarini aniqlashga yordam beradi.

Tarixiylik aslida hozirgi davr mohiyatini anglashga qaratilgan. Biroq tarixiy yondashish nafaqat hozirgi davrning shu bilan birga, uning kurtaklari mavjud bo'lgan o'tmishini anglashga hamda kurtaklari mavjud kelajakni aniqlashga ham yordam beradi. Demak, tarixiylik nafaqat ob'ekt (mavzu) o'tmishini, shu bilan birga, uning hoziri va kelajagini ham anglash usulidir.

Tarixiylik madaniyatni ijtimoiy-tarixiy davr bilan birga, uni jamiyat hayotidan ayricha kechadigan hodisa yoki ayrim shaxs va guruhlar faoliyatining, xayolotining mahsuloti sifatida emas, balki jamiyat, tuzum, davlat va umuminsoniy taraqqiyot bilan bog'liq tarzda kechadigan hodisa sifatida qarash imkonini beradi. Aynan tarixiylik orqali madaniyat va ijodsagi umumiy va xususiy, baynalminal va milliy, ilg'or va qoloq, betakror va nusxa, muallifli va muallifsiz kabi belgilar aniqlanadi. Aynan tarixiylik orqali biz insoniyat tarixi madaniyat tarixi ekanini, madaniyat orqali esa davr, bosqichning qanday qadriyatlarga tayanganini, bir davrning ikkinchi davrga, bir avlodning ikkinchi avlodga munosabatlarini kuzatamiz. Aynan tarixiylik orqali biz madaniyat ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarida har bir kishining yoki ayrim shaxslarning, keng xalq ommasining yoki tor guruhlarining manfaatlariga xizmat qilganini, shaxs kamoloti, uning orzu umidlari, jamiyatdagi tutgan o'rni va o'z ijodiy kuchlarini namoyon qilishi qay darajada hayotda o'z o'rnini topganini bilamiz. Xullas, tarixiylik o'tmish mohiyatini anglash, ana shu asosda esa kelajak rejalarini ishlab chiqish uchun zarur. Tarixiylik madaniyatga "madaniyatli va madaniyatsiz", "kerakli yoki keraksiz", "ijobiy yoki zararli" deb baholash usulini ham qo'llash mumkinligini inkor qilmaydi. Inson nima qilmasin, nimaga o'z munosabatlarini bildirmasin eng avvalo hayotiy tajribasi (tarixiylik usuli) va hayotiy ehtiyojlari (hozirgi va kelajakdagi) nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Madaniy boyliklarni ham ana shu nuqtai nazardan baholaydi, qadrlaydi. Shuning uchun "madaniyatning barcha ko'rinishlarida biz doimo" - deb yozadi olmon faylasufi G.Rikkert odam ma'qul topgan qadriyatlarni uchratamiz..." (Qarang: G.Rik-, kert. Nauki o prirode i nauki o kulture. - M., 1998. 556.)

Madaniyatga bunday yondashish boshqa bir olmon mutafakkiri I. Gerder faoliyatiga ham xosdir. Uning fikriga ko'ra, madaniyat-kosmogenez va biogenez taraqqiyot natijasidir. Madaniyatning mohiyati uning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga yaxlit tarzda rivojlanib borishida. Odamni madaniyatga chorlagan narsa aqlni uyg'otgan tildir. Aynan til hayotiy kuchga aylandi, odamni harakatga chorladi. (Qarang: I.Gerder. Idei filosofii istorii chelovechestva. - M., 1977. 6236.)

Odamda, F. Nisshe aytganidek, nafaqat "o'tmish hikmatlari, shu bilan birga, o'tmish illatlari ham quturib turadi". Nachora odam bequsur farishta ham emas, serhiyla iblits ham. Unda ijtimoiy hayot va turmushning hikmatona va illatona tomonlari yashiringan. Madaniyatshunoslikning vazifasi esa odamdagi hikmatona tomonlarini ko'proq o'rganish, shu tariqa undagi yashirin ijobiy kuchlarni uyg'otishdir. Bu bilan biz, Madaniyatshunoslik o'tmishdagi hodisalarga bir tomonlama, ya'ni maqtash nuqtai nazaridan yondoshishi zarur, demoqchi emasmiz. Madaniy merosga xolisona baho berish Madaniyatshunoslik fanining ham vazifasidir.

Baholash usuli tabiiy ravishda madaniy hodisalarni yaxshi yoki yomon, ilg'or yoki qoloq, kishilarni, xalqlarni madaniyatli yoki madaniyatsizga ajratishga olib keladi. Bir paytlari bu usul jamiyatni guruhlariga, sinflarga bo'lganlar maqsadlariga mos kelganini inkor qilib bo'lmaydi. Xuddi shu boisdan ham xalq ommasini ilg'or, demokratik madaniyat, badavlat kishilar, burjuaziya esa ekspluatatsiya maqsadlariga xizmat qiluvchi, antidemokratik madaniyat yaratuvchilarga ajratilgan. Biroq shunday bo'lsada, bu usul kundalik hayotda ham, ilm-fanda ham saqlanib qolmoqda.

Mashhur etnograf E. Taylor va M. Midning etnografiyaga oid o'tkazgan tadqiqotlaridan keyin fanda har bir davr o'ziga xos va o'z davri uchun qadrlil madaniyat yaratadi, madaniyat Yaxshi "ham", "yomon" ham bo'lmaydi, u har xil bo'lishi mumkin degan fikr shakllana boshladi. Haqiqatan ham, baholash usuli ma'lum bir boyliliklarni, davrlarni, hatto xalqlarni kamsitishga yo'l ochib berishi mumkin. Masalan, Janubiy Amerika o'rmonzorlarida zamonaviy taraqqiyotdan chekkada yashab kelayotgan qabilalarni "madaniyatsiz" deb baholash hamon, nafaqat kundalik muloqotda, hatto ilm-fanda ham uchrayib turadi. Vaholanki, har bir xalq, elat va davr o'zining betakror xislatlari hamda madaniy hayotiga egaki, ularni baholaganda nafaqat umumjahon shu bilan birga, ularning ichki xususiy taraqqiyoti ham hisobga olinishi lozim.

Madaniyatda rang-baranglik, har xillik tarafdorlari, insoniyat uchun bir xil bo'lgan va bir bosqichdan ikkinchi bosqichga tadrijiy rivojlanib boruvchi madaniyat yo'q, degan xulosaga kelishadi. Shuning uchun ular Madaniyatshunoslikning vazifasi, tarixi va madaniyatning tadrijiy rivojlanish chizmasini yaratish emas, balki turli xalqlar madaniy hayotining rang-barang ko'rinishlarini yoritish, tasnif etish va turlashdan iboratdir deb ko'rsatishadi. (Qarang: Mejuev. V.M. Kultura i istoriya. - M., 1977. 896.)

Albatta, bu yondashishning ham o'ziga xos nuqsonlari mavjud. Tarix va madaniyatning rivojlanishidagi o'xshashliklarni va tadrijiy bog'liqlikni inkor etish umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirishga xalaqit bermaydimi? Agar madaniyat bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tuvchi hodisa bo'lmasa ilm-fanning kelajakni tadqiq etishi besamar mashg'ulotga aylanmaydimi? Biz insoniyat qaysi maqsadlarga va qanday kelajakka intilayotganini nimaga qarab aniqlaymiz?

Madaniyatga funksionalizm nuqtai nazaridan yondoshish usuli ham mavjud. Bu usulni fanga B. Malinovskiy kiritgan. Uning fikriga ko'ra, madaniyatni boshqa madaniyatga qiyoslash ham, hatto unga umuminsoniy madaniyatning bir qismi sifatida qarash ham mumkin emas, balki u o'zaro bir-birlariga funksional bog'liq ichki qismlari va xususiyatlariga ega butun sistemadir. (Qarang: Mejuev. V.M. Kultura va istoriya. - M., 1977. 896.) Bu usul bilan madaniyatlarni tarixiy-qiyosiy o'rganish, madaniyatlardagi umuminsoniy belgilarni topib, xalqlarni yaqinlashtirish yo'llarini izlash qiyin edi, albatta.

Madaniyatshunoslik o'z tushunchalari, tadqiqot ob'ekti va (usullariga ega fan sifatida falsafadan o'sib chiqdi. Shu bois madaniyat haqidagi qarashlarni o'rganishda ko'pincha faylasuflarning asarlari va fikrlariga murojaat qilinadi.

Yangi davr (XX-XIX asrlar) mutafakkirlarining qarashlari insonning olam va jamiyatdagi o'rnini, uning ijodiy va ma'naviy kuchlari haqidagi tasavvurlarini, ular orqali esa madaniyat haqidagi tushunchalarni kengaytirdi. F. Bekonning insonning aql-zakovatini, ilmiy salohiyatini ulug'lab: "Bilim - kuchdir". "Inson aqliga chek yo'q. U bir yerda to'xtashni ham, xotirjamlikni ham bilmaydi, tinmay olg'a intilaveradi", - degan fikrlari butun ilm olamining kelgusi yo'nalishlarini belgilab berdi.

G'arb ma'rifatparvarlari Volter, Didro, Monteske, Lessing, Xyote, Shiller, Russo ilm-fan va madaniyat tarixini yangi-yangi g'oyalar, qarashlar bilan boyitdi. Ayniqsa, yangi davrning buyuk faylasuflari I. Kant va Gegelning xizmatlari katta.

Kantning fikriga ko'ra, odam "tabiat" va "erk" dunyosidan iborat. Unda tabiat in'om etgan jihatlardan tashqari axloqiy qarashlardan kelib chiqadigan erkin xatti-harakat qilish imkoniyati ham mavjud. Madaniyat esa ana shu imkoniyatdan foydalanish vositasi, quroli, o'z axloqiy burchini bajarish yo'lidir.

Kant madaniyatni axloqiy tartibotlar va tushunchalar bilan yonma-yon qo'ydi, inson faoliyatiga axloqiy madaniyatni asos qilib oldi. "Ikki narsa ruhimizni doimo yangi va yanada kuchli hayrat hamda ehtirom bilan to'ldirib turadi, ular tepamizdagi yulduzli osmon va ichimizdagi axloqiy tartibotdadir" (Qarang: I. Kant. 4-jild, 1 qism. M., 1965, 499 b.). Gegel ta'limotida madaniyatning deyarli barcha asosiy yo'nalishlari o'z ifodasini topadi. Din, falsafa, san'at, huquq, ma'naviy madaniyatning barchasi "ruh", "olam ruhi"ning qonuniy rivojlanish bosqichlari sifatida tasvirlanadi. "Ruh", "ong" ning tarixiy rivojlanish bosqichlarida madaniyatlar bir-birlaridan farq qiladi. Odam jamiyat va umumjahon taraqqiyotiga qo'shib madaniyatga aralashadi. Bu esa falsafa orqali ro'y beradi. Gegel inson aqlini tarixiy jarayonning hal qiluvchi kuchi sifatida qaradi. Aql tashqi olamni o'z maqsadlariga shunday shijoat bilan bo'ysundiradiki, u odamning ushbu dunyo ustidan hokimligini ta'minlaydi" (Qarang: Gegel G. En-siklopediya filosofskix nauk. 3-jild. - M., 1977. 656). Yaratilgan barcha narsalarda odam aqli, tafakkuri, ruh evolyutsiyasi orqali madaniyatning qudrati namoyon bo'ladi. Tarix va madaniy hayot bir-birlari bilan chambarchas bog'liq bosqichlardan tashkil topadi. Ma'naviy madaniyat - ruh ijodiy kuchining aks etishi, madaniyat orqali ruh o'zining yaratuvchiligini anglaydi. Har bir kishi o'zining aqli - tafakkuri orqali jamiyat, umuminsoniy boyliklarni egallashga erishadi.

Gegelning fikriga ko'ra, ilm-fanga asoslangan va tinmay bilimga intiluvchi Yevropa madaniyati boshqa xalqlar uchun namuna, o'rnak oladigan andoza bo'lmog'i kerak. Bu o'rinda biz Gegelning fikri Yevropotsentrizm oqimining rivojlanishiga ta'sir qilganini payqashimiz mumkin. Keyinroq bu oqimga qarshi Vostokotsentrizm oqimi yuzaga keldi va natijada Yevropa misolida G'arb madaniyati bilan Sharq madaniyatini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish shakllandi. To'g'ri, ayrim tadqiqotchilar Yevropa bilan Sharq o'rtasidagi farqlarni emas, balki mushtarak tomonlarni ko'proq o'rganishga da'vat etadilar. Biroq hozirgi paytda, xuddi shuningdek, Madaniyatshunoslikda ham, G'arb va Sharq madaniyatlarini bir-birlaridan farq qiluvchi hodisa sifatida qarash keng tarqalgan. Biz buni o'tkinchi hol deb qaraymiz.

XX asrda madaniy taraqqiyot keskin burilishlarni o'z boshidan kechirdi. Sinfiy nifoqlarning avj olishi, birinchi va ikkinchi jahon urushlari, Yevropada keng demokratik o'zgarishlar va nihoyat 80-yillarning oxirlarida sovet totalitar tuzumining yemirilishi, eng avvalo, madaniy jarayonlarga ta'sir etdi. Bu voqealarning ta'sirida yangi-yangi ilmiy nazariyalar va qarashlar yuzaga keldi. O. Shpengler, A. Toynbi, K.Yaspers, P. Sorokin, E. Kassirer, Y. Xayzinge, V. Solovev] N. Berdyaev, N. Danilevskiy, L. Gumilev, K. Kantor, M.S. Kagan] E.S. Markaryan, V.M. Mejuev, S. Xatington, F. Xayek va boshqalarning ilmiy-nazariy izlanishlari tarixiy-madaniy jarayonlarning yangi qirralarini, madaniyatning ichki xususiyatlarini, ayniqsa, ziddiyatli tomonlarini kengroq ochib berishga qaratildi.

Madaniyat - inson faoliyatining natijasi va mahsuli. Inson esa o'z faoliyati uchun zarur narsalarni jamiyatda tayyor holda topadi. Agar har bir avlod va har bir kishi yashashi va faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan qurollarni mutlaqo qaytadan kashf qilishga majbur bo'lganida edi taraqqiyot haqida hech qanday gap ham bo'lmas edi. "Tarix esa odamzod nasli tarixidan emas, ayrim shaxslar tarixidan iborat bo'lardi". (I. Gerder). Kishilar o'zidan oldingi jamiyat va avlodlar yaratgan boyliklarga tayanib yashaydilar, ana shu boyliklar yordamida yangi boyliklar yaratadilar. A. Eynshteyndan, siz nisbiylik nazariyasidek buyuk kashfiyotga qanday erishdingiz, deb so'rganlarida, men buyuklar yelkasida o'tirgandim, deb javob bergan ekan. Madaniyat quruq yerda paydo bo'lmagani uchun uning tarix bilan bogliqligi to'g'risida fikr yuritganda madaniyatda vorisiylik va avlodlarning madaniy merosga munosabati masalasi haqida to'xtalib o'tish zarur bo'ladi.

Qadimgi Sharqda shakllangan turmush tarzi, diniy, falsafiy va axloqiy qarashlar, san'at va adabiyot kelgusi madaniy taraqqiyotning asosiga aylandi. Har bir keyingi davr ularni qayta va qayta kashf etishi an'anaga kirdi. "Masalan, hind madaniyati hanuzgacha Vedalar, "Ramayana", "Maxobhorat", "Bxagavatgita", buddizm va jaynizmning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlariga tayanib keladi. Hind ijtimoiy-falsafiy hayotida birorta mutafakkir yoki ilmiy oqim yo'q, yuqoridagi asarlar hamda ta'limotlarga tayanmagan. "Insondan yuqori narsa yo'q", "Kim barcha narsada yagona ruhni va yagona ruhda barcha narsani ko'ra olsa yaratilgan hech bir narsaga u nafrat bilan qaramaydi". (Upanishadlar). "O'zingga yoqmagan narsani boshqaga ham ravo ko'rma". "Ipak qurtini boylikka o'chligi o'ldiradi". (Maxobhorot). "Jang maydonida mingta yov ustidan g'olib chiqish mumkin, ammo haqiqiy g'olib uki, kim o'zini o'ziga itoat ettiradi". "Bu dunyoda hech qachon nafratni nafrat bilan yengib bo'lmaydi, nafratni faqat muhabbat mavh eta oladi (Budda). "O odam! Do'st - o'zingga o'zing. Do'stni avvalo o'z ichingdan izla! (Jaynizm) hatto jaynizm, tarafdorlari yon-atrof, havo va tuproq ko'zga ko'rinmas jonivorlarga to'la, degan fikrga tayanib, ularga zarar yetkazmaslik uchun og'izlariga doka tugib, oldlarini supurib yurishgan. Bu qarashlar nafaqat Hindiston, shu bilan birga butun Sharq, hatto G'arb falsafasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi. Mashhur sharqshunos Maks Myuller yozgandi: "Eng zamonaviy va eng qadimiy hind sivilizatsiyasi o'rtasida uzluksiz vorisiylik mavjud". Vorisiylik negizida esa hayotiylik yotadi. Shuning uchun ham yuqoridagi fikrlar bir necha asrlar oldin aytilgan bo'lsada, davrimiz va zamondoshlarimiz ularni qayta-qayta takrorlamoqda. Agar vorisiylik negizida hayotiylik bo'lmaganida edi, deb yozadi Javaharlal Neru, "Biz uchun o'tmish sovuq, befoyda, o'lik va qiziqarsiz bo'lib qolaverardi" (Qarang: Otkritie Indii: Filosofskie i esteticheskie vozzreniya v Indii XX v. - M., Xudoj. liter. 1987. 246.) O'zbekiston xalqlari haqidagi dastlabki yozma manba Avesto hisoblanadi. Avesto so'zi "asos" yoki "asosiy matn" degan ma'noni anglatadi, ya'ni u zardushtiylarning diniy va falsafiy qarashlari bitilgan asosiy manbadir.

Avestoda yorug'lik, yaxshilik xudosi Axuramazda bilan zulmat, yovuzlik xudosi Axriman o'rtasidagi kurash haqida hikoya qilinadi. Bu qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi kurash tabiatda, koinotda va yerda davom etadi. Avestodagi falsafiy va axloqiy qarashlar keyinchalik g'arb mutafakkirlari (F. Nisshe, va b.) ijodiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyoga bostirib kirishi (er. av. 329-y) nafaqat o'lkamiz xalqlari o'rtasida ozodlik harakatlarini kuchaytirdi, shu bilan birga, ularga Yunon-Makedon madaniyati bilan tanishish imkoniyatini yaratdi. Iskandar vafotidan keyin Yunon-Baqtriya va Parfiya davlatlari yuzaga keladi. Keyingi yillarda o'tkazilgan arxeologik qazilmalar er. av. Amudaryoning o'ng va so'l qirg'oqlari ham Yunon-

Baqtriya davlatiga kirganidan, shu tariqa butun hududda ellinizm madaniyati yoyilganidan, shuningdek, O'rta Osiyoning qadimgi aholisi ellinizm ta'siri ostida bo'lgan davlatlar bilan o'zaro munosabatda bo'lganligidan dalolat beradi. Natijada yunon madaniyati mahalliy aholi madaniyati bilan qo'shib ularning har ikkalasi ham yangi bosqichga ko'tariddi. (Qarang: O'zbekiston tarixi. - T., 1997. 76 b.)

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. Zardushtiylik ta'limoti va o'sha davr ijtimoiy hayoti haqida fikrlaringiz.
2. Zardushtiylik ta'limotida ijtimoiy-siyosiy qarashlar qanday edi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Қажумов А. ва б. Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Т.: Ёзувчи, 2000.
2. Бойс М. Зороастрийцы, верования и обычаи. - М., 1987.

6-mavzu: Markaziy Osiyoda Islom dinining mazhab va oqimlari

REJA:

1. Islom dinidagi aqidaviy yo'nalishlar
2. Islom dinidagi mazhab
3. Islom dinining oqimlari

Tayanch iboralar: Islom dini. Oqim. Mazhab. Sunniylik. Shialik.

Islom dinidagi aqidaviy yo'nalishlar soni tarixiy manbalarda turlicha berilgan. Ulardan eng asosiy va mashhurlari – sunniylik, qadariya, murjia, jabariya, xoriyya, mo'tazila, shia kabilar. Islomdagi yo'nalish deganda muayyan e'tiqodiy masala asosida birlashgan musulmonlar majmuasi tushuniladi. Masalan, sunniylik yo'nalishi sunnat va jamoat asosida, xoriyylik ajralib chiqish va qarshilik ko'rsatish, shialik esa Ali (r.a.) va uning avlodlarini haddan ortiq e'zozlash asosida birlashgan. Shia so'zi lug'atda tarfaksh ma'nosini anglatadi. Istelohiy ma'noda shia – Ali ibn Abu Tolib va uning avlodlarini barchadan ustun qo'yish oqibatida musulmonlardan ajralib chiqqan yo'nalish hisoblanadi. Ilk davrida sunniylikdan faqat rahbarlik masalasidagina farq qilgan shialik, bora-bora aqidaviy va fiqhiy masalalarda ham undan ajralib alohida yo'nalishga aylandi.

Shia – lug'atda tarafdor ma'nosini anglatadi va ularning e'tiqodiga ko'ra, Ali (r.a.)ga Payg'ambarimiz (s.a.v.) vasiyat qilganlar va shunga ko'ra, Ali (r.a.) Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning o'rinbosaridir. Payg'ambarimiz (s.a.v.) Ali (r.a.)ga Ollox taolo yo'lida amal qilishga buyurdilar. Insonlar Rasululloh (s.a.v.) vafotlaridan so'ng U zotning buyruqlarini inkor qildilar va Ali (r.a.)dan boshqa inson (Abu Bakr Siddiq)ga bay'at qildilar, hamda shu tariqa, kofir bo'ldilar. Shia tarfdorlari o'z so'zlariga Olloxning: “Darvoqea, sizlarning do'stingiz faqat Ollox, Uning Rasuli va iymon kettirganlar hamda namoz o'qiydigan va ruku qilgan hollarida ham zakot (sadaqa) beruvchilardir” oyati karimasi bilan dalil keltiradilar.

Mazhab (Arab – yo'nalish, oqim, yo'l, ta'limot), shariat mazhablari – Islomda diniy huquq tizimlar va yo'nalishlari. 8-9 –a.larga kelib shariatning shakllanishi jarayonida huquqshunoslik – fiqh sohasida juda ko'p mazhablar yuzaga kelgan. Hozirgi vaqtda sunniylikda 4ta mazhab – hanafiylik, molikiylik, shofiiylik, hanbaliylik (mazhablar nomi ularning asoschilari: Abu Xanifa (Imomi A'zam), Molik ibn Anas, Shofiiy, Ibn Xanbal nomidan olingan), shialikda bir mazhab – ja'fariylik (asoschisi –

Ja'far as-Sodiq) saqlanib qolgan. Shariat mazhablari diniy firqalardan farq qiladi. Sunniylikda to'rttala mazhab ham teng hisoblanadi, yirik musulmon universitetlarida to'rt mazhab bo'yicha alohida dars o'qitiladi. Mazhablar umuman an'anaviy diniy huquq doirasidan chiqmagani holda, shariat masalalarida yengilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishlari bilan bir-biridan farq qiladi. Hozir Islom mamlakatlarida hanafiylik (Turkiya, Pokiston, Hindiston va boshqa.) mamlakatlar, molikiylik (Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya), shofiiylik (Misr, Indoneziya va boshqa mamlakatlar), hanbaliylik (Saudiya Arabistoni) mazhablari, shuningdek, shialik tarqalgan mamlakatlar (Eron, Iroq, Yaman va boshqa mamlakatlar)ning huquqiy hayotida ja'fariylik mazhabi o'z mavqeini ma'lum darajada saqlab kelmoqda. O'rta Osiyoda, xususan O'zbekistonda xanafiylik mazhabi keng yoyilgan. Islom dinidagi fiqhiy mazhablar. Qur'oni karim, Hadisi sharif, ijmo, qiyos va qo'shimcha manbalardan, tabiiyki, har kim ham hukm chiqarib ololmaydi. Fiqh deb mazkur manbalardan to'g'ri hukm chiqarishga aytiladi. Hatto bir oyat ustida sahobalardek ulug' zotlar turli fikrda bo'lganliklari to'g'risida rivoyatlar bor. Bugungi kunda dunyodagi taxminan 1.3 milliard musulmn aholisining 92.5 foizini sunniylik tashkil etib, ular mazhablar bo'yicha quyidagi nisbatda bo'linadilar: hanafiylik 47 %, shofiiylik 21 %, molikiylik 17 %, hanbaliylik 7.5 %ni tashkil qiladi. Molikiy mazhabi. Ushbu mazhabga 94/713 yil Madinada tug'ilib, 178/795-yilda o'sha yerda vafod etgan Imom Molik ibn anas qadimiy Madina huquqiy maktabiga tayanib asos solgan. Uning mashhur "Al-Muvatto" kitobi molikiy mazhabining asosi hisoblanadi. Ushbu kitobga ko'p shaharlar yozilgan. "Ar-Raddu alal qadariya", "al-Ma'unatul-kubro" ham uning asarlaridandir. Imom Molik Madinaning mashhur olimlaridan fiqhni o'rganib, ular qo'llaydigan ahli Hadis uslubini qabul qildi va o'z shogirdlarini ham ushbu uslubda tarbiyaladi. Shofiiy mazhabi. Ushbu mazhabning asoschisi – Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ibn Abbos ibn Usmon 150/767 yil G'azoda tug'ilib, 204/820-yilda Misrda hayotdan ko'z yumgan. U Makka olimlaridan fiqh ilmini o'rganganidan keyin Madinaga borib, Molik ibn Anasning dars halqasiga qo'shildi. Imom Molik vafotidan keyin Yamanga va undan so'ng Bag'dodga safar qildi. Imom Shofiiy – Molik ibn Anas, Ahmad ibn Hanbal, Avzo'iy va Sufyon Savriy kabi ahli hadisdan hisoblanadi. U: "Agar mening mazhabimda biron-bir hadisga qarshi biron hukm topsangiz, o'sha hadisni mening mazhabim deb bilgaysiz", - degan edi. Hanbaliy mazhabida Imom Abu Abdulloh Ahmad ibn Muhammad ibn Hanbalning onasi O'rta Osiyoning Marv shahridan va otasi Saharsdan bo'lib, 164/780-yil Bag'dod shahrida tug'ilgan va 241/855-yilda shu yerda hayotdan ko'z yumib, "Bobi harib" nomli qabristonda dafn etilgan.

Islom dinining oqimlari. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ogohlantirib aytganlarki, "Yahudiylar 71 firqaga, nasroniylar 72 firqaga bo'linib ketgan edilar. Mening ummatim 73 firqaga bo'lingaylar. Ulardan bittasigina najot topib omon qolur. Qolganlari esa do'zax ahlidirlar." Xuloso'ylari roshidinlar zamonidan to Imom Moturidiy zamonasigacha, asosan quyidagi firqa yoki oqimlar paydo bo'lib, ummati muhammadiya o'rtasiga tafriqa va fitna solishga harakat qilgan edilar. Ular-qadariya, murjia, xavorij, shia, mo'tazila, ravofiz (rofiziylar), sabaiya, ziroriya, jahmiya, botiniya, qaromita, xurramiya, karromiya (mujassamiya), jorudiya, sulaymoniya (jaririya), butriya, baxniya, mug'iriy, jaxoniya, mansuriya, xattobiya, hululiya, azoriqa, najadot, sufriya, ajoriya, xozimiya, shahbiya, ma'lumiya, majhuliya, mabadiya, rashidiya, mukarramiya, hamziya, ibrohimiya, voqifa, hafsiya, horisiya, yazidiya, maymuniya, mo'tazila firqalaridan-vasiliya, armiya, huzuliya, nazzomiya, murdoriya, ma'mariya, samomiya,

johiziya, xobitiya, himoriya, xatotiya, shahlamiya, asxobi Solih kubba, marisiya, kabiya, jubboiya, bahshamiya, murjia firqalaridan- Abu Shmr, Muhammad ibn Shabib va Xolidiy firqalari, yana murjiaga-yunusiya, g'assoniya, savboniya, sumaniya, marisiya, najjoriyalardan-burg'usiya, zafaroniya, mustadrika, karromiylardan-haqoiqiya, taroiqiya, is'hoqiya. Demak, zikr etilgan 20 firqa rafoziylar – 20 firqa havorijlar, 20 firqa qadariy va murjialar, 12 firqa qolgan najjoriya, bakriya, ziroriya, jahmiya, karomiya kabi oqimlarga taqsimlanib chiqilsa, umumiy soni hadisi-sharifda aytilgan 72 ta adashgan firqalarning adadiga to'g'ri keladi. 73 – firqa esa, Ahli Sunna val-Jamoa deya ataluvchi mazkur hadisi-sharifda qayd etilgan nojiya (najot topuvchi) firqadir kim, Abu Xanifa (Imom A'zam), Imom Molik, Imom Shofiiy, Imom Ahmad, Avzo'iy, Savriy kabi buyuk mujtahid allomalar va ularning izdosh va maslakdoshlari unga mansubdirlar. Kengroq qilib aytadigan bo'lsak, bu saodatmand jamoaga Janob Rasuli Akram (s.a.v.)dan tortib, sahobai kiromlar, tobeinlar, ta'baa tobeinlar, fiqhiy mazhabarning asoschisi kabi mujtahidalar, muhaddislar, arab tili nahvi va adabiyoti namoyondalari, qiroat va tajvid roviylari, tasavvuf shayxlari, ahli tariqatlar, shuhadoyu solihu zohid bandalar hamda turli buzg'unchi oqimlarga ergashib ketmagan musulmonlar kirurlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. Islom dinidagi mazhablarni sanab o'ting.
2. Islom dinining oqimlari qaysilar?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти. - Т., 2005.
2. Ҳусниддинов З. Ислом: йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар. - Т.: ЎЗМЭ, 2000.

7-mavzu: Abu Muslim ijtimoiy harakati va xalifalik bilan munosabatlari

REJA:

1. Abu Muslimning ijtimoiy harakati
2. Xalifalikda toju-taxt uchun kurash
3. Xalifalik bilan o'rnatilgan munosabatlar

Tayanch iboralar: Abu Muslim. Xalifalik. Muqanna. G'urak. Divashtich.

Arablarning Vatanimiz hududida yurgizgan zo'ravonlik va mustamlakachilik siyosati, shubhasiz, yerli aholining turli ijtimoiy qatlamlarining keskin norozililgiga sabab bo'ldi. Buning natijasida arablar hukmronligi davomida o'lkaning turli hududlarida xalq g'alayonlari yuzaga kelib, alangalanib bordi. O'rta Osiyoda arablarga qarshi xalq qo'zg'olonlari Sug'diyonada 720-722 yillarda G'urak va Divashtich boshchiligida Samarqand, Buxoro, Xuttolonda 725-729 yillarda Tohariston va Sug'dda 736-737 yillarda Xuroson va Movarounnahrda Abu Muslim boshchiligida 746-749 yillarda Muqanna qo'zg'oloni 769-784 yillarda Rafi ibn Lais qo'zg'oloni 806-809 yillarda 720-722 yillarda So'g'diyonada yuz bergan G'o'rak (Samarqand hukmdori) va Divashtich (Panjikent hokimi) boshchiligidagi qo'zg'olon arablar hukmronlikligiga qarshi yo'nalgan dastlabki shiddatli xalq harakatlaridan biri bo'lgan. Unda arablar siyosati va zulmidan g'azabga kelgan o'n minglab mahalliy xalq vakillari ishtirok etgan. Xurosonning yangi tayinlangan va zolimligi bilan nom chiqargan noibi Said Xarashiy

katta muntazam harbiy kuch bilan mazkur qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostirishga muvaffaq bo'ladi. Qo'zg'olon rahbarlaridan biri Divashtich ham ushlanib qatl etiladi. 725-729 yillar davomida xalifalikning og'ir soliq siyosatiga qarshi Samarqand, Buxoro, Xuttalon viloyatlarida ko'tarilgan qo'zg'olonlar ham xalq ozodlik kurashida sezilarli iz qoldirdi. Qo'zg'olonchilarning ancha qismi arab ma'murlari siyosatiga norzilik bildirib, islom dinidan chiqadilar. Kesh atrofida yuz bergan mahalliy aholining arablar bilan to'qnashuvi rostmona jangu jadal tusini olgan. 736-737 yillarda Tohariston va Sug'dda yangidan ko'tarilgan kuchli qo'zg'olon o'z safiga aholining turli ijtimoiy qatlamlarini jalb etgandi. Faqat Xuroson va Movarounnahrning yangi xukmdori, usta diplomat Nasr ibn Sayyor (738-748)ning uddaburon siyosati, nizoli masalalarni xal etish borasidagi epchil tadbirlari tufayligina qo'zg'olon harakatlarini bartaraf etish, o'lkada muvozanatni bir qadar saqlash mumkin bo'ldi. Bunda u mahalliy aholiga, ayniqsa uning nufuzli qatlamiga muayyan yon berishga majbur bo'ldi. Jumladan, u arablarning mahalliy aholi bilan qon-qardoshlik aloqalarini kuchaytirishga intildi. O'zi ham Buxorxudot Tog'shodaning qiziga uylandi. Islomni qabul qilgan kishilar juzyadan ozod etildi va barcha musulmonlar huquqiy jihatdan tenglashtirildi. Xiroj solig'i to'lash barcha uchun baravar deb e'lon qilinadi. VIII asr 40-yillarida xalifalikda toju-taxt uchun kurash boshlanadi. 748 yilda Abu Mislimning Xurosonda ko'targan qo'zg'oloni, uning xalifalik poytaxtini egallashi natijasida Umaviy MarvonII taxtdan ag'dariladi. 749 yilda abbosiylar xonadonidan Abul Abbas Saffon taxtga ko'tariladi. Biroq abbosiylar davrida ham mehnatkash aholining ahvoli yaxshilanmadi. Shu boisdan xalq qo'zg'olonlari tez-tez ko'tarilib turdi. Muqanna qo'zg'oloni Vatanimiz xalqlarining arablar asoratiga qarshi olib borgan kurashi tarixida alohida o'rin tutadi. Tarixda «oq kiyimlilar» nomi bilan mashhur bo'lgan bu qo'zg'olonga o'z zamonasining har tomonlama yetuk kishisi, xalq dardi, qayg'usi va maqsadlarini chuqur tushungan, asl ismi Hoshim ibn Hakim, ammo Muqanna (ya'ni yuziga niqob kiygan ma'noda) nomi bilan tanilgan buyuk shaxs rahnamo bo'ldi. Muqanna umaviylar sulolasi inqiroziga kuchli ta'sir ko'rsatgan Abu Muslim qo'zg'olonida ham faol ishtirok etgan. Muqanna hayotning katta mashaqqatli yo'lini bosib o'tgan, oddiy kir yuvuvchidan kichik lashkarboshi, keyin vazirlik darajasiga ko'tarilgan (757-759). 759 yilda Xuroson amiri Abdujabborning xalifaga qarshi isyonida qatnashgani uchun zindonga tashlangan. Zindondan qochib 769 yilda Marvga keladi va xalq harakatiga boshchilik qiladi. U ijtimoiy tenglik, erkin hayot va adolat g'oyalarini o'ziga singdirgan taniqli siymo bo'lgan. Shuning uchun ham uning yangidan xalq kurashiga bosh bo'lishi bu harakatning keng quloq yozishiga, uzoq muddat davom etishiga (unga tayyorgarlik ko'rish jarayonlarini ham hisobga olganda 14 yilni o'z ichiga oladi) sabab bo'libgina qolmay, ayni chog'da arab hukmron doiralari uchun ham kutilmagan oqibatlarni vujudga keltirib, ularga katta hayotiy saboqlar berdi. Qo'zg'olon Marvda boshlangan bo'lsa-da, u tez orada Movarounnahrning keng hududlariga yoyildi. Muqanna qo'zg'oloni davomida Samarqand, Buxoro, Naxshobu Kesh hududlari aholisi ham faol harakatga keldi. Uni Iloq, Ohangaron, Shosh, Farg'ona vodiysining ko'p sonli aholisi ham quvvatlab chiqdi. Qo'zg'olonning bosh g'oyasi-Vatanimiz xalqlari, ularning asl farzandlarining muqaddas yurtni ajnabiy hukmronlardan ozod qilish, uning mustaqilligini kurashib qo'lga kiritish g'oyasi bo'lgan. Mana shu yuksak vatanparvarlik tuyg'usi qo'zg'olonchilarga hayotiy ruh, ma'naviy madad bag'ishlagan, ularning uzoq vaqt davomida arablarning katta harbiy kuchlari bilan jon berib, jon olishib kurash olib borishiga, mislsiz qurbonlar berishiga sabab bo'lgan. Biroq shu bilan

birga qo'zg'olonga tortilgan aholining hamma ijtimoiy tabaqalari ham shu ulug'vor g'oyaga sodiq bo'lgan, unga oxirigacha amal qilgan, deb xulosa chiqarib bo'lmaydi, albatta. Negaki, qo'zg'olon kuchaygan kezlarda undan o'z xudbin maqsadlari yo'lida foydalanishni ko'zlab xalq kurashiga qo'shilgan yuqori tabaqa namoyandalari ham bo'lgan. Ular keyinchalik qo'zg'olon pasayishi va mag'lubiyat sari yuz tutgan kezda darhol xiyonat yo'lini tutib, ajnabiylar bilan til topib, ular tomoniga o'tib ketganligi ham rostdir. Ammo bunday istisnolardan qat'i nazar, bir necha yillar davom etgan «Oq kiyimlilar» qo'zg'oloni yurtimizning ozodlik kurashi tarixida katta dovrug' taratdi, arab bosqinchilarini larzaga soldi, ularga sezilari zarbalar berdi. Qo'zg'olon Muqannaga katta madadkor, jangovar safardosh bo'lgan Hakim ibn Ahmad, Hashviy, Sarxama, Kay yoki G'uriy, G'aricha kabi xalq qahramonlarini ham yetishtirib chiqardi. Ular oxirgi tomchi qonlari qolgunga qadar bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashdilar. 780-783 yillarda qo'zg'olon harakatlari so'nggi hal qiluvchi pallaga kiradi. Bu davrda Muqannaning asosiy kuchlari Qashqadaryoning Kesh vohasida to'plangan edi. Qo'zg'olonning bosh tayanch nuqtasi-Som qal'asi ham shu joyda bo'lgan. Albatta, bu vaqtga kelib xalifalik qo'shinlari katta ustunlikka ega bo'lib, ular mahalliy aholining yuqori tabaqalarini o'z tomoniga jalb etib, qo'zg'olonchilarni tobora siqib borayotgan edi. Muqanna Somda mustahkamlanib, o'z tarafdorlari bilan so'nggi nafasigacha kurashdi. Pirovardida esa dushman qo'lida mag'lub bo'lmay, o'zini yonib turgan olovga otib, qahramonlarcha halok bo'ladi. Bu voqea Beruniy ma'lumotiga ko'ra 783 yilda yuz beradi. Garchand Muqanna qo'zg'oloni yengilgan bo'lsa-da, biroq u buyuk xalq qudratini, agar u birlashsa, uyushsa nimalarga qodirligini to'la namoyon etdi. Qo'zg'olon ayni chog'da xalifalikning Movarounnahrda mustamlakachilik va bosqinchilik ildizlarini ham qaqshatdi. Uning hukmronligining davom etishini shubha ostiga solib qo'ydi. Eng muhimi, u erk va ozodlik uchun talpinayotgan yurtimiz kishilarida vatanparvarlik tuygusini jo'sh urdirdi, ularni ajnabiy zolimlarga qarshi yanada shiddatkorlik bilan kurash olib borishga da'vat etdi. Buning samarasi esa IX asrning boshlariga kelib yurtimiz ustidan xalifalik hukmronligining uzil-kesil ag'darilishi va bir qator mustaqil milliy davlatlarning yuzaga kelishida to'la namoyon bo'ldi. Arablar istilosi va hukmronligi Vatanimiz hududida qanchalik murakkab ijtimoiy-siyosiy oqibatlar bilan bog'liq bo'lmasin, shu bilan birlikda yakkaxudolik g'oyasi, ilg'or ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlarni o'zida mujassam etgan islom dini va ta'limotining o'lkamizda asta-sekin ildiz otib borishi ulug' ajdodlarimiz hayoti va tafakkurida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Butun arab dunyosini birlashtirish, uning ma'naviy qudratini kuchaytirishda yetakchi omil rolini o'ynagan islom dini va uning muqaddas kitobi - Qur'oni Karim g'oyalari va oyatlarining mahalliy xalqlarning ongi, shuuriga singib, ularning turmush va fikrlash tarzining ajralmas qismiga aylanib borishi, shubhasiz, ularning ma'naviy olamiga sezilarli hayotbaxsh ta'sir ko'rsatdi hamda yuksak moddiy va ma'naviy madaniyat namunalarini ijod qilib borishlarida yangi ufqlar ochib berdi. Buning asosiy boisi shundaki, Allohning yagonaligiga imon keltirish, uning muqaddas kitobida ifoda etilgan yuksak insonparvarlik g'oyalarga ishonch va e'tiqod-bular yurt kishilarida bir-birlarini quvvatlash, birlashish, o'zlarini yagona makonda his qilish, o'zaro hamkorlikda, keng sa'y-harakatlarda bo'lish tuyg'usini shakllantirib bordi. Negaki, islom ta'limoti, Qur'oni Karim g'oyalarining o'lkamizga yoyilishi, o'tmishdoshlarimizning Alloh buyurgan olijanob amallarga rioya etib, ruhiy-ma'naviy poklanish sari harakatlanishi, tabiiyki, jamiyat hayoti va uning asosiy tamoyillarining

sogʻlom negizlarda rivojlanib, takomillashib borishiga sezilarli taʼsir koʻrsatdi. Shu maʼnoda Yurtboshimiz ham: «Biz ota-bobolarimizning muqaddas dini boʻlgan islom dinini qadrlaymiz, hurmat qilamiz, odamzod ruhiy dunyosida iymon-eʼiqodni, insoniy fazilatlarini mustahkamlashda uning oʻrni va taʼsirini yuksak baholaymiz», deb bejiz taʼkidlamagan. Zero, oʻlka xalqlarining maʼnaviy yuksalishini taʼminlash, ularning bir-biriga qon-qardoshligi, hamjihatligini jipslashtirishda muhim omil sanalgan asriy bebaho qadriyatlarimizni oʻzida mujassam etgan islomiy ahkomlarning bugunda ham hayotimizda oʻz munosib oʻrnini topayotganligi islomning jamiyat taraqqiyotida muhim oʻrin tutishidan dalolat beradi. Darhaqiqat, islom dini va musulmonchilik tamoyillarining Oʻrta Osiyo hududida tarqalishi, chuqur ildiz otishi barobarida oʻlkamiz xalqlari keng musulmon olami bilan tutashib, uning boy diniy va dunyoviy madaniyati, ilmu urfoni bilan yaqindan oshno boʻlib bordi. Ayni chogʻda azaldan ilmu maʼrifat oʻchogʻi boʻlib kelgan koʻhna yurtimiz bagʻridan bu davrda jahonga dovrugʻ solgan, dunyo madaniyati va sivilizatsiyasi xazinasiga salmoqli hissa qoʻshgan koʻplab nomdor allomalar, buyuk muhaddis olimu ulamolar yetishib chiqdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. Xalifalikda toju-taxt uchun kurash qanday boʻlgan?
2. Xalifalik bilan oʻrnatilgan munosabatlar haqida nimlarni bilasiz?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти. - Т., 2005.
2. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан лавҳалар. – Т.: Ўзбекистон, 1993.

8-mavzu: Markaziy Osiyoning ijtimoiy hayotida tasavvuf va uning suluk va tariqatlari

REJA:

1. IX-XII asrlarda dunyoviy fanlarning yuksalib borishi
2. Sharqning yirik ilmiy va maʼrifiy markazlari
3. Markaziy Osiyo hayotida tasavvuf va tariqatlar

Tayanch iboralar: Islom dini. “Qurʼoni Karim”. Tasavvuf. Tariqat.

Arablarning Oʻrta Osiyo hududlaridagi deyarli bir yarim asrlik hukmronlik davri bu hududning erksevar xalqlarining oʻz eli, Vatanining mustaqilligi yoʻlidagi joʻshqin kurashini, intilishini soʻndira olmadi. IX-XII asrlar davri nafaqat dunyoviy fanlarning yuksalib borishi bilan, shu bilan birga islomiy madaniyat va maʼnaviyatning shakllanib, chuqur ildiz otib borishi, bu sohada talay yetuk olimu ulamolarning yetishib chiqib, Vatanimiz shaʼnini olamaro, ulugʻlaganligi bilan ham tavsiflanadi. Garchand islom dini Arabistonda vujudga kelgan boʻlsa-da, biroq yangi ilohiy taʼlimot Turkiston zaminida ravnaq topdi, takomiliga erishdi. Turkiston musulmon dunyosiga Xorazmiylar, Buxoriylar, Termiziylar, Nasafiylar, Samarqandiylar taxalluslari bilan ijod qilgan koʻplab noyob isteʼdod sohiblarini yetishtirib berdi. Islom va uning asosiy taʼlimoti aks etgan “Qurʼoni Karim” gʻoyalarining oʻlka hayotiga kirib kelishi va keng yoyilishi, shuningdek, mahalliy xalqlarning musulmonchilik tamoyillari va udumlarini qabul

qilishi hamda ularga e'tiqod bog'lashi davomida asta-sekin islom madaniyati shakllanib, chuqur ildiz otib bordi. Bunda shu yurt zaminidan yetishib chiqqan buyuk islomshunos allomalarning xizmati benazirdir. Yurtimiz zaminidan yetishib chiqqan islom olamining buyuk siymolari Ismoil al-Buxoriy (810-870) Hadis ilmining asoschisi Abu Iso at-Termiziy (824-892) Hadis ilmi peshvolaridan Abu Mansur Moturidiy (vafoti 945 y.) Moturidiya tariqati asoschisi Abu al-Mu'iyin an-Nasafiy (1027-1114) Kalom ilmi yirik namoyandasi Xo'ja Ahmad Yassaviy (1041-1167) Yassaviya tariqati asoschisi Najmiddin Kubro (1145-1221) Kubroviya tariqati asoschisi Abdulloh G'ijdivoniy (1103-XII asr ikkinchi yarmi) Tasavvuf ilmi asoschilaridan Bahouddin Naqshband (1318-1389) Naqshbandiya tariqati asoschisi. Xo'ja Ahror Valiy (1404-1490) Naqshbandiya tariqatining yirik namoyadasi Yurtimizda islomiy madaniyatning yuksalib borishi barobarida uning ulug'vor g'oyalari, asl maqsadlarini keng tashviq, targ'ib qilish, ayniqsa hadis ilmini asosli tadqiq etish kuchayib bordiki, bunda sarzaminimizdan chiqqan qator buyuk muhaddis olimlarning xizmati katta bo'ldi. Hazrati payg'ambarimiz Muhammad Alayhivassalom nomi va u zoti sharifning muborak so'zlari bilan bog'liq "Qur'oni Karim" oyatlari mazmuni, mohiyatini teran tushunish va anglab yetishga muhim kalit bo'lib xizmat qiladigan hadisshunoslik ilmi IX asrda jiddiy rivoj topdi. Butun musulmon olamida eng ishonchli manbalar deb tan olingan 6 ta ishonchli hadislar to'plami (as-sihoh as-sitta) xuddi shu davrda yaratildi. Ular orasida Hadis ilmida "Amir al-mo'minin" degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan Imom al-Buxoriy (810-870) nomi yorqin ko'zga tashlanib turadi. Yuksak aql-zakovat sohibi al-Buxoriy, Sharqning yirik ilmiy va ma'rifiy markazlaridan biri- Buxoroi sharifda tug'ilib, juda erta yoshligidan diniy bilimlarni chuqur egallaydi. Imom Buxoriy o'z safarlari davomida turli shaharlardagi 90 ga yaqin ustozlardan ta'lim olgan. Ayni chog'da uning o'zi ham san-sanoqsiz shogirdlarga ustozlik qilgan. Imom Buxoriy shogirdlari orasida Ishoq ibn Muhammad ar-Ramodiy, Muhammad al-Masnadiy, Xalaf ibn Qutayba, Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marvoziy, Imom Ahmad ibn Hanbal singari zukko olimlar nomi alohida ajralib turadi. Imom Buxoriy go'zal insoniylik sifatlariga ega bo'lishi bilan birga uning quvvai xofizasi, xotirasi ham nihoyatda o'tkir bo'lgan. Manbalarda uning 600 mingga yaqin hadisni yod bilganligi qayd etilgan. Al-Buxoriy keyingi nasllar uchun o'zidan katta, boy ilmiy meros qoldirgan. Uning qalamiga mansub noyob asarlar ro'yxati 20 dan oshadi. Bu asarlar orasida "Al-jome' as-sahih" asari (U "Sahiyh al-Buxoriy" nomi bilan ham yuritiladi) o'zining mukammalligi, ahamiyatining benihoyaligi bilan ajralib turadi. Alloma ibn Salohning ta'kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarining soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat. Eng muhimi shundaki, bu sharaflı ishni birinchi bo'lib al-Buxoriy boshlab bergan bo'lsa, keyinchalik boshqa olimlar unga ergashib, hadislar to'plamini yaratganlar. Allomaning "Al-jome' as-sahih" asari asrlar davomida butun musulmon dunyosida yuksak qadrlanib, necha bor nashr etilib, yer yuzi musulmonlari uchun dasturilamal qo'llanma bo'lib kelmoqda. Uning 1325 yilda ko'chirilgan 8 jildidan iborat mukammal nusxasi hozirda Istanbul (Turkiya)da saqlanmoqda. Uning asarlarida ifodalangan mehr-muhabbat, sahiylik, ochiq ko'ngillik, kattalarga hurmat, yetim-esirlarga muruvvat, beva-bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, halollik, pokizalikka da'vat etuvchi yuksak insoniy fazilatlar, olijanob tuyg'ular hamisha insonlarga ma'naviy oziqa bag'ishlab kelgan. Imom al-Buxoriyning zamondoshi va shogirdi, o'z davrining mashhur allomasi-Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892)

ham hadisshunoslik ilmini yuksak bosqichga ko'targan yorqin siymolardandir. O'rta asrlar davrining yirik madaniy markazlaridan sanalgan Termiz shahri atrofida (Bug' qishlog'i-hozirgi Sherobod tumani) tavallud topgan bo'lg'usi alloma o'z ona yurtida dastlabki ma'lumot olganidan so'ng O'rta Osiyoning Urganch, Buxoro, Samarqand kabi yirik shaharlarida bilimni takomillashtiradi. Bundan ham yetarli qanoat hosil qilmagan, hamisha ilmga chanqoq at-Termiziy Sharq mamlakatlariga sayohatga chiqadi. Shu tariqa, u uzoq yillar Iroqda, Isfahon, Xuroson, Makka, Madina singari shaharlarda yashab, ilm-fanning turli sohalaridan-ilm al-qiroat, ilm al-bayon, fikh, tarix va ayniqsa hadis ilmidan o'sha zamonning yirik ustozlari buzruklaridan ta'lim oladi. Ayni paytda at-Termiziyning o'zi ham yuzlab shogirdlarga mehribon ustoz bo'lib, ularning hadis ilmining bilimdonlari sifatida shuhrat topishlariga katta homiylik ko'rsatgan. At-Termiziydan bizgacha katta ilmiy meros yetib kelgan. Uning asosiy asarlari sirasiga "Al-Jomi'" ("Jamlovchi"), "Al-ilal fi-l-hadiys" ("Hadislardagi og'ishmalar"), "Risola fi-l-xilof va-l-jadal" ("Hadislardagi ixtilof va baxslar haqida risola"), "At-tarix" ("Tarix") kabilarni nisbat berish mumkin. Biz tilga olayotgan tarixiy davrning yana bir muhim jihati shundaki, bunda islom dini va uning asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tadqiq etish hamda rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan, tasavvuf va tariqat ilmida benazir bo'lgan vatandosh allomalarimiz faoliyatiga ham bir nazar tashlab o'tmog'imiz joiz bo'ladi. Avvalo, tasavvuf– bu odamlarni halollikka, poklikka undovchi barcha musulmonlarning o'z halol mehnati bilan kun ko'rishini, boshqalar kuchidan foydalanmaslikni, ijtimoiy adolat qoidalariga rioya etishni targ'ib etuvchi ta'limotdir. Ulug' ajdodlarimiz – Xoja Ahmad Yassaviy, Abduholiq G'ijdivoniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiylar ana shu ruhdagi g'oyalarni ilgari surgan edilar. Zero, "Yassaviya", "Kubroviya", "Naqshbandiya" tariqatlarida insonlar Alloh yo'lida, haq yo'lida tinimsiz toat-ibodat, tavba-tazarru qilish barobarida ularning peshona terisini to'kib, halolu pok mehnat qilish, doimiy sa'y-harakatlarda bo'lishlari kerakligi urg'ulanadi. Jumladan, "Yassaviya" ta'limotida poklik, halollik, to'g'rilik, mehr-shafqat, o'z qo'l kuchi, halol mehnati bilan hayot kechirish, Alloh visoliga yetishish yo'lida insonni botinan va zohiran har tomonlama takomillashtirish kabi ilg'or umuminsoniy qadriyatlarning ifodalanganini ko'ramiz. Bu hol boshqa islomiy ta'limotlar uchun ham birdek xosdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. Sharqning yirik ilmiy va ma'rifiy markazlarini bilasizmi?
2. Markaziy Osiyo hayotida tasavvuf va tariqat tushunchalarga izoh bering?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Хoжи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислom маданияти. - Т., 2005.
2. Хусниддинов З. Ислom: йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар. - Т.: ЎЗМЭ, 2000.

9-mavzu: Mo'g'ullar va Temuriylar davrida sarbadorlar harakati va uning g'oyaviy asoslari

REJA:

1. Mo'g'ullar davrida sarbadorlar harakati
2. Temuriylar davrida sarbadorlar harakati

Tayanch iboralar: Mo'g'ullar davri. Temuriylar davri. Sarbadorlar harakati.

XIII asrda Mavorounnahr va Hurosonda mo'g'ullar bosqini va hukronligi davomida etnik aralashuv jarayoni davom etdi. Mo'g'ullar bilan birgalikda ularga tobe qo'shni yurtlardan bir qator turkiy qavmlar-jaloirlar, barloslar, kavchinlar, arlotlar kabi turkiy urug', qabilalar bu yerga kelib vatan topdilar. Jumladan, barloslar Qashqadaryo vohasiga joylashgan bo'lsa, jaloirlar esa ko'proq Ohongaron vodiysida qo'nim topdilar. Kavchinlar bo'lsa asosan Farg'ona vodiysi, Qoshg'ar hududlari bo'ylab joylashdilar. Arlotlar esa Surhon vohasi janubida va Afg'onistonning shimoliy mintaqasida o'rnashib, bu hududlarda yashovchi aholi tarkibiga singib ketdilar. O'rta Osiyoga kelib joylashgan mo'g'ul jamoalari ham asta-sekinroq hayotga o'tib, o'zlariga nisbatan ancha yuqori madaniyatga ega bo'lgan yerli aholining urf-odatlarini, udumlari, turmush tarzi, musulmon dini e'tiqodlarini qabul etib, ko'p hollarda ular bilan aralashib bordi. Ayniqsa XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu xududda mo'g'ullarning islomni rasmiy din sifatida e'tirof etishi va unga e'tiqod qilishi, shuningdek, ularning o'troq hayotga o'tib borishi, turkiy (o'zbek) tilda to'liq muomala yuritishi bular o'zaro qo'shilish jarayonining muhim omili bo'ldi. Mo'g'ullarning birinchi hujumiga duchor bo'lgan hudud O'tror bo'ldi. Chingizxon va uning lashkarining o'trorliklardan alohida o'chi bor edi. Negaki, Chingiz yuborgan savdo karvoni huddi shu yerda saronjom qilinganligi ularning yodidan ko'tarilmagandi. Chig'atoy va O'qtoyning son-sanoqsiz kuchlari shahar qal'alariga bosqin uyushtirgan kezlarda o'trorliklar ularga qarshi mardonavor jang qildilar. Shahar aholisi G'oirxon, Nalchuq va Qorachor bahodirlar yetakchiligida tengsiz dushman bilan uzoq vaqt jon berib, jon olishdilar. Shahar mudofaasi 5 oydan ziyod davom etdi. Xalq qarshiligi mislsiz bo'ldi. Biroq oxir-oqibatda shahar dushman tomonidan egallandi. Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" kitobida ta'kidlanganidek: "...O'trorning butun aholisini sahroga haydab chiqdilar va qatl qildilar. O'tror xisorini qo'lga kiritib, yer bilan barobar qildilar. Tirik qolganlardan, raiyat va hunarmandlarning ba'zilarini hibsga oldilar, ba'zilarni esa qul qilib haydadilar». Mo'g'ul bosqinchilari Movarounnahrning boshqa hududlarida ham ko'z ko'rib, quloq eshitmagan yovuzliklarni sodir etdilar. Buning yaqqol ifodasini ularning gullab-yashnagan Buxoro, Samarqand, Xo'jand singari shaharlar va ularning aholisiga nisbatan qilgan behad yovuzliklari misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, Chingiz qo'shini 1220-yilning fevralida musulmon Sharqining yirik islom markazlaridan sanalgan Buxoro ustiga balo-qazodek yopirilib keladi. Buxoro xalqi bir necha kun davomida dushmanga matonat bilan qarshilik ko'rsatadi. Bu esa Chingizxonni darg'azab etadi. Natijada u shaharni yakson qilish, boyligini talash, xalqini qirg'in qilishga buyruq beradi. Buxoro qamali 12 kechayu-kunduz davom etdi. Mo'g'ullar yondirilgan, kuli ko'kka sovurilgan shaharni egallagach, ko'ngillariga siqqan noma'qulchiliklarni amalga oshirdilar, shahar himoyachilari butunlay qirib tashlandi. Mo'g'ullar Movarounnahrni idora etishda tub yerlik amaldorlar xizmatidan ustamonlik bilan foydalandilar. Shu o'rinda Mahmud Yalavoch, Badriddin Amid, Hasan Xoja, Ali Xoja, Yusuf O'troriy, Qutbiddin Xabash Amid singari mo'g'ul hukmdorlari bilan yaqindan hamkorlik qilgan mahalliy amaldorlar ismlarini keltirib o'tish joizdir. Shu boisdan ham Chingizxon vafotidan (1227) so'ng ulug' hoqon bo'lgan O'qtoy (1227-1241) va Chig'atoy ulusi hukmdori Chig'atoy (1127-1241) davrida Movarounnahrni boshqarish mahalliy yirik savdogar, diplomat, sotqinlik evaziga mo'g'ullar ishonchini qozongan Mahmud Yalavoch tasarrufiga berilgani tasodifiy emasdir. U xoqon nomidan raiyatni boshqaradi. Uning qarorgohi poytaxti Xo'jand edi. Harbiy

hokimiyat, aholini ro'yxatdan o'tkazish, soliq yig'ish ishlari doruxachi va tamg'ach deb ataluvchi mo'g'ul amaldorlari qo'lida bo'ladi. Mo'g'ul bosqoqlari ixtiyoridagi ko'p sonli jangchilar Mahmud izmiga bo'ysundirilgan. Aholidan markaziy hokimiyat xazinasi uchun ko'plab soliqlar undirilgan. Mo'g'ullarning Movarounnahr hududini bosib olib, shib-shiydom etib, talon-taroj qilishi, so'ngra mahalliy aholini haddan ziyod soliq, o'lpon va to'lovlar yo'li bilan zulm-asoratga duchor etishi, pirovard oqibatda xalqning ko'tarilishiga, o'z erki, mustaqilligi uchun qalqishiga sabab bo'ladi. 1238-yilda Buxoro yaqinidagi Torob qishlog'ida boshlangan oddiy g'alvir yasovchi hunarmand Mahmud Torobiy boshchiligidagi xalq qo'zg'oloni shu tariqa yuz bergan edi. Mo'g'ullarning bir yarim asrlik bosqini va zulm-asoratidan butunlay xalos bo'lgan ona yurtimiz qudratli saltanat darajasiga ko'tarildi. Ayni chog'da u ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy jihatlardan yuksalib, jahonga dovrug' taratdi. Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksak namunalari, duru javohirlari mana necha asrlardirki, jahon ahlini hayratga solib, minnatdor avlodlar ardog'ida e'zozlanib kelmoqda.

Garchand Amir Temur qudratli saltanat barpo etib, uning hududlarini sharqu g'arbga, shimolu janubga kengaytirib, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatlardan yuksaltirib dovrug'ini olamga mashhur qilgan bo'lsa-da, biroq uning vafotidan keyin mamlakat tanazzullikka uchrab bordi. Buning asosiy boisi avvalo shundaki, Amir Temur tasarrufiga kirgan ellar va yurtlar shu qadar xilma-xil, uzoq masofalarga cho'zilgan bo'lib, ularni yagona bir markazdan turib uzoq vaqt boshqarish murakkab edi. Buning ustiga ulardagi mavjud turli-tuman muholifatchi kuchlar ertami-kech o'z hududiy mustaqilligi uchun harakat etishlari tabiiy edi. Sohibqiron saltanatini zaiflashtirish va parchalanishga olib kelgan muhim sabablardan yana biri- ko'p sonli temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt talashib boshlanib ketgan va bir necha yillarga cho'zilgan o'zaro besamar urushu nizolardir. Chunki, Amir Temur vafotidan so'ng uning ko'p sonli vorislari uning dono vasiyatlari, o'gitlariga quloq osmay, markaziy hokimiyatni egallash yo'lida jangu-jadalga kirishadilar. Tug'luq Temurning o'g'li Ilyosxo'ja 1365-yil bahorida Movarounnahrda yurish qiladi. Chinoz atrofida, Sirdaryo bo'yidagi «Loy jangi»da Amir Temur va amir Husayn qo'shinig Ilyosxo'ja boshliq mo'g'ul qo'shinidan kutilmaganda yengilishi Amir Temur uchun juda katta saboq bo'ldi. Ilyosxo'ja qo'shinlari Samarqandga tomon yurdi. Hokimiyatsiz qolgan mahalliy aholi (Samarqand hokimi qochib ketgan edi) mudofaaga ko'tarildi, bu harakat sarbadorlar harakati nomi bilan mashhurdir. Samarqand uning markaziga aylandi. Harakatga tolibi ilm vakili Mavlonozoda, jun tituvchilar oqsoqoli Abu Bakr Kalaviy va mohir mergan Xo'rdaki Buxoriylar boshchilik qiladilar. Jome masjidida to'plangan 10 mingga yaqin aholi Mavlonozoda da'vati bilan mo'g'ullarga qarshi kurashda faol qatnashadilar. Ilyosxo'ja Samaraqandda katta zarbaga uchrab Movaraunnahrdan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Samaraqandda hokimiyat sarbadorlar qo'liga o'tadi. Ular xalq turmushini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar ko'radi, mo'g'ullarga tarafdorlik qilganlarning yer va mulklari musodara etiladi. Samarqand sarbadorlari g'alabasidan xabar topgan amir Husayn va Amir Temur 1366-yil bahorida Samarqandga keladilar. Amir Husayn hiylasi bilan sarbadorlar boshliqlari qo'lga olinib, o'ldiriladi. Amir Temurning sa'y-harakatlari tufayligina Mavlonozoda tirik qoladi. Movaraunnahrda hukmronlik amir Xusayn qo'liga o'tadi. Amir Husayn Movarounnahrda Amir Temurni qoldirib o'zi Xurosonga ketadi. Amir Temurning keyingi jo'shqin faoliyati davomida uning amir Husayn bilan ittifoqi mustahkam bo'lolmadi. Tabiatan shuhratparast,

hokimiyatparast shaxs bo'lgan amir Husayn qanday qilib bo'lmasin Amir Temurga pand berish, unga xiyonat qilishdan qaytmaydi. Sharofiddin Yazdiy aytganidek, «ularning o'rtalarida sadoqat va do'stlik munosabati yaqinlik va qarindoshlik aloqasi bilan qat'iy qilingan edi. Ammo Amir Husaynning ko'ngli makr va g'addorlik o'y-hayolidan bo'shamasdi» (Sh.Yazdiy. «Zafarnoma», 207-bet). Xalqimizda «birovga choh qazisang, o'zing yiqilasan» deyilganidek, amir Husayn ham o'zi qazigan chohga o'zi yiqildi. Vaziyat taqozasi bilan Amir Temur amir Husayn o'rtnashib olgan Balxga 1370 yilning bahorida qo'shin tortib boradi va uni mahv etadi. Shundan so'ng Amir Temur Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib qoldi. Samarqand mamlakat poytaxtiga aylandi. Endilikda yurtni boshqarish jilovini qo'lga kiritgan Amir Temur oldida hali g'oyatda katta, murakkab vazifalar ko'ndalang bo'lib turardi. Eng asosiysi, mamlakat hududlarini birlashtirish, yagona markazlashgan davlat tuzishdan iborat bosh vazifani hal etish kerak edi. Buningsiz mamlakat taraqqiyotini olg'a bostirish, uning dovrug'ini jahon miqyosiga ko'tarish mumkin emasdi. Shu boisdan dastlab Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi hududlar diplomatik yo'l bilan birlashtirildi. Amir Temur sharqiy hududlarni mo'g'ullar ta'siridan ozod etish uchun 1370-yil oxiri va 1371-yil boshida Sharqiy Turkiston tomon yurish qiladi. Mo'g'ul xoni Kepak Temurga qaqshatqich zarba berilishi orqasida Farg'ona mulki va boshqa bir qator hududlar egallanadi. Ko'p o'tmay Afg'oniston shimolidagi Shibirg'on viloyati ham uning tasarrufiga olindi. Tarixiy manbalarda Amir Temurning Mo'g'uliston tomon 7 marta harbiy yurishlar qilgani tilga olinadi. Uning qudratli mo'g'ul hukmdorlaridan sanalgan amir Qamariddin bilan olib borgan ko'p yillik urushlari mamlakatining sharqiy hududlarini mo'g'ullar asoratidan xalos qilish, yurt tinchligi, osoyishtaligini qaror toptirishga qaratilgan edi. O'z tasarrufida Qoshg'ar, Issiqko'l va Yettisuv vohasini birlashtirgan hamda 1369-yili Ilyosxo'jani taxtdan ag'darib, Mo'g'uliston xoni bo'lib ko'tarilgan Qamariddin bilan 1370-1389 yillar davomida Amir Temur hayot-mamot janglari olib bordi. Bu jangu jadallar oqibatida Movarounnahrqa qarashli asosiy sharqiy hududlar uning tarkibiga qo'shib olindiki, bu hol yurtimiz hududida markazlashgan davlatning vujudga kelishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. Mo'g'ullar davrida sarbadorlar harakati qanday bo'lgan?
2. Temuriylar davrida sarbadorlar harakati qanday tus olgan edi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. – Т., 1995.
2. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан лавҳалар. – Т., 1993.

10-mavzu: O'rta Osiyo xonliklari tarixida darveshlik va qalandarlik harakati

REJA:

1. Qalandariylik tariqati haqida
2. "Ahiy" tushunchasi

Tayanch iboralar: Qalandariylik. "Ahiy" tushunchasi. Qalandarxonalar. "Chor darb" tushunchasi.

Qalandariylik tariqati haqida gap ketganda avvalo, ushbu tariqat a'zolariga xos xususiyatlarni va ularning kelib chiqish sabablarini bilib olish o'rinlidir. Bu ifodalar ularning ta'limotlari bilan ham uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, moddiy unsurlarga katta ahamiyat beruvchi tariqatlar uchun bu omillar birlamchi hisoblanadi. Chunki, har bir tariqatning nozik jihatlarini anglatuvchi maxsus ko'rinishlar mavjudki, ularni ko'rgan kishi birinchi nazardayoq, qaysi tariqat a'zosi ekanini osongina anglab oladi. Ma'lumki, Markaziy Osiyoda faoliyat yuritgan Qalandarxonalar faoliyati kam miqyosda o'rnatilgan bo'lsada, ular orqali biz nafaqat Qalandariylarning hatti-harakatlari, balki, tashqi ko'rinishlari va o'zlariga xos unsurlarni ko'rishimiz mumkin. Qalandariylik tariqatining eng mashhur odatlaridan biri bu ularning soch, soqol, mo'ylov va qoshlarini qirib yurishlaridir. Bu rasm ularning ta'limotlarida muhim hisoblanadi. O'ziga xos bu odat ushbu tariqat a'zolari orasida "Chor darb" nomi bilan mashhur bo'lgan. Bu usulni qo'llash qaysi davrga borib taqalishi haqida ko'pgina manbalarda turlicha ma'lumotlarni uchratish mumkin. Biz ularning har birini keltirib o'tmoqchi emasmiz, balki, eng ko'p tarqalgan va haqiqatga yaqinrog'ini aytib o'tamiz. Bu Qalandariylik tariqatining asoschisi bo'lgan Jamoliddin Saviy (vafoti 1232-yilning) ishqiy voqeasi bilan bog'lanadi. Unga ko'ra Jamoliddin Saviyga oshiq bo'lgan Misrlik bir xonim uni zinoga chaqiradi. U esa yaratgandan qo'rqib soch, soqol, qosh va mo'ylovini qirib uning huzuriga keladi. Ayol uning bu ko'rinishidan hazar qilib, haydab yuboradi. Jamoliddin bu ishi orqali o'z nomusini saqlagani bois, uning tadbiri muridlari orasida ham urfga aylanib ketadi. Natijada "Chor darb" odati yuzaga keladi. Qalandarlar orasida "Ahiy" tushunchasi ham mavjud bo'lgan. bu atama Onado'lida 8 va 9 asrlarda vujudga kelgan bo'lib, qalandarxonalarda darveshlar bir-birlariga "Ahiy" deb murojaat qilganlar. Ba'zan esa shayhlari muridlarga nisbatan shu atamani qo'llaganlar. Shayxlar o'z muridiga biron vazifa topshirmoqchi bo'lsa, unga ahiy deb murojaat qilgan. "Ahiy" kalimasi 4-5 asrlarda Xurosondagi so'fiylarning xonaqolarida va 5-asrga kelib esa qalandarlarning langargohlarida ham qo'llanila borgan. 6-asrga kelib bu atama umumiy tus oldi. Takiya – xonalarda darveshlar bir-birlariga ahiy deb murojaat qilganlar. Qalandarlarning eng mashhur oqimlaridan biri Haydariya bo'lib, 12 asrning oxirida Xurosonda paydo bo'lgan. Asoschisi – Qutbiddin Haydar Zavoiy (vafoti 616/1221) – O'rta Osiyolik Turkiy qavmlardan chiqqan, Ahmad Yassaviyning izdoshlaridan. U o'z tarafdorlaridan riyozat chekib, uzoq vaqt uzlatda bo'lishni talab qilgan; aynan u amaliyotda qo'l va oyoqlarga temir bilaguzuk, bo'yinga marjonshoda, quloq va barmoqlarga ham shu narsalarni taqishni joriy qilgan. Haydariya yo'nalishining a'zolari bektoshiylar bilan umumiy jihatlari ko'p bo'lgan, ularning tashqi ko'rinishlari, kiyimlarida farq bo'lsada, hayot tarzi deyarli bir xil edi. Dastlabki haydariylar Suriya, Kichik Osiyo va Hindistonda tez tarqalgan, lekin kundalik turmushdagi ko'rsatmalar og'irlik qilgani bois, uning ommaviyligi susaygan. A'zolarining soni keskin qisqarib, jamoalar tarqab ketgan. Ba'zilari esa mahalliy qalandariyaga qo'shilib ketgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. Qalandariylik tariqati haqida qanday ma'lumotga egasiz?
2. "Ahiy" tushunchasi nima?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Тулепов А. Ислом ва ақидапараст оқимлар. – Т.: Шарқ, 2013. 336 б.
2. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан лавҳалар. – Т., 1993.

11-mavzu: Karamatiylar va karamatiychilik ta'limoti

REJA:

1. Karmatlar harakati IX asr oxirida
2. Karamatiylar 318/930-yili Haj vaqtida Makkaga hujum qilganligi
3. Karamatiylarning Movarounnahrda faoliyatlari

Tayanch iboralar: Karamatiylar. Karamatiychilik ta'limoti. Hamdon. Abdulloh ibn Maymun Qaddoh.

Karmatiya: Ismoililarning asosiy shahobchalaridan biri bo'lib, ularni Karmatlar ham deb ataladi. Shuningdek, bu firqaga yangi kirganlarga ta'lim berish qattiq qoida asosida olib borilgani sababli ularning ikkinchi nomi ta'limiylardir. Karmatlar harakati IX asr oxirida Janubiy Iroqda vujudga kelgan, Suriya va Yamanga tarqalgan, dehqonlar, ko'chmanchi badaviylar va hunarmandlardan tashkil topgan. Harakat o'z nomini uning rahbari va tashkilotchisi Hamdon ibn ash'asning laqabi Karmat (yohud Karmatuya, Kirmit)dan olgan. Uning ma'nosi manbalarda turlicha ("Kaltaoyoq", "Qizil ko'z") izohlangan. Biroq Hamdongacha ham Karmatiya nomi bor edi, bu esa, Hamdon o'z laqabini o'sha davrda mavjud bo'lgan shialikning biron-bir tashkiloti nomida olgan deb hisoblashga asos bo'ladi. Karmatiylar Abbosiylar xalifaligiga qarshi qo'zg'olonlarga boshchilik qilgan. Ular yerga jamoa egaligin, umumiy (qurollardan tashqari) tenglik g'oyalarini targ'ib etishgan. Ular Islom marosimlarini bajarmagan, shariat qoidalarini tan olmagan, ularda masjidlar bo'lmagan. Karmatiylar musulmonlarning ziyoratgohlari (masalan, Ka'ba va u yerdagi "Qoratosh" hajar al-asvad)ni bid'at deb hisoblagan. Karmatiylar 284/899-yil Bahraynni bosib olib, al-Aqsoda (Sharqiy Arabiston) o'z davlatini tuzgan, bu davlat XI asr oxirigacha mavjud bo'lgan. Karmatiylar 318/930-yili Haj vaqtida Makkaga hujum qilib, uni talon-taroj etishgan, Haj ziyoratiga borganlarni o'ldirishgan, bir qismini qul qilishgan, u yerdagi "Qoratosh"ni parchalab, o'lja qilib olib ketishgan. Bu hol keng xalq ommasini noroziligiga sabab bo'lib, XI asr oxiri va XII asr boshlarida Iroq va Eronda ularga qarshi shiddatli kurash boshlangan va Karmatiylar harakati bostirilgan. Keyinchalik Karmatiylar Ismoililarning boshqa oqimlariga qo'shilib, yo'qolib ketgan.

Karamatiylarning Movarounnahrda faoliyatlari. Bu harakat dastlab fors o'lkasining janubida 260/874-yili Abdulloh ibn Maymun Qaddoh tomonidan Ismoiliy e'tiqodi sifatida tarqatilgan. Shundan so'ng uning Zakrivayh nomi bilan mashhur bo'lgan Faraj ibn Usmon Koshoniy nomli da'vatchisi Iroqda Karmatiylikka da'vat qila boshlaydi. 278/891-yilda Karmat (pakana) laqabli Hamadon ibn Ash'as Kufa yaqinida Karmatiylik da'vatini odamlar orasida ochiqcha tarqata boshlaydi. shu kishiga nisbatan mazkur firqa vakillari Karmatiylar deb nomlangan. Ularning Islom olamidagi faoliyati 261-278/875-891-yillar oralig'ida boshlangan. Xatto, ular 298/910-11-yilda Iroq savodi Basra va Kufa atrofidagi qishloqlarda mustaqil davlat tashkil qilishga erishadi. Bu davlatni Abbosiylar Xalifaligi tezda yo'qotgan bo'lsada, ularning Baxraynda tashkil topgan davlati 398/1007-8-yilgacha davom etadi. Ular mana shu muddat oralig'ida Islom diniga zid e'tiqodlarni tarqatishdan tashqari, o'zlarining buzg'unchi va vayrona hatti-harakatlari bilan Islom olamini sarosima va tashvishga soladi. 914-yilning oxirida Samarqandda qo'zg'alon ko'tarildi. Ayniqsa, Somoniylar davlatining janubiy hududlarida Xusayn ibn Ali Marvaziy rahbarligi ostida boshlangan qo'zg'alon keskin tus oldi. U Xurosonda G'iyos nomli kishi tomonidan botiniy mazhab bo'lgan edi. Qo'zg'alon Karmatiylar g'oyasi bayrog'I ostida bo'lib o'tadi. Bu qo'zg'alon 918-yilda bostirildi. Nasr ibn

Ahmadning hukmronligi davrida (914-943) Somoniylar davlati hududlarida Karmatiylar harakati yanada kuchayadi. Karmatiylar asosan, Islom dini yoyilishi, yer egaligi munosabatlari kuchayishiga qarshi va oldingi an'analarni tiklashni yoqlab chiqdilar. Movarounnahrda Karmatiylik da'vatini tarqatishda Muhammad ibn Ahmad Naxshabiyning roli katta bo'lgan. karmatiylar hatti-harakatini amaldorlarning bir qismi xatto, amir Nasr ibn Ahmadning o'zi ham qo'llab-quvvatlagani manbalarda zikr qilinadi. Amir Nasrning Karmatiylar ta'limotini qabul qilganini dalili shuki, Amir Nasr o'z hukmronligining oxirgi yillarida Movarounnahrda Karmatiylar harakatining rahbari Muhammad ibn Ahmad Naxshabiy iltimosi bilan Fotimiylar xalifasi al-Qoimga (934-946) bir yuz to'qson ming dinor xun baho to'lashga rozi bo'ladi. Xurosondagi karmatiylarga mansub Xusayn ibn Ali Marvaziy Buxoro hibsxonasida vafot etishi tufayli shuncha miqdor xun haq to'lanadi. Muhammad Ahmad Naxshabiy Xurosondan Buxoroga keladi, ammo uning ishi rivojlanmaydi. U yerdan Naxshabga kelib, Xuroson amirining noibi Maqdotni o'z mazhabiga kiritadi. U amir qarindoshlaridan edi. Keyin amirning xos dabiri Ash'asni o'z mazhabiga o'tkazadi. Ash'as o'z singlisining eri Abu Mansur Chog'oniyni da'vat etganida u ham qabul qiladi. Oytov xos Xojib ham ular bilan do'st edi. U ham shu mazhabga kiradi. Bu odamlar keyin Muhammad Naxshabga: "Sening Naxshabda qolishinga hech xojat yo'q. buxoroga xazrat oldiga kelgin, biz senga madad beramiz. Hamma ulug'larni bu mazhabga kiritamiz" deb ahd qiladilar. U Naxshabdan Buxoroga keladi va yuqorida zikr qilingan kishilar bilan birga odamlarni mazhabiga chorlaydi. U odamlarni avval shia mazhabiga da'vat qiladi. So'ngra asta-sekin ularni botiniy mazhabiga tortadi. U amir atrofida kishilarni ushbu mazhabga kiritadi va nihoyat Nasr ibn Ahmadni ham da'vat etadi, hamda o'zi vazirlikka ko'tariladi. Amir ham uning aytganini qilar edi. Endi u o'z da'vatini ochiq-oydin bajarar edi va uning ta'limotini ham oshkora bo'lib qoladi. Amir yaqinlari unga yordamlashadi. Amir Nasr ibn Ahmadni Karmatiy bo'lishidan boshliqlar va turklar norozi bo'ladilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. Karmatiylar nechanchi yilda Haj vaqtida Makkaga hujum qiladi?
2. Karamitiylarning Movarounnahrda faoliyatlari qanday edi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Тулепов А. Ислам ва ақидапараст оқимлар. – Т.: Шарқ, 2013. 336 б.
2. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан лавҳалар. – Т., 1993.

12-mavzu: Bahoiylik ta'limoti

REJA:

1. Bahoiylik – diniy-siyosiy oqim.
2. 1979-yilda Eronda Islom inqilobidan so'ng Bahoiylik ta'limotiniing rahnamolari

Tayanch iboralar: Bahoiylik ta'limoti. Xayfa.

Bahoiylik, bahoiyya – diniy-siyosiy oqim. XX asr o'rtalarida Eronda Bobiylik harakatining davomi sifatida Iroqda vujudga kelgan. Asoschisi Bahouлло. U insoniyat uchun yagona din, iqtisodiyot va davlat zarur degan g'oyalarni ilgari surgan. Bahouлло fikricha, mavjud dinlarni yo'qotishning hojati yo'q, ularni qandaydir bir nuqsonsiz ta'limot asosida birlashtirish lozim. Aslida hamma dinlar yaxshi, faqat ularni ortiqcha

urf-odat va aqidalardan tozalash kerak. Muhimi – xudoni sevish kerak, chunki muhabbat taraqqiyotining sharti va koinot qonunidir. 1979-yilda Eronda Islom inqilobidan so'ng bu ta'limotning o'nlab rahnamolari qatl etildi. Bahoiylar Osiyoning ba'zi mamlakatlarida ham bor. Bahoiylarning ko'pchiligi Yevropa va Amerikada, asosiy markazlari Germaniya, AQSH, Panamada. Markaziy qarorgohi Xayfa (Isroil) shahrida. O'zbekistonda bahoiylarning ro'yhatdan o'tgan uchta jamoasi bor (1998). Ular Toshkent, Samarqand, Navoiy shaharlaridadir. O'z an'anaviy bayramlarini o'tkazadilar. Xayfa shahriga ziyoratga borib turadilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. Bahoiylik qanday oqim?
2. 1979-yilda Eronda Islom inqilobidan so'ng Bahoiylik ta'limotiniing rahnamolari kimlar edi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Тулепов А. Ислом ва ақидапараст оқимлар. – Т.: Шарқ, 2013. 336 б.
2. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан лавҳалар. – Т., 1993.

13-mavzu: XIX asr oxiri – XX asr boshida jadidchilik harakati

REJA:

1. “Jadid” so'zining izohi haqida
2. Jadidchilik harakatining a'zolari
3. XIX asr oxiri – XX asr boshida jadidchilik harakati

Tayanch iboralar: Jadidchilik. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ismoil Gaspirali.

“Jadid” arabcha so'z bo'lib “yangi” degan ma'noni bildiradi. U o'zi tashkil etgan maktab o'quvchilari uchun o'quv dasturi tuzdi va darsliklar yozdi. U 40 kun ichida 12 o'quvchining savodini chiqarib, tezda shuhrat qozondi. “Tarjimon” gazetasini chiqarib, o'z g'oyalarini yoydi. 1888- yilda “Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh” kitobini nashr etib, jadid maktablarining qurilishi, dars o'tish mazmuni, jihozlanishi, sinov va imtihonlar olish usullarini bayon etib berdi. Ismoil Gaspirali g'oyalari Turkistonga ham kirib keldi. 1893-yilda U Turkistonga kelib, ilg'or ziyolilar bilan uchrashdi, Buxoro amiri huzurida bo'lib bitta jadid maktabi ochishga rozilik oldi. Turkistonlik ziyolilar jadidchilikni yoqlab maorifni isloh qilish, «Usuli jadid» maktablarini tashkil etishga kirishdilar. 1898 yilda Qo'qonda Salohiddin domla, 1899-yilda Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabiga asos soldilar. 1903-yilda Turkistonda 102 ta boshlang'ich va 2 ta o'rta jadid maktablari faoliyat ko'rsatdi. Turkiston jadidlariga Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqa o'nlab milliy ziyolilar rahnamolik qildilar. Ular dastlab maorifni isloh qilish yo'lidani bordilar. «Usuli jadid» maktablari tarmog'i kengayib bordi, ularda diniy ta'limot bilan birga tibbiyot, hikmat, kimyo, nujum, handasa kabi dunyoviy bilimlar o'rgatildi, savod chiqarish tezlashtirildi. Talabalarga Turkiston, turkiylar tarixini o'rgatishga alohida e'tibor berildiki, bu ularning milliy ongini uyg'otishga, jamiyatni etnik jihatdan birlashtirishga xizmat qilardi. M. Behbudiyning “O'z urug'ining otini bilmagan, yetti otasini tanimagan qul-manqurtdir” degan so'zlari talabalarni milliy o'zligini anglashga

chaqirar edi. Munavvar qorining “Adibi avval”, “Adibi soniy”, M. Behbudiyning “Kitobatul atfol”, “Bolalar maktubi”, “Muxtasari tarixi islom”, “Jug‘rofiya”, A. Avloniyning “Adabiyot”, “Birinchi muallim”, “Turkiy guliston”, “Maktab gulistoni” kabi darsliklari milliy maktab va milliy tarbiyani yuqori saviyaga ko‘tarishga xizmat qildi. Jadid maktablarida har tomonlama bilimli, ma‘naviy yetuk, o‘z xalqining tarixini va dunyo ishlarini yaxshi o‘zlashtirgan kadrlar tayyorlab chiqarildi. Jadidlar yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborish tashabbusi bilan chiqdilar. Boy tabaqaning ilg‘or vakillari jadidlarning bu harakatini ma‘qullab, tegishli mablag‘ bilan ko‘maklashdilar. Ko‘pgina umidli yoshlar Germaniya, Misr, Turkiya va Rossiyaning markaziy shaharlariga o‘qishga yuborildi. 1910-yili Buxoroda mudarris Xoji Rafiy va boshqalar “Bolalar tarbiyasi” xayriya jamiyatini tashkil etib, 1911-yilda 15 ta, 1912-yilda 30 ta talabani Turkiyaga o‘qishga jo‘natdi. 1909-yilda Munavvar qori tuzgan “Jamiyati xayriya” ham miskin va ojiz talabalarga yordam berar, yoshlarni chet elga o‘qishga yuborishga yordamlashar edi. Jadidlar Turkistonda milliy matbuotga asos soldilar. Munavvar qori 1906-yilda “Xurshid” (“Quyosh”) jurnalini tashkil etib, unga o‘zi muharrirlik qildi. Jurnal xalqning haq-huquqlarini tanishga, milliy uyg‘onishga xizmat qildi. Ammo mustamlakachi ma‘murlar tezda jurnalni chiqarishni man qildilar. M. Behbudi 1913-yilda “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalini chiqara boshladi. U “Nashriyoti Behbudiya” xususiy nashriyotini, uning huzurida “Kutubxonai Behbudiya”ni tashkil etdi. Gazeta va jurnalda millat va ona yurt dardi, xalqni ma‘rifatli qilish, erkinligini ta‘minlash masalalariga bag‘ishlangan dolzarb maqolalar chop etilardi. Ular chor Rossiyasi tasarrufidagi turkiy xalqlarga, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiyagacha borib yetardi. Taraqqiyparvar o‘zbek ziyolilarining yetakchisi Asadullaxo‘ja o‘g‘li Ubaydullaxo‘ja 1913-yilda «Taraqqiyparvar» deb nom olgan ziyolilarning firqasini tuzadi va 1914-yilda firqaning «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg‘ona» gazetalarini chiqariladi. Bu gazetalar sahifalarida e‘lon qilingan maqolalar ommani mustabid tuzumga qarshi qo‘zg‘atishga xizmat qildi. Jadidlar milliy teatrga asos soldilar. Munavvar qori rahnamoligida 1913-yilda musulmon drama san‘ati havaskorlari jamiyati «Turon» truppasi tuzildi. 1914-yil 27-fevralda Toshkentdagi «Kolizey» teatri binosida o‘zbek milliy teatrining birinchi rasmiy ochilish marosimi bo‘ldi. Munavvar qori o‘zbek milliy teatrining birinchi pardasini ochar ekan shunday degan edi: «Turkiston tilida hanuz bir teatr o‘ynalmag‘onligi barchangizga ma‘lumdir...Teatrning asl ma‘nosi «ibratxona» yoki «ulug‘lar maktabi» degan so‘zdir. Teatr sahnasi har tarafi oynaband qilingan bir uyga o‘xshaydurki, unga har kim kirsam o‘zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko‘rib ibrat olur». O‘sha kuni sahnada M. Behbudiyning «Padarkush» pyesasi namoyish etildi. Unda islom dinining Turkistondagi buzilishlari tasvirlanib, tamoshabin e‘tiborini najot yo‘li maorif, maorifni esa «poklangan din» beraoladi, degan g‘oyaga qaratadi. «To‘y», «Zaharli hayot», «Javanmarg», «Baxtsiz kuyov» pessalarida xotin-qizlarning huquqsizligi, ko‘pxotinlik, majburiy nikoh oqibatlarini kabi muammolar yoritiladi. Milliy teatr san‘ati odamlarga millatda mavjud bo‘lgan qusurlar va ijobiy tomonlarni tushunturuvchi oyna bo‘lib xizmat qildi. Jadidlar matbuoti va teatrida ayrim mutaassib ruxoniylarning poraxo‘rligi, axloqsizligi ham qattiq tanqid ostiga olindi. Abdurauf Fitrat “Munozara” nomli asarida Buxoro ulomalarining nodonligi va poraxo‘rligini ochib tashladi. “Hind sayyohining sarguzashtlari” asarida esa Buxoro, Qarshi va boshqa shaharlardagi iqtisodiy tanazzulga ayrim ruhoniylarning o‘z mavqeini suiiste‘mol qilganliklarini asosiy sabab qilib ko‘rsatdi. Jadidlar guruhiiy, ijtimoiy va hududiy birlik to‘g‘risidagi masalalarni ko‘tarib, xalqni milliy va diniy

birlikka, jipslashishga, hududiy birlikka chaqirdi, ijtimoiy ongini XX asr darajasiga ko'tarishga intildilar. Jadidlarga, bir tomondan, mutaassib ruhoniylar, ikkinchi tomondan, mustamlakachi ma'murlar qarshilik ko'rsatdilar. Mutaassib ruhoniylar jadidlar ko'targan barcha yangiliklarga qarshi chiqishdi. Ular jadidlarni padarqushlar, maktablari haqida esa "bu xil maktabda o'quvchi-talabalar birinchi yili gazeta o'qiy boshlaydi, ikkinchi yili ozodlikni talab qilishadi, uchinchi yili esa janobi oliylarini taxtdan ag'darib turmaga tiqib qo'yishadi"der edilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. "Jadid" so'zining izohi haqida nimalarni bilasiz?
2. Jadidchilik harakatining a'zolari kimlar edi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. История Узбекистана в источниках. - Т., 1984.
2. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан лавҳалар. – Т., 1993.

14-mavzu: Sovet davrida ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar tushunchasi (Pionerlarning temurchilik harakati, staxonovchilik, tursunoychilik va Valentina popkochilik harakatlari, sovet davridagi sherkatchilik ijtimoiy harakati)

REJA:

1. Pionerlar tashkiloti
2. Butun Ittifoq Leninchi kommunistik yoshlar soyuzi
3. Pioner va o'quvchilar uylari va saroylari
4. Aleksey Staxanov
5. Oxunova Tursunoy

Tayanch iboralar: Pionerlar tashkiloti. Aleksey Staxanov. Oxunova Tursunoy.

Pionerlar tashkiloti – (V.I. Lenin nomida), SSSRda bolalar va 10-15 yoshdagi o'smirlarning ommaviy kom. tashkiloti, VLKSMning rezervi. 1922-yili tuzilgan 1924-yilda V.I. Lenin nomi berilgan. 1984-yili safida 20 milliondan ortiq pioner bor edi. Oliy organi – Markaziy sovet; asosiy tashkiliy formasi drujina bo'lib, u otryadlardan, zvenolardan, oktabryatlarning gruppalaridan iborat. Drujina va otryadlar ishiga bolalar tashabbusiga suyangan holda pioner vojayatlari – komsomollar rahbarlik qiladi. Maktabdan tashqari muassasalar – pionerlar va o'quvchilar saroylari va uylari, pioner lagerlari va boshqalarga, 28 pioner gazetasi, 40 jurnaliga ega. B.p.t. – Xalqaro demokratik yoshlar federatsiyasi huzuridagi xalqaro bolalar va yoshlar tashkilotlari kom-ti a'zosi, 2 marta Lenin ordeni (1962, 1972) bilan mukofotlangan.

Butun Ittifoq Leninchi kommunistik yoshlar soyuzi (VLKSM), ilg'or sovet yoshlarining mustaqil jamoat tashkiloti, KPSSning aktiv yordamchisi va rezervi. 1986-yilda 41,9 milliondan ortiq a'zosi bo'lgan. KPSS rahbarligida davlat, xo'jalik va madaniy qurilishda, yoshlarni kom. ruhda tarbiyalashda qatnashadi. 1918-yil 29-oktabrda birinchi butun Rossiya ishchi va dehqon yoshlar soyuzlari sezida tuzilib, Rossiya kommunistik yoshlar soyuzi (RKSM) deb, 1924-yildan Rossiya Leninchi kommunistik yoshlar soyuzi (RLKSM), 1926-yildan VLKSM deb atalgan. VLKSM a'zosi – boshlang'ich komsomol tashkilotlari. Oliy organi – VLKSM sezdi. Sezdlar orasida VLKSM ishiga MK rahbarlik qiladi. 14 dan 28 yoshgacha bo'lgan ilg'or sovet yoshlari a'zolikka qabul qilinadi. KPSS topshirig'iga ko'ra, komsomol V.I. Lenin

nomidagi butun Ittifoq pionerlar tashkilotiga rahbarlik qiladi. VLKSM harbiy dengiz flotini (1922-yildan), harbiy havo kuchlarini (1931-yildan), muhim x. xo'jaligi ob'ektlari qurilishini otaliqqa olgan (1981-yilda 135 ob'ekt – KamAZ, BAM va b. Butun Ittifoq komsomol zarbdor qurilishlari deb e'lon qilindi). Qizil bayroq (1928), mehnat qizil bayroq (1931) ordenlari, 3 marta Lenin ordeni (1945, 1948, 1956), oktabr rev-si ordeni (1968) bilan mukofotlangan.

Pioner va o'quvchilar uylari va saroylari – (SSSR)da, o'quvchilar bilan maktabdan tashqi ommaviy o'quv tarbiya ishlari olib boruvchi m-zlar, maorif (x. maorifi) ministrlklari va V.I. Lenin nomidagi butun Ittifoq pionerlar tashkiloti markaziy soveti tomonidan tashkil etiladi; x. Maorifi organlari va pioner tashkilotlari sovetlari rahbarligida ishlaydi. 1986-yili SSSRda 5,1 mingdan ortiq (shu j. O'z SSSRda 253) II va O'.u va s. ishladi.

Aleksey Staxanov Grigoriyevich (1905/06-1977), i.ch. navatorlari ommaviy harakatining boshlovchisi, Soch. Mehnat qahramoni (1970). KPSS a'zosi (1936). 1935-yil avgustda "Sentralnaya - Irmino" shaxtasi, hoz. KPSS 22-sezdi nomli shaxtaning (Kadievka, xoz. Staxanov sh. Donbass) zaboychisi bo'lib ishlagan vaqtida ko'mir qazib chiqarish bo'yicha rekord o'rnagan. 1937-46-yillarda SSSR OS dep. Staxanov (1937-40-yillarda Sergo, 1937-yilgacha va 1940-78-yillarda Kadievka chiqib), Voroshilovgrad obl.dagi sh. (1932-yildan). Staxanovchilik harakati, SSSRda i.ch. novatorlari va ilg'orlarining mehnat unumdorligini oshirish va texnikadan yaxshiroq foydalanish yo'lidagi ommaviy harakati. 1935-yili Donbass ko'mir sanoatida paydo bo'lgan, keyinchalik sanoatning boshqa tarmoqlarida, transportda, qishloq xo'jaligida i.ch. rekordlari avj olgan; tashabbuskori – A.G. Staxanov nomi bilan atalgan.

Oxunova Tursunoy (1937-83), O'zbek xotin-qizlari o'rtasida paxta terish texnikasini o'zlashtirish uchun harakat tashabbuskori, Toshkent oblasti Kirov nomli K-z mexanizatsiyalashgan brigadasi rahbari ikki marta sots. Mehnat qahramoni (1959, 1978). KPSS a'zosi (1962). 1962-70-yillarda SSSR OS prizidiumi a'zosi, 1962-70-yillarda SSSR OS, 1974-yildan O'zSSSR OS dep. Lenin mukofoti laureati (1967).

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. 10-15 yoshdagi o'smirlarning ommaviy kom. tashkiloti bu qanday nomlangan?
2. 1935-yili Donbass ko'mir sanoatida paydo bo'lgan harakatning nomi qanday nomlangan?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан ... – Т., 1995.
2. История Узбекистана в источниках. - Т., 1984.

15-mavzu: "Hujum" harakatining tarixiy mohiyati va ijtimoiy oqibatlari

REJA:

1. "Hujum" harakati haqida tushuncha
2. "Hujum" katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi.
3. "Hujum" o'zbek ayolining ozodlikka chiqishi

Tayanch iboralar:

Hujumga zarurat bormidi? Xotin-qizlar masalasi insoniyat tarixida hamisha o'ziga xos murakkab muammo bo'lib kelgan. Millionlab Turkiston ayollari qismatini o'z ichiga

olgan bu ijtimoiy-siyosiy masalani 20-yillarning 2-yarmida bolsheviklar o'z andozalari asosida keskin hal qildilar. Turkiston xotin-qizlarning hayoti qadimdan musulmonchilik qonuniyatlari va an'analari asosida qurilgan bo'lib, sovet davrida ana shu diniy qadriyatlar va an'analalar (xurofot) sifatida qoralanib kelindi. An'alarimizdagi, qadriyatlarimizdagi milliylik, ayollarga bo'lgan hurmat va e'zozlash sifatleri mutlaqo unutildi. 20-yillar Respublika, viloyat, tuman va quyi sovet tashkilotlari qoshida tashkil etilgan xotin-qizlar bo'limlari bu jabhada, umuman olganda, to'g'ri ishlarni amalga oshirdi. Faollar masalaga dastlabki yillarda juda ehtiyotkorlik bilan yondashdilar. Har bir xonadonga kirib, tushuntirish ishlari olib bordilar, maxsus xotin-qizlar klublari, artellar, do'konlar tashkil etdilar. Bu yerlarda savod chiqardilar, tikishni va savd-sotiqni o'rgandilar. Barcha tadbirlar Turkiston xotin-qizlari turmush tarziga xos xususiyatlarga, milliy an'analarga mutanosib holda olib borildi. O'sha paytlarda hech kim paranji tashlash haqida gap so'z yuritmas edi. Faollar ko'proq ishontirish usuliga suyanishar edi. Shunga ko'ra, xotin-qizlar huquqini ta'minlash, ularni yaratuvchilik va jamoatchilik ishlariga jalb etish borasida muayyan muvaffaqiyatlarga erishildi. Lekin erishilgan bu yutuqlar mustabid tuzumni qoniqtirmas edi. Bu jarayonni sun'iy ravishda tezlashtirish maqsadida unga zarbdor safarbarlik xususiyatini bera boshladi. 1926-yilning sentabr oyida O'rta Osiyo partiya komitetlarining xotin-qizlar bo'limlari hodimlari ishtirokida kengash o'tkazildi va u yerda xotin-qizlar o'rtasida olib borilayotgan ishlarni jadallashtirish va uni majburiy ravishda o'tkazishga qaror qildi. Bu majburiy tadbir "Hujum" deb ataldi, ya'ni hujum uslubida ayollar muammosini hal qilish siyosati ustun ola boshladi. Bu kompaniyani o'tkazish uchun 1926-yil dekabr oyida O'rta Osiyo Respublikalari va xususan, O'zbekistonda maxsus komissiyalar tuzildi. Xotin-qizlarni ozodlikka chiqarishning eng muhim vazifalaridan biri, paranjiga qarshi kurash edi. Bu tadbirni ayollar naqadar quvonch bilan qarshilab olganliklarini aytib o'tmaslik noxolislik bo'lar edi. Chunki qora chimmatni tashlash yorug' olamni ochiq yuz ko'rish, ilm olish, hayotda erkaklar bilan barobar huquq ega bo'lish ularning asrlar davomidagi orzusi edi. 1927-yil 8-mart kuni O'zbekistonda bo'lgan yuzlab mitinglarda qatnashgan minglab xotin-qizlar o'z paranjilarini tashladilar. Lekin bu ijtimoiy-siyosiy tadbirni o'tkazishda o'sha davrda mavjud bo'lgan ijtimoiy ahvol, milliy ma'naviy dunyoqarash, oiladagi nihoyatda nozik bo'lgan erkak bilan ayol o'rtasidagi munosabat, kishilar ongiga singib qolgan Islom qadriyatlari, oila va ayollar masalasidagi mavjud an'analalar, urf-odatlar inobatga olinmadi. Paranjining mohiyatini tushunib yetmagan ba'zi partiya xodimlari o'zlari bilmagan holda unga zid harakatlar qilganliklari arxiv hujjatlaridan ma'lum. Masalan, MIQ a'zosi Karimov "Toshtram" ishchisi o'z xotiniga paranjisini tashlashga ruxsat bergani uchun qamoqqa olingan. Toshkent viloyati Yallama qishlog'ida esa mas'ul xodimlar Batraklar xotinlariga paranji tashlashni man etganlar. "Hujum" shu qadar shiddatli tus oldirildiki, xatto, xotin-qizlar yuzini ochish bo'yicha O'zbekiston va Turkmaniston Respublikalari o'rtasida "Sotsialistik musobaqa" ham tashkil qilindi. U tarixga "Millionlar shartnomasi" nomi bilan kirgan. Musobaqaga Respublikalarning Sovet sud organlari ham qo'shildilar. Ular chiqargan qarorlarning birida: "Ajrash ishlari bir haftadan kechiktirmay ko'rib chiqilsin" degan band mavjud edi. Lekin shunday bo'lsada, "Hujum" dastlab katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. 1927-yil bahoriga kelib, yuz ming ayol paranjisini tashladi, 5 ming ayol savodsizlikni tugatish kurslarida tahsil oldi, 5202 nafar ayol viloyat, shahar, tuman sudalariga xalq maslahatchilari qilib saylandi. Biroq bu yutuqlar faqat "Hujum"ning ta'sir kuchi bilan bog'liq emas edi. Yoki ba'zi bir Moskvalik sharqshunos olimlar ta'kidlaganlaridek,

ayollarimizning faolligi faqat yopinchiq ichida o'tayotgan umrga nisbatan norozilik tufayli ham emas edi. Buning o'ziga xos sabablari ayollarimiz tabiatida adolatsizlikka qarshi kurash tuyg'usining mavjudligi edi. Aks holda, 1916-yilda erlarining, akakalarining mardikorlikka jo'natishni istamay qo'zg'alon ko'targani uchun rus askarlari tomonidan otib tashlangan Ruzvonbibi Ahmadjonova, Zuxrabibi Musayevalarni yoki mustamlaka zulmiga qarshi kurashgan Qurbonjon dodho kabi jasur ayollarni bir esga olaylikchi, ular nimalarga qarshi isyon ko'targan edilar? "Qatag'on" yillarida "Hujum"ni quvonch bilan qabul qilib unga o'z kuchini, shijoatini, hayotini bag'ishlagan ayollarning ko'pchiligi qurbon bo'ldilar. Adolatsizlik asosida qurilgan mustabit tuzumning jazo qonunlari jamiyat hayotidagi eng tabarruk inson, go'zallik timsoli bo'lgan ayollarga ham rahm qilmadi. 1937-1938-yillarda "Hujum"ning faollaridan Tojixon Shodiyeva, Sobira Xoldorova, Xosiyat Tillaxonova, Maryam Sultonmurodova va boshqa minglab oddiy ishchi-dehqon ayollar, madaniyat va fan arboblari qatag'on qilindilar. "Hujum" o'zbek ayolining ozodlikka chiqishida, teng huquqlikka erishishida, ijtimoiy hayotda erkaklar bilan barobar mavqega ega bo'lishida muhim tarixiy bosqich bo'ldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. Nechanchi yilning sentabr oyida O'rta Osiyo partiya komitetlarining xotin-qizlar bo'limlari hodimlari ishtirokida kengash o'tkazildi va u yerda xotin-qizlar o'rtasida olib borilayotgan ishlarni jadallashtirish va uni majburiy ravishda o'tkazishga qaror qildi?
2. Nechanchi yillarda "Hujum"ning faollaridan Tojixon Shodiyeva, Sobira Xoldorova, Xosiyat Tillaxonova, Maryam Sultonmurodova va boshqa minglab oddiy ishchi-dehqon ayollar, madaniyat va fan arboblari qatag'on qilindilar?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Ёвқочев Ш.А. ва б. Марказий Осиё халқлари ижтимоий-сиёсий ва диний ҳаракатлари тарихи. Ўқув қўлланма. - Т.: ТошДШИ, 2011.
2. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан лавҳалар. – Т., 1993.

16-mavzu: Mustaqillik arafasi va davrida Markaziy Osiyo mintaqasidagi ijtimoiy oqimlarning jonlanish sabablari va reaksiyon mohiyati. Missionerlik va proletarizm

REJA:

1. Murjiylar
2. Mu'taziyilar
3. Jabariylar
4. Missionerlik

Tayanch iboralar: Murjiylar. Mu'taziyilar. Jabariylar. Missionerlik.

Murjiylar – alohida bir yo'nalish bo'lib emas, balki, mazhablar ichida tarkib topgan. Ular asosida yana bir qancha kichik-kichik oqimlar, ya'ni fiqrlar vujudga keldi. Ular bu dunyda inson holatini muhokama qilishni "Keyinga surib" (Irja), ya'ni insonning hatti-harakatini, uning imkonini yolg'iz Olloxning o'zigina biladi va inson ustidan hukm qilish uning o'zigagina xos deb hisoblaydilar. Bunday fikr An-Naubaxtiy (vafoti X-asr boshi) qarshi bo'yicha murjiylarning ilk fikrlari edi. Bu g'oyani xalifa Ali ibn Abiy Tolibning nevarasi – Al-Xasan ibn Muhammad 7-asrning 90-yillarida Kufalik Ali

tarafdorlariga yozgan nomalarida ifodalanadi. Xuddi shu kabi nomlar xalifalikning boshqa shahrlariga ham yuborilgan. Islomdagi birinchi ixtilof Xalifa Usmon o'ldirilishi bilan bog'liq bo'lib, uning juda yomon oqibatlarini hisobga olgan Al-Xasan ibn Muhammad raqiblar qilgan ishlar to'g'risida hukm yuritishdan voz kechadi. Ali tarafdorlarini behuda qon to'kishdan to'xtatib, Umaviylar bilan kelishuvga chaqiradi va ta'limotda har qanday mo'min haqida, xoh o'lgan bo'lsin, xoh tirik, u haqida hukm chiqarishni qoralaydi.

Mu'taziylilar – kalomda birinchi yirik yo'nalish vakillari mut'aziliylardir. Ular damashq va Bag'dod xalifaligi hayotida 7-9-asrlarda muhim o'rin tutganlar. Al-Xasan al-Basriy (vafoti 728-yil) davrasidan shogirdlari Vasil ibn Ato (vafoti 748-yil) va Amir ibn Ubayd (vafoti 761-yil) ajralib, alohida bo'lib chiqadilar va "M." (ajralganlar) nomini oladilar. Ular Al-adliyyun, Al-adliyya, ahl-adl; ahl ad-adl vat – tavhid kabi nomlar bilan ham atalganlar. Bu nomlar ular tayangan 5 asosning dastlabki ikkitasi bilan bog'langandir. M. Abul Huzayl al-Allof (841 yoki 849-yil vafot etgan) davriga kelib tugal yozilib bo'lgan.

Jabariylar – arabcha "jabr" so'zidan olingan bo'lib, bu ikr tarafdorlari VII asr oxiri VIII asr boshida Islom ilohiyotida paydo bo'lgan ilk oqimlardan hisoblanadi. Jabariylar inson taqdirini xudo mutloq oldindan belgilab qo'ygan, hech qanday iroda va faoliyat erkinligi yo'q, ular faqat xudoda mavjud, inson esa ana shu faoliyatni o'zlashtirib olish imkoniyatigagina ega, degan ta'limotni ilgari surgan. Iroda erkinligi tarafdorlari bo'lgan Qodiriylarga qarshi kurash olib borgan. Muhammad (s.a.v.)ning payg'ambarligi, xalifalarni ilohiy va qonuniy deb asoslashda, jihatdagi o'limni taqdir bilan bog'lashda bu ta'limot katta o'rin tutadi.

Missionerlik – (missiya so'zidan), tabshir, mubashshirlik – biror dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib qilish. Missionerlik asosan, xristianlikka xos. 4-asrdan paydo bo'lgab. 13-16-asrlarda xristian missionerligi Hindiston, Xitoy, Yaponiyaga kirib borgan. Katolik cherkovida missioner Ispaniya va Portugaliya imperiyalari tashkil topgach, (15-16-asrlar), faoliyatini kuchaytirdi. Missionerlik Rim imperiyasiga yangi yerlarni o'z ta'siri ostiga olishda katta yordam berdi. Katolik missionerligiga rahbarlik qilish uchun papa Grigoriy 15-asr 1662-yilda diniy targ'ibot kongregatsiyasini ta'sis etdi. Missionerlik XIX asrda faollashdi, ayniqsa, xristian missionerlari Afrikada faoliyatlarini kuchaytirdilar va o'z mamlakatlarining siyosatini o'tkazishga yordam berdilar. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlat to'g'risida"gi qonuni 5-moddasiga ko'ra, O'zbekistonda har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Missiya (lotincha-missio "jo'natmoq") 1) muayyan topshiriq bilan boshqa mamlakatga yuborilgan vakillar. 2) bir davlatning boshqa davlatdagi (elchixonadan farqli ravishda) vakili tomonidan boshqariladigan doimiy diplomatik vakolatxonasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. Murjiylar, mu'taziylilar, jabariylar qanday tushunchalar?
2. Missionerlik va proletarizm haqida nimalarni bilasiz?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан ... – Т., 1995.
2. Тулепов А. Ислам ва ақидапараст оқимлар. – Т.: Шарқ, 2013. 336 б.

**17-mavzu: Mustaqillik yillarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar,
globallashuv davrida ijtimoiy oqimlarning mintaqaviy, umuminsoniy
qadriyatlarda ko'rinishi**

REJA:

1. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar
2. Ma'naviy merosning tiklanishi va rivojlanishi.
3. Milliy qadriyatlarning tiklanishi

Tayanch iboralar: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar. Globallashuv. Ma'naviy meros.

Jamiyat ma'naviyati mamlakat barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Biron-bir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay va mustahkamlamay turib yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Shuning uchun ham jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishi deb belgilandi. Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabiy bosqinchilar hujumiga duchor bo'lgan, qaramlik va zulm ostida qolgan. Buning oqibatida xalqimizning boy ma'naviy merosi, urf-odatlar qadrsizlanishga mahkum bo'lgan. Ayniqsa, chor mustamlakachiligi va sovetlar tuzumi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoq osti qilindi. Ona tilimiz, boy ma'naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko'plab masjidu-madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlaboq mamlakatimizda boy ma'naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jamiyat ma'naviyatini tiklash va yuksaltirishni ta'minlovchi ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning yo'nalishlari belgilab olindi. «Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o'z yo'liga. Ularni hal qilish mumkin. Xalqning ta'minotini ham amallab turish mumkin. Ammo, ma'naviy islohotlar-qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo'lish, qadni baland tutish, ota-bobalarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish bundan og'irroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda». Mustaqillik yillarida boy ma'naviy merosimizni tiklash tadbirlari amalga oshirildi. Milliy madaniyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan bobolarimiz Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimizning milliy va ma'naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari butun mamlakat bo'yicha nishonlandi, ruhlari shod etildi, asarlari nashr etildi. Ularning ma'naviy merosi bugungi kunda xalqimizga yangi jamiyat qurishda ma'naviy kuch-qudrat bag'ishlamoqda, jamiyatimizni ma'naviy yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Ma'naviy merosning tiklanishi va rivojlanishi. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilish, milliy axloqiy qadriyat hamda an'analar va muqaddas dinimizning o'rni va ahamiyati katta. Biron-bir xalq o'z tarixini bilmay, asrlar osha yaratilgan ma'naviy merosga tayanmay va uni yanada rivojlantirmay turib o'z kelajagini tasavvur eta olmaydi. Shu bois mustabid tuzum davrida soxtalashtirilgan xalqimiz tarixini xolisona, haqqoniy yoritish, barcha o'quv maskanlarida Vatan tarixini o'qitish borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi. O'zbek xalqi va o'zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini xolisona ilmiy asosda yoritish vazifalari Prezident I.A. Karimovning bir guruh tarixchilar bilan 1998-yil iyun oyida bo'lgan suhbatida, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-

iyulda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorida belgilab berildi. Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini yoritish va o‘rganish masalalari partiyaviylik, sinfiylik yondashuvlardan, hukmron kommunistik mafkura ta’siridan xalos etildi. Necha 10 yillar davomida buzib ko‘rsatilgan yoki so‘z yuritilmay kelgan tarixiy voqealarni xolislik, tarixiylik, haqqoniylik tamoyillari asosida yoritilgan qator ilmiy asarlar, darsliklar va o‘quv adabiyotlari yaratildi. Prezident Farmoni bilan 1996-yil Amir Temur yili deb e‘lon qilindi. Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlashga bag‘ishlangan tadbirlar O‘zbekistonda, dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlarida o‘tkazildi. YUNESKO qarori bilan Sohibqiron yubileyi jahon miqyosida nishonlandi. Parijda Amir Temurga bag‘ishlangan madaniyat haftaligi, «Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi» mavzuida xalqaro konferensiya va ko‘rgazmalar bo‘lib o‘tdi. Toshkent shahrida Amir Temurga haykal qo‘yildi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi, uning nomi bilan bog‘liq tarixiy yodgorliklar ta’mirlandi. 1999-yil vatanparvar siymo, xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, xalq dahosi yaratgan Alpomish dostonining 1000 yilligining nishonlanishi, Urganch va Termizda ular xotirasiga barpo etilgan yodgorlik majmuasi jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishga, milliy ong va milliy g‘ururni ko‘tarishga xizmat qilmoqda. Vatanimiz ozodligi yo‘lida shahid ketgan Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq jigarbandlarining nomi, izzat-ikromi, hurmati o‘z joyiga qo‘yildi, asarlari chop etildi. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui, «Qatag‘on qurbonlari xotirasi» muzeyi, fashizmga qarshi janglarda jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini Tarixiy xotiraning tiklanishi abadiylashtirish maqsadida «Xotira maydoni» majmuasi barpo etildi. Bu tadbirlar xalqimizda milliy ongni yuksaltirishga, tarixiy xotirani tiklanishiga, yoshlarni milliy istiqloq g‘oyalari ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Mustaqillik sharofati bilan diniy qadriyatlar, diniy e‘tiqod qayta tiklandi. Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, qadimiy xalq bayrami Navro‘z qayta tiklandi, bu kunlar Prezident Farmoni bilan dam olish, bayram kuni bo‘lib qoldi. Musulmonlar O‘zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo‘ldilar. Prezident Farmoni bilan tuzilgan «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi, «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg‘armasi jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy ravnaqi yo‘lida xizmat qilmoqda. Respublikada 17 diniy konfessiya ro‘yxatga olingan va rasman faoliyat ko‘rstamoqda. 170 dan ortiq diniy tashkilotlar ishlab turibdi va ularida O‘zbekistonda yashovchi 130 millat va elat vakillari o‘zlarining diniy ehtiyojlarini qondirmoqdalar. 1,7 mingdan ortiq masjidlar, xristian ibodatxonalari, sinagoglar va boshqa diniy markazlar ta’mirlandi va yangidan qurildi. 10 ta diniy ta’lim muassasasi faoliyat ko‘rsatmoqda. 1999-yilda Toshkentda Islom Universiteti ochildi. O‘zbekiston hududida xalqning ulug‘vor va shonli tarixiga oid 2000 dan ortiq yodgorliklar ta’mirlandi. O‘zbek xalqining ming yillar davomida shakllangan, mustamlakachilik davrida oyoq-osti qilingan, insonparvar urf-odatlar va an‘analari, madaniy qadriyatlari ehtiyotlab tiklandi va yangi ma’no-mazmun bilan boyitildi. Maqomchilar, to‘y-marosim qo‘shiqlari, shoir-baxshilar va folklor-etnografik dastalarning o‘nlab ko‘rik-tanlovlari o‘tkazildi. Pianinochi va skripkachilarning simfonik va kamer musiqalari, zamonaviy estrada guruhlarining festival va tanlovlari bo‘lib o‘tmoqda. Mamlakatimizda o‘zbek

tilining xalq va davlat turmushidagi o'rnini va ahamiyati qayta tiklandi. Davlat tili haqidagi qonunda o'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulki ekanligi, uning ravnaqi, qo'llanilishi va muhofazasi davlat tomonidan ta'minlanishi belgilab qo'yildi. Oliy davlat hokimiyati, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarida, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ish yuritish asosan o'zbek tilida olib borilmoqda. Respublikamizning ma'muriy-hududiy birliklari, ko'chalari, geografik o'rinlarning nomlariga yagona milliy shakl berildi va o'zbek tilida yozib qo'yildi. Natijada o'zbek xalqining milliy qadr-qimmati qayta tiklandi va mustahkamlandi. Shuningdek, Diniy va milliy qadriyatlarning tiklanishi O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning tillari, qadr-qimmati ham o'z o'rniga qo'yilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. Prezident Farmoni bilan nechanchi yil Amir Temur yili deb e'lon qilindi?
2. O'zbekistonda nechta diniy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // Муаллифлар: М. Абдуллаев, М. Абдуллаева, Г. Абдуразоқова ва бошқ.; А. Жалолов ва Қ. Хоназаров умумий таҳририда /. – Т.: “Шарқ”, 1998. – 320 б.
2. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши тарихидан лавҳалар: Олий ўқув юрт. талабалари учун ўқув қўлл.. – Т., 1993.

18-mavzu: “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati. “Kamalak” bolalar tashkiloti va uning ijtimoiy hayotidagi o'rnini va vazifalari

REJA:

1. “Kamolot” jamg'armasi – O'zbekiston yoshlarning nodavlat hayriya-jamoat birlashmasi.
2. “Kamolot” jamg'armasining oliy rahbar organi
3. “Kamolot” jamg'armasining boshqaruv rayosati

Tayanch iboralar: “Kamolot”. Jamg'arma. Hayriya.

“Kamolot” jamg'armasi – O'zbekiston yoshlarning nodavlat hayriya-jamoat birlashmasi. “Kamolot” jamg'armasi yosh avlodning har tomonlama kamol topishi, yoshlarda chuqur bilim, yuksak madaniyat hosil qilish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik fazilatlarini yuksaltirish, zamonaviy ishbilarmonlik, tadbirkorlik va omilkorlikni shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish maqsadlarida O'zbekiston respublikasi Prezidentining 1996-yil 17-aprel farmoni bilan tashkil topgan. Jamg'armaning asosiy vazifasi – yoshlarning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, madaniy, huquqiy manfaatlari va ehtiyojlarini o'rganish, ularni qondirish yuzasidan dasturlar tuzish, hayotga tadbqiq etish, davlat, hukumat dasturlari, islohotlarni bajarishga ko'maklashish, yoshlarni Konstitutsiya, Qonunlar, davlat va hukumat qarorlarini hurmat qilish, ularga amal qilish ruhida tarbiyalash, yoshlar uchun yangi ish joylarini yaratish, ularni ijtimoiy himoya qilish masalalarini o'rganish, hamda mazkur masalalarni bartaraf etishda hukumat idoralari, hokimliklar, boshqa manfaatdor vazirliklar, jamoa tashkilotlari bilan hamkorlik qilish va hokazo. “Kamolot” jamg'armasining maqsad va vazifalarini

maquallagan, uni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlagan muassasalar, korxonalar, tashkilotlar, jamoaviy, ilmiy, ijodiy birlashmalar, mehnat jamoalari, aksionerlik jamiyatlari va uyushmalari va shuningdek, jamg'armaning faoliyatiga ko'mak berish istagini bildirgan, Respublika hududida yashovchi har qanday ayrim shaxs "Kamolot" jamg'armasi a'zosi bo'la oladilar. "Kamolot" jamg'armasining oliy rahbar organi Konferensiya hisoblanadi va kamida uch yilda bir marta chaqiriladi. "Kamolot" jamg'armasining boshqaruv rayosati uning doimiy ijroiya organidir. Jamg'armaning viloyat, shahar va tuman bo'limlari kengashlari mavjud bo'lib, ularning yuqori organi yig'ilishdir. "Kamolot" jamg'armasining yoshlar istagi va tashabbusi bilan tashkil topishi mumkin. Uning mablag'i turli ixtiyoriy pul o'tkazish va xayriyalar hisobiga tashkil topadi, noshirlik, o'yinlar va boshqa tadbirlar hisobiga boyib boradi. Hozirgi paytda "Kamolot" jamg'armasi o'z faoliyatini kengaytirib, O'zbekiston yoshlarining nufuzli tashkilotiga aylanmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. "Kamolot" jamg'armasi qachon tashkil etilgan?
2. "Kamolot" jamg'armasining nimaning hisobiga boyib boradi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши тарихидан лавҳалар: Олий ўқув юрт. талабалари учун ўқув қўлл. – Т.: Ўзбекистон, 1993.
2. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // Муаллифлар: М. Абдуллаев, М. Абдуллаева, Г. Абдураззоқова ва бошқ.; А. Жалолов ва Қ. Хоназаров умумий таҳририда /. – Т.: "Шарқ", 1998. – 320 б.

19-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalarida, Hukumat va Prezidentning qaror va farmonlarida diniy bag'rikenglik, vijdon erkinligi masalalari

REJA:

1. Vijdon erkinligi
2. Diniy bag'rikenglik

Tayanch iboralar: Vijdon erkinligi. Diniy bag'rikenglik. E'tiqod.

Vijdon erkinligi – ijtimoiy-falsafiy tushuncha; har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmaganda holda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalasining bir tomoni hisoblanadi. Siyosiy jihatdan vijdon erkinligiga demokratiya ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Yuridik nuqtai-nazardan vijdon erkinligi insonning asosiy shahsiy huquqlari sirasiga kiradi va demokratik erkinliklardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda u O'zR. Kons.da "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda (1991-yil 14-iyunda qabul qilingan, 1998-yil 1-mayda yangi tahriri tasdiqlangan) nazarda tutilgan. Kons.ga ko'ra "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huququiga ega" (31-modda). O'zRes Kons. bo'yicha, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Ayni vaqtda tahrirdagi vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunga ko'ra, dinga

munosabatidan qat'iy nazar fuqarolarning tengligi ta'minlanadi (4-modda). Ushbu qonunda ta'kidlanishicha, hech bir dinga yoki e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi. Qonun muayyan yoshga yetgan fuqarolarning o'z diniy ehtiyojlarini qondirish uchun diniy tashkilot tuzish, Oliy va o'rta diniy o'quv yurtlarida ta'lim olish tartib-qoidalarini ham belgilab bergan. Ayni vaqtda dindan davlat va Kons.ga qarshi targ'ibot olib borishda millatlararo adovat uyg'otishda, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydurmalarini tarqatishda, aholi o'rtasida vahima chiqarishda hamda davlat, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa g'arazli maqsadlardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi (5-modda).

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar

1. Vijdon erkinligi qanday tushuncha?
2. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014.
2. Ёвқочев Ш.А. ва б. Марказий Осиё халқлари ижтимоий-сиёсий ва диний ҳаракатлари тарихи. Ўқув қўлланма. - Т.: ТошДШИ, 2011.

SEMINAR MASHG'ULOTLARI UCHUN TOPSHIRIQLAR TO'PLAMI

“Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar tarixi” fani ma’ruzalarida o‘tilgan mavzularni amalda qo‘llay bilish. Yozma manbalar va zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida qiyosiy tahlil etishni amalga oshirish. Munozarali masalalarga munosabat bildirish; mavjud ilmiy qarashlar va yondashuvlarni tahlil etish, mustaqil xulosalar orqali fikr bildirish.

Seminar mashg'ulotlari mazmun jihatidan dasturga muvofiq va quyidagi mavzularni o‘z ichiga oladi:

1-mavzu:

Ilk ijtimoiy tasavvurlar va ularning turli shakllari hamda insonlar dunyoqarashida aks etishi

Totemizizm, fetishizm, animizm; ibtidoiy diniy tasavvurlar.

Atrof muhit va osmon jismlari bilan bog‘liq tasavvurlar, asotirlar va diniy qarashlar.

Tabiat kultlari bilan bog‘liq marosimlar.

Jamiyatning e’tiqodiy dunyoqarash tizimi va diniy tasavvurlarining kanonizatsiyasi.

Adabiyotlar:

1. Ёвқочев Ш.А. ва б. Марказий Осиё халқлари ижтимоий-сиёсий ва диний ҳаракатлари тарихи. Ўқув қўлланма. - Т.: ТошДШИ, 2011.
2. Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти. - Т., 2005.

2-mavzu:

Zardushtiylik ta’limotida axloqiy dunyoqarash tizimining xalqlar tarixidagi o‘rni

Zardushtiylikda zurvanizm va uning mohiyati.

Zardushtiylik dinining tarqalish geografiyasi.

Xalqlar hayotida dindan qolgan marosimlar, urf-odatlar.

Adabiyotlar:

1. Ёвқочев Ш.А. ва б. Марказий Осиё халқлари ижтимоий-сиёсий ва диний ҳаракатлари тарихи. Ўқув қўлланма. - Т.: ТошДШИ, 2011.
2. Струве В.В. Родина зороастризма. - Сталинабад, 1945.

3-mavzu:

Markaziy Osiyo xalqlarining an’anaviy dunyoqarashi masalalari

Madaniy va ijtimoiy muhitni bir-biriga ta’siri.

O‘zaro bog‘liqlik tamoyillari.

Xalqlarning, hukumat vakillarining bu jarayonda tutgan o‘rni (Mahatmi Gandi, Muhammad Taraqiy qarashlari).

Adabiyotlar:

1. Ёвқочев Ш.А. ва б. Марказий Осиё халқлари ижтимоий-сиёсий ва диний ҳаракатлари тарихи. Ўқув қўлланма. - Т.: ТошДШИ, 2011.
2. Ҳусниддинов З. Ислом: йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар. - Т.: ЎзМЭ, 2000.

4-mavzu:

Mazdakiylik ijtimoiy oqimining o'rni

Mazdakiylik ta'minotining yoyilishi.

Uning ijtimoiy oqibatlari.

Tarixiy ahamiyati.

Adabiyotlar:

1. Ҳусниддинов З. Ислом: йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар. - Т.: ЎзМЭ, 2000
2. Ёвқочев Ш.А. ва б. Марказий Осиё халқлари ижтимоий-сиёсий ва диний ҳаракатлари тарихи. Ўқув қўлланма. - Т.: ТошДШИ, 2011.

5-mavzu:

Islomgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar

“Ahli sunna val jamoa” tushunchasi.

Islom barqarorligi va birligi uchun olib borilayotgan harakatlar.

Adabiyotlar:

1. Қаюмов А. ва б. Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Т.: Ёзувчи, 2000.
2. Бойс М. Зороастрийци, верованийа и обичаи. - М., 1987.

6-mavzu:

Markaziy Osiyoda Islom dinining mazhab va oqimlari

Muqaddas ziyoratgohlar.

Aziz va avliyolar qadamjoylari.

Islomiy toponimlarning o'rni.

Xalq folklorida Islom dinining o'rni.

Adabiyotlar:

1. Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти. - Т., 2005.
2. Ҳусниддинов З. Ислом: йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар. - Т.: ЎзМЭ, 2000.

7-mavzu:

Abu Muslim ijtimoiy harakati va uning xalifalik bilan munosabatlari

Abu Muslimning shaxsi.

Abu Muslim faoliyati haqidagi rivoyatlar va tarixiy haqiqat.

Xalq folklorida Abu Muslim shaxsi va harakatining o'rni.

Abu Muslim qahramonligini badiy asarlarda aks etishi.

Adabiyotlar:

1. Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти. - Т., 2005.
2. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан лавҳалар. – Т.: Ўзбекистон, 1993.

8-mavzu:

Markaziy Osiyoning ijtimoiy hayotida tasavvuf, uning suluk va tariqatlari

Uning namoyandalari, maktablari.

Fiqh ilmining Movarounnahrda tutgan o'rni.

Burhoniddin al-Margʻiloniy, Abu Mansur Moturidiy va boshqa fiqh olimlari; ular yaratgan asarlar.

Adabiyotlar:

1. Ҳожи Исмадуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти. - Т., 2005.
2. Ҳусниддинов З. Ислом: йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар. - Т.: ЎЗМЭ, 2000.

9-mavzu:

Mo'g'ullar va Temuriylar davrida sarbadorlar harakati va uning g'oyaviy asoslari

Mo'g'ullarning shomoniylar dinidan islom diniga o'tishlari, ziddiyatlar.

Fiqh olimlari, ular yaratgan asarlar.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. – Т.: Ўзбекистон, 1995.
2. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан лавҳалар. – Т.: Ўзбекистон, 1993.

10-mavzu:

O'rta Osiyo xonliklari tarixida darveshlik va qalandarlik harakati

Qalandar va qalandarlik.

Ijtimoiy oqimida xalq folklorida darvesh, qalandar obrazlari.

Adabiyotlar:

1. Тулепов А. Ислом ва ақидапараст оқимлар. – Т.: Шарқ, 2013. 336 б.
2. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан лавҳалар. – Т.: Ўзбекистон, 1993.

11-mavzu:

Karamatiylar va karamatiychilik ta'limoti

Karamatiy shaxsi va u asos solgan ijtimoiy ta'limot.

Ta'limotning hukumat darajasiga ko'tarilishi.

Karamatiychilik ta'limotining yuksalish va tanazzul davri.

Din peshvolai tominidan karamatiychilik ta'limotiga qarashlari.

Adabiyotlar:

1. Тулепов А. Ислом ва ақидапараст оқимлар. – Т.: Шарқ, 2013. 336 б.
2. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан лавҳалар. – Т.: Ўзбекистон, 1993

12-mavzu:

Bahoiylik ta'limoti

Turkiston o'lkasiga bahoiylikni kirib kelishi, tarqalishi.

Bugungi kundagi bahoiylik ta'limoti.

Bahoiylik markazlari.

Adabiyotlar:

1. Тулепов А. Ислом ва ақидапараст оқимлар. – Т.: Шарқ, 2013. 336 б.
2. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан лавҳалар. – Т.: Ўзбекистон, 1993.

13-mavzu:

XIX asr oxiri - XX asr boshida jadidchilik harakati

Jadid namoyandalarning keyingi ijtimoiy harakatlaridagi o'rnini.

Jadid harakatlarining dunyo mamlakatlari ijtimoiy hayotidagi oʻrni.

Jadidlarning madaniy va maʼrifiy rivojlanishdagi oʻrni.

Adabiyotlar:

1. История Узбекистана в источниках. - Т., 1984.
2. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан лавҳалар. – Т.: Ўзбекистон, 1993

14-mavzu:

Sovet davrida ijtimoiy-siyosiy taʼlimotlar tushunchasi (Pionerlarning temurchilik harakati, staxanovchilik, tursunoychilik va Valentina popkochilik harakatlari, sovet davridagi sherkatchilik ijtimoiy harakati)

Sovet mafkurasining oʻrni, xalq harakati tomonidan qoʻllanish doirasi.

“Proletariat madaniyati”, “sotsrealizm”, “madaniy revolyusiya” shiorlarining oʻrni.

Staxanovchilik harakati.

Temurchililar harakati.

Komsomolning ijtimoiy harakatdagi oʻrni.

Tursunoychilik, “Mingtonnachilik” harakati.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. – Т.: Ўзбекистон, 1995.
2. История Узбекистана в источниках. - Т., 1984.

15-mavzu:

“Hujum” harakatining tarixiy mohiyati va ijtimoiy oqibatlarini

Sovet mafkurasi asosida shakllangan va “Ozod Sharq ayoli” nomi bilan vujudga kelgan “Hujum” harakati.

Harakatning reaksonlik xususiyati.

Mahalliy xalqlarning turmush darajasiga salbiy taʼsiri.

“Paxta terish kompaniyasi”.

“Ilgʻor” mahalliy ayollari targʻib-tashviq qilish.

Oʻzbek musulmon oilarida yuz bergan fojialar.

Adabiyotlar:

1. Ёвқочев Ш.А. ва б. Марказий Осиё халқлари ижтимоий-сиёсий ва диний ҳаракатлари тарихи. Ўқув қўлланма. - Т.: ТошДШИ, 2011.
2. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан лавҳалар. – Т.: Ўзбекистон, 1993

16-mavzu:

Mustaqillik arafasi va davrida Markaziy Osiyo mintaqasidagi ijtimoiy oqimlarning jonlanish sabablari va reakson mohiyati. Missionerlik va prozelitizm

Mustaqillik arafasida ijtimoiy oqimlarning paydo boʻlishi va shakllanish sabablari.

Yakka partiyalilik asoratlari.

Hur fikrlik.

Plyuarizm.

Ksenofobiya.

Radikal oqimlarning kelib chiqish sabablari.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. – Т.: Ўзбекистон, 1995.
2. Тулепов А. Ислом ва ақидапараст оқимлар. – Т.: Шарқ, 2013.

17-mavzu:

Mustaqillik yillarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar; globallashuv davrida ijtimoiy oqimlarining mintaqaviy, umuminsoniy qadriyatlarda ko‘rinishi

Mustaqillik davri ijtimoiy harakatlari.

An’anaviy urf-odatlar, diniy va milliy marosimlarning ahamiyati.

Millatlararo totuvlik.

O‘zbekiston Respublikasi Baynalmilal milliy-madaniy markaz.

Adabiyotlar:

1. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // Муаллифлар: М. Абдуллаев, М. Абдуллаева, Г. Абдуразоқова ва бошқ.; А. Жалолов ва Қ. Хоназаров умумий таҳририда /. – Т.: “Шарқ”, 1998. – 320 б.
2. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши тарихидан лавҳалар: ... ўқув қўлл.. – Т.: Ўзбекистон, 1993.

18-mavzu:

“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati. “Kamalak” bolalar tashkiloti va uning ijtimoiy hayotidagi o‘rni va vazifalari

“Kamolot” harakatining shakllanish jaroyoni va uning ijtimoi-siyosiy hayotdagi zaruriy faoliyati.

“Kamalak” bolalar tashkilotining ijtimoiy ahamiyati.

“Kamalak” harakat dasturining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi mavqei.

Ta’lim-tarbiyaning uzviy bog‘lanishi va izchil harakat faoliyati.

Davlat va oila munosabatlari.

Adabiyotlar:

1. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши тарихидан лавҳалар: ...ўқув қўлл.. – Т.: Ўзбекистон, 1993.
2. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // Муаллифлар: М. Абдуллаев, М. Абдуллаева, Г. Абдуразоқова ва бошқ.; А. Жалолов ва Қ. Хоназаров умумий таҳририда /. – Т.: “Шарқ”, 1998. – 320 б.

19-mavzu:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalarida, Hukumat va Prezidentning Qaror va Farmonlarida diniy bag‘rikenglik, vijdon erkinligi masalalari

Konstitutsiyaning 29-moddasidagi fuqarolarning diniy e’tiqodi va 31-moddadagi vijdon erkinligi huquqlari.

Hukumat tomonidan olib borilayotgan bag‘rikenglik siyosati.

Ijtimoiy-siyosiy harakatlarga oid masalalar.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т.: O‘zbekiston, 2014.
2. Ёвқочев Ш.А. ва б. Марказий Осиё халқлари ижтимоий-сиёсий ва диний ҳаракатлари тарихи. Ўқув қўлланма. - Т.: ТошДШИ, 2011.

**“MARKAZIY OSIYODA IJTIMOIIY-SIYOSIY
TA'LIMOTLAR TARIXI”
FANI BO'YICHA O'QUV MATERIALLARI
(diskda ilova qilinadi)**

Diskka kiritilgan asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar ro'uxati

1. Жамолхожи И.Н. Марказий Осиё халқлари ижтимоий-сиёсий ва диний таълимотлари тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДШИ, 2009.
2. Ёвқочев Ш. ва б. Марказий Осиё халқлари ижтимоий-сиёсий ва диний ҳаракатлари тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДШИ, 2011.

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

I mavzu. Fanga kirish. “Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar tarixi” fani, uning maqsad va vazifalari. Ilk ijtimoiy-siyosiy tasavvurlar va ularning turli shakllari hamda insonlar dunyoqarashida aks etishi.

O`quv vaqti 2 soat	Talabalar soni 37
O`quv mashg`uloti shakli	Ma`ruza
O`quv mashg`uloti rejasi	1. Fanning maqsad va vazifalari. 2. Ilk ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. 3. Ilk ijtimoiy tasavvurlarning turlari.
O`quv mashg`uloti maqsadi: Darsdan kutiladigan maqsad fanning nazariy mashg`ulotlari mazmuni, ilk ijtimoiy tasavvurlar va ularning turli shakllari hamda insonlar dunyoqarashida aks etishi mavzusi haqida talabalar ongida tushuncha hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar: Fanning maqsad va vazifalarini talabalarga tushuntirish, ilk ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishini tahlil qilish, ilk ijtimoiy tasavvurlarning turlari va ularning paydo bo`lishi haqida fikrlar bildirish, umumiy xulosalar berish.	O`quv faoliyati natijalari:</b> Talabalar fanning maqsad va vazifalarini talabalarga tushunib olishadi, ilk ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishini tahlil qila oladi, ilk ijtimoiy tasavvurlarning turlari va ularning paydo bo`lishi haqida fikrlar yurita oladi, umumiy xulosalar bera oladi.
O`qitish metodlari va texnikasi	Seminar, interaktiv, bayon qilish, tahlil etish, tushuntirish, mulohaza, muammoli savollar. “Aqliy xujum” metodining yozma varianti.”Loyixa” metodi.
O`quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari	Kichik guruhlarda, individual, jamoa bo`lib
O`qitish vositalari	Tarqatma o`quv materiallari, ilmiy adabiyotlar, ko`rgazmali materiallar, ma`ruza matni, jadvallar, doska, proektor, ekran, o`quv vazifalari va savollar, oq qog`ozlar, rangli flomasterlar.
Monitoring va baholash	Eshitish, yozish va gapirish (reyting ishlanmasiga aosan)

Ma`ruzaning texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. Mavzu bilan tanishtiradi va dars rejasini bayon etadi; (Ilova 1) 1.2. Talabalar diqqatini mavzuga jalb etadigan savollar beradi	1.1.Mavzuni tinglaydi 1.2.Mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob beradi
2-bosqich. Asosiy (70 daqiqa)	2.1. “Aqliy hujumi” orqali “Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar tarixi” predmetining ilmiy-pedagogik fan sifatida shakllanishi jarayonini aniqlash (Ilova 2) 2.2. Talabalarda ilk ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Ilk ijtimoiy tasavvurlarning turlari haqida tassavvur uyg`otish 2.3. Suhbat yordamida ilk ijtimoiy tasavvurlarning insonlar dunyoqarashida aks etishi to`g`risida talabalarda tasavvur hosil qilish (Ilova 3) 2.4. Bahs-munozara orqali mavzu mohiyatiga kirib borish (Ilova 4)	2.1. Tinglaydi va daftariga yozib oladi 2.2. Mavzuga oid savollar tuzadi va ularga javob beradi. 2.3. Slaydlar tezislari daftarlariga yozib oladi 2.4. Suhbat
3-bosqich. Yakuniy-xulosaviy	3.1.Mavzu yuzasidan xulosa qilinadi, asosiy 3.2. Alohida talabalarning faolligini e`tirof qiladi va	3.1. Baholanadi.

(5 daqiqa)	o`z-o`zini baholashni nihoyasiga yetkazadi 3.3. Darsning maqsadi tahlil qilinadi va maqsadga erishilganlik holati baholanadi 3.4. Auditoriyadan tashqari mustaqil ish vazifalari beriladi	3.2. Uy vazifasini oladi
-------------------	---	--------------------------

II mavzu. Zardushtiylik ta'limotida axloqiy dunyoqarash tizimining xalqlar tarixidagi o`rni

O`quv vaqti 2 soat	Talabalar soni 37
<i>O`quv mashg`uloti shakli</i>	<i>Ma`ruza</i>
<i>O`quv mashg`uloti rejasi</i>	1. Zardushtiylik dinining paydo bo`lishi va odamlar orasida yoyilishi. 2. Zardushtiylik dinida axloqiy tushunchalar. 3. Zardusht va zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto".
<i>O`quv mashg`uloti maqsadi:</i> Darsdan kutiladigan maqsad talabalar ongida Zardushtiylik dinining paydo bo`lishi va odamlar orasida yoyilishi, Zardushtiylik dinida axloqiy tushunchalar, Zardusht va Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" to`g`risidagi fikrlarni yanada boyitish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Talabalarga Zardushtiylik dinining paydo bo`lishi va odamlar orasida yoyilishi tushuntirish; Zardushtiylik dinida axloqiy tushunchalar fikr bildirish; Zardusht va Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" haqida talabalar bilan fikr almashish.	<i>O`quv faoliyati natijalari:</i> Talabalarga Zardushtiylik dinining paydo bo`lishi va odamlar orasida yoyilishi tushunchaga ega bo`ladilar; Zardushtiylik dinida axloqiy tushunchalar haqida fikr bildirila oladilar; Zardusht va Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" haqida muhokama qila oladilar
<i>O`qitish metodlari va texnikasi</i>	Seminar, interaktiv, bayon qilish, tahlil etish, tushuntirish, mulohaza, muammoli savollar. "Aqliy xujum" metodining yozma varianti."Loyixa" metodi. "Tushunchalar tahlili" metodi.
<i>O`quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari</i>	Kichik guruhlarda, individual, jamoa bo`lib.
<i>O`qitish vositalari</i>	Tarqatma o`quv materiallari, ilmiy adabiyotlar, ko`rgazmali materiallar, ma`ruza matni, jadvallar, doska, proektor, ekran, o`quv vazifalari va savollar, oq qog`ozlar, rangli flomasterlar.
<i>Monitoring va baholash</i>	Eshitish, yozish va gapirish (reyting ishlanmasiga asosan)

Ma`ruzaning texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. Mavzu bilan tanishtiradi va dars rejasini bayon etadi; 1.2. Talabalar diqqatini mavzuga jalb etadigan savollar beradi(1-ilova)	1.1. Mavzu ni tinglaydi 1.2. Mavzu yuzasida n berilgan savollarg

		a javob beradi
2-bosqich. Asosiy (70 daqiqa)	2.1. “Aqliy hujumi” orqali zardushtiylik dinida axloqiy tushunchalar haqidagi fikrlarini aniqlash. 2.2. Talabalarda Zardusht va zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” haqida tassavvur uygʻotish (3-ilova) 2.3. Bahs-munozara orqali mavzu mohiyatiga kirib borish	2.1. Tinglaydi va daftarga yozib oladi 2.2. Mavzuga oid savollar tuzadi va ularga javob beradi. 2.3. Slaydlar tezislari i daftarlari ga yozib oladi
3-bosqich. Yakuniy-xulosaviy (5 daqiqa)	3.1.Mavzu yuzasidan xulosa qilinadi, asosiy jarayonga talabalarining eʼtiborini jamlaydi, qilingan ishning professional faoliyat uchun zarur boʻlgan jihatlariga talabalar diqqatini qaratadi. 3.2. Alohida talabalarining faolligini eʼtirof qiladi va oʻz-oʻzini baholashni nihoyasiga yetkazadi 3.3. Darsning maqsadi tahlil qilinadi va maqsadga erishilganlik holati baholanadi 3.4.Auditoriyadan tashqari mustaqil ish vazifalari beriladi	3.1. Baholanadi. 3.2. Uy vazifasini oladi

III mavzu. Markaziy Osiyo xalqlarining anʼanaviy dunyoqarashi masalalari

Oʻquv vaqti 2 soat	Talabalar soni 37
<i>Oʻquv mashgʻuloti shakli</i>	<i>Seminar</i>
<i>Oʻquv mashgʻuloti rejasi</i>	1. Markaziy Osiyo xalqlarining turmush tarzi 2. Markaziy Osiyo xalqlarining mental xususiyatlari
<i>Oʻquv mashgʻuloti maqsadi:</i> Markaziy Osiyo xalqlarining anʼanaviy dunyoqarashi masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilib berish; xalqlarning turmush tarzi va mentalitetini shakllanishida muhim boʻlgan omillarni yoritib berish.	

<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O`quv faoliyati natijalari:</i>
Talabalarda Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy dunyoqarashi masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilib berish; xalqlarning turmush tarzi va mentalitetini shakllanishida muhim bo'lgan omillarni yoritib berish to'g'risida tushuncha hosil qilish.	Talabalarda Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy dunyoqarashi masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilib berish; xalqlarning turmush tarzi va mentalitetini shakllanishida muhim bo'lgan omillarni yoritib berish.
<i>O`qitish metodlari va texnikasi</i>	Seminar, interaktiv, bayon qilish, tahlil etish, tushuntirish, mulohaza, muammoli savollar. "Aqliy xujum" metodining yozma varianti. "Loyixa" metodi. "Tushunchalar tahlili" metodi.
<i>O`quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari</i>	Kichik guruhlarda, individual, jamoa bo'lib.
<i>O`qitish vositalari</i>	Tarqatma o`quv materiallari, ilmiy adabiyotlar, ko'rgazmali materiallar, ma'ruza matni, jadvallar, doska, proektor, ekran, o`quv vazifalari va savollar, oq qog'ozlar, rangli flomasterlar.
<i>Monitoring va baholash</i>	Eshitish, yozish va gapirish (reyting ishlanmasiga asosan)

Seminar mashg'ulotlarining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzu bilan tanishtiradi va dars rejasini bayon etadi; 1.2. Talabalar diqqatini mavzuga jalb etadigan savollar beradi	1.1.Mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob beradi
2-bosqich. Asosiy (70 aqiqa)	2.1. Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy dunyoqarashi masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilib berish; xalqlarning turmush tarzi va mentalitetini shakllanishida muhim bo'lgan omillarni yoritib berish haqida ma'lumotlar tayyorlaydi va tahlil qiladi. 2.2. Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy dunyoqarashi masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilib berish; xalqlarning turmush tarzi va mentalitetini shakllanishida muhim bo'lgan omillarni yoritib berish.haqida ma'lumot to'playdi va tahlil qiladi. 2.3. Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy dunyoqarashi masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilib berish; xalqlarning turmush tarzi va mentalitetini shakllanishida muhim bo'lgan omillarni yoritib berish haqida talabalar bilan muhokama qiladi. 2.4. Bahs-munozara orqali mavzu mohiyatiga kirib borish	2.1. Tinglaydi va savol-javobda faol ishtirok etadi 2.2. Pedagogik texnologiyalar o`yinida ishtirok etadi. 2.3. Savol-javobda faol ishtirok etadi. 2.4. Jamoaviy bahs-munozaralarida ishtirok etadi
3-bosqich.	3.1. Mavzu yuzasidan xulosa qilinadi, asosiy jarayonga talabalarining e'tiborini jamlaydi, qilingan ishning professional	3.1. Baholanadi.

Yakuniy-xulosaviy (5 daqiqa)	faoliyat uchun zarur bo'lgan jihatlariga talabalar diqqatini qaratadi. 3.2. Alohida talabalarning faolligini e'tirof qiladi va o'z-o'zini baholashni nihoyasiga yetkazadi 3.3. Darsning maqsadi tahlil qilinadi va maqsadga erishilganlik holati baholanadi 3.4. Auditoriyadan tashqari mustaqil ish vazifalari beriladi	3.2. Uy vazifasini oladi
-------------------------------------	---	--------------------------

IV mavzu. Mazdakiylik ijtimoiy oqimining o'zni.

O`quv vaqti 2 soat	Talabalar soni 37	
O`quv mashg`uloti shakli	Ma`ruza	
O`quv mashg`uloti rejasi	1. Mazdak shaxsi va uning ijtimoiy qarashlari. 2. Mazdak ta`limoti haqida tushuncha. 3. Mazdakiylik ta`limotining ijtimoiy hayotdagi o`rni.	
O`quv mashg`uloti maqsadi: Darsdan kutiladigan maqsad Mazdak shaxsi va uning ijtimoiy qarashlari, Mazdak ta`limoti haqida tushuncha va bu ta`limotning ijtimoiy hayotdagi o`rni haqida talabalarda tushuncha hosil qilish.		
Pedagogik vazifalar: Talabalarda Mazdak shaxsi va uning ijtimoiy qarashlari xususida tushuncha hosil qilish; Mazdak ta`limoti haqida tushuncha va bu ta`limotning ijtimoiy hayotdagi o`rni haqida talabalar bilan muhokama qilish; mavzu doirasida umumiy xulosalar berish;		O`quv faoliyati natijalari:  Talabalar Mazdak shaxsi va uning ijtimoiy qarashlari xususida tushuncha hosil qiladilar; Mazdak ta`limoti haqida tushuncha va bu ta`limotning ijtimoiy hayotdagi o`rni haqida talabalar muhokama qila olishadi; mavzu doirasida umumiy xulosalarga ega bo`ladilar;
O`qitish metodlari va texnikasi		Seminar, interaktiv, bayon qilish, tahlil etish, tushuntirish, mulohaza, muammoli savollar. “Aqliy hujum” metodining yozma varianti.”Loyixa” metodi. “Tushunchalar tahlili” metodi.
O`quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari		Kichik guruhlarda, individual, jamoa bo`lib.
O`qitish vositalari		Tarqatma o`quv materiallari, ilmiy adabiyotlar, ko`rgazmali materiallar, ma`ruza matni, jadvallar, doska, proektor, ekran, o`quv vazifalari va savollar, oq qog`ozlar, rangli flomasterlar.
Monitoring va baholash		Eshitish, yozish va gapirish (reyting ishlanmasiga asosan)

Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzu bilan tanishtiradi va dars rejasini bayon etadi;	1.1.Mavzuni tinglaydi
	1.2. Talabalar diqqatini mavzuga jalb etadigan savollar beradi	1.2.Mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob beradi

2-bosqich. Asosiy (70 daqiqa)	2.1. “Aqliy hujumi” orqali Mazdak shaxsi va uning ijtimoiy qarashlari haqida talabalar fikrini aniqlash. 2.2. Talabalarda Mazdak ta’limoti haqida tushuncha hosil qilish. 2.3. Mazdakiylik ta’limotining ijtimoiy hayotdagi o’rni xususida talabalarga tushuntirish. 2.4. Bahs-munozara orqali mavzu mohiyatiga kirib borish.	2.1. Tinglaydi va daftariga yozib oladi 2.2. Mavzuga oid savollar tuzadi va ularga javob beradi. 2.3. Slaydlar tezislari daftarlariga yozib oladi 2.4. maxsus suhbat
3-bosqich. Yakuniy-xulosaviy (5 daqiqa)	3.1.Mavzu yuzasidan xulosa qilinadi, asosiy jarayonga talabalarining e’tiborini jamlaydi, qilingan ishning professional faoliyat uchun zarur bo’lgan jihatlariga talabalar diqqatini qaratadi. 3.2. Alohida talabalarining faolligini e’tirof qiladi va o’z-o’zini baholashni nihoyasiga yetkazadi 3.3. Darsning maqsadi tahlil qilinadi va maqsadga erishilganlik holati baholanadi 3.4.Auditoriyadan tashqari mustaqil ish vazifalari beriladi	3.1. Baholanadi. 3.2. Uy vazifasini oladi

V mavzu. Islomgacha bo’lgan ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar

O`quv vaqti 2 soat	Talabalar soni 37
O`quv mashg`uloti shakli	Seminar
O`quv mashg`uloti rejasi	1. Islomgacha bo’lgan ijtimoiy harakatlar 2. Islomgacha bo’lgan siyosiy harakatlar
O`quv mashg`uloti maqsadi: Islomgacha bo’lgan ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar haqida talabalarda tushuncha hosil qilish. Yakka xudolik e’tiqodini muhim ahamiyati. Ijtimoiy-siyosiy ta’limotlarning shakllanish va unda Islom dinining ta’siri.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Talabalarda Islomgacha bo’lgan ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar haqida talabalarda tushuncha hosil qilish. Yakka xudolik e’tiqodini muhim ahamiyati. Ijtimoiy-siyosiy ta’limotlarning shakllanish va unda Islom dinining ta’siri haqida ma’lumot berish.	<i>O`quv faoliyati natijalari:</i> Talabalar Islomgacha bo’lgan ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar haqida talabalarda tushuncha hosil qilish. Yakka xudolik e’tiqodini muhim ahamiyati. Ijtimoiy-siyosiy ta’limotlarning shakllanish va unda Islom dinining ta’siri haqida ma’lumotga ega bo’lishadi.
O`qitish metodlari va texnikasi	Seminar, interaktiv, bayon qilish, tahlil etish, tushuntirish, mulohaza, muammoli savollar. “Aqliy xujum” metodining yozma varianti.”Loyixa” metodi. “Tushunchalar tahlili” metodi.
O`quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari	Kichik guruhlarda, individual, jamoa bo’lib.

<i>O`qitish vositalari</i>	Tarqatma o`quv materiallari, ilmiy adabiyotlar, ko`rgazmali materiallar, ma`ruza matni, jadvallar, doska, proektor, ekran, o`quv vazifalari va savollar, oq qog`ozlar, rangli flomasterlar.
<i>Monitoring va baholash</i>	Eshitish, yozish va gapirish (reyting ishlanmasiga asosan)

Seminar mashg`ulotlarining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzu bilan tanishtiradi va dars rejasini bayon etadi; 1.2. Talabalar diqqatini mavzuga jalb etadigan savollar beradi	1.1.Mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob beradi
2-bosqich. Asosiy (70 aqiqa)	2.1. Islomgacha bo`lgan ijtimoiy-siyosiy ta`limotlar haqida talabalarda tushuncha hosil qilish. Yakka xudolik e`tiqodini muhim ahamiyati. Ijtimoiy-siyosiy ta`limotlarning shakllanish va unda Islom dinining ta`siri haqida ma`lumotlar tayyorlaydi va tahlil qiladi. 2.2. Islomgacha bo`lgan ijtimoiy-siyosiy ta`limotlar haqida talabalarda tushuncha hosil qilish. Yakka xudolik e`tiqodini muhim ahamiyati. Ijtimoiy-siyosiy ta`limotlarning shakllanish va unda Islom dinining ta`siri haqida ma`lumot to`playdi va tahlil qiladi. 2.3. Islomgacha bo`lgan ijtimoiy-siyosiy ta`limotlar haqida talabalarda tushuncha hosil qilish. Yakka xudolik e`tiqodini muhim ahamiyati. Ijtimoiy-siyosiy ta`limotlarning shakllanish va unda Islom dinining ta`siri haqida talabalar bilan muhokama qiladi. 2.4. Bahs-munozara orqali mavzu mohiyatiga kirib borish	2.1. Tinglaydi va savol-javobda faol ishtirok etadi 2.2. Pedagogik texnologiyalar o` yinida ishtirok etadi. 2.3. Savol-javobda faol ishtirok etadi. 2.4. Jamoaviy bahs-munozaralarid a ishtirok etadi
3-bosqich. Yakuniy-xulosaviy (5 daqiqa)	3.1. Mavzu yuzasidan xulosa qilinadi, asosiy jarayonga talabalarning e`tiborini jamlaydi, qilingan ishning professional faoliyat uchun zarur bo`lgan jihatlariga talabalar diqqatini qaratadi. 3.2. Alohida talabalarning faolligini e`tirof qiladi va o`z-o`zini baholashni nihoyasiga yetkazadi 3.3. Darsning maqsadi tahlil qilinadi va maqsadga erishilganlik holati baholanadi 3.4.Auditoriyadan tashqari mustaqil ish vazifalari beriladi	3.1. Baholanadi. 3.2. Uy vazifasini oladi

VI mavzu. Markaziy Osiyoda Islom dinining mazhab va oqimlari

O`quv vaqti 2 soat	Talabalar soni 37
<i>O`quv mashg`uloti shakli</i>	<i>Ma`ruza</i>

<i>O`quv mashg`uloti rejası</i>	1. Islomgacha bo`lgan davr dinlari.</li> <li>2. Islomgacha bo`lgan davr dinlarining mazhab va oqimlari. 3. Fetishizm, totemizm, anemizim.
<i>O`quv mashg`uloti maqsadi:</i> Talabalarda Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy ta`limotida islomgacha bo`lgan davr dinlari va ularning mazhab hamda oqimlari, fetishizm, totemizm, anemizmlarning tutgan o`rni tushuncha hosil qilish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Talabalarda Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy ta`limotida islomgacha bo`lgan davr dinlari va ularning mazhab hamda oqimlarining tutgan o`rni haqida tushuncha hosil qilish; fetishizm, totemizm, anemizmlarning ijtimoiy hayotdagi rolini tushuntirish; mavu doirasida umumiy xulosalar berish.	<i>O`quv faoliyati natijalari:</i>  Talabalar Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy ta`limotida islomgacha bo`lgan davr dinlari va ularning mazhab hamda oqimlarining tutgan o`rni haqida tushuncha hosil qiladilar; fetishizm, totemizm, anemizmlarning ijtimoiy hayotdagi rolini tushunishadi; mavu doirasida umumiy xulosalarga ega bo`lishadi.
<i>O`qitish metodlari va texnikasi</i>	Seminar, interaktiv, bayon qilish, tahlil etish, tushuntirish, mulohaza, muammoli savollar. “Aqliy hujum” metodining yozma varianti.”Loyiha” metodi. “Tushunchalar tahlili” metodi.
<i>O`quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari</i>	Kichik guruhlarda, individual, jamoa bo`lib.
<i>O`qitish vositalari</i>	Tarqatma o`quv materiallari, ilmiy adabiyotlar, ko`rgazmali materiallar, ma`ruza matni, jadvallar, doska, proektor, ekran, o`quv vazifalari va savollar, oq qog`ozlar, rangli flomasterlar.
<i>Monitoring va baholash</i>	Eshitish, yozish va gapirish (reyting ishlanmasiga asosan)

Ma`ruzaning texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. Mavzu bilan tanishtiradi va dars rejasini bayon etadi; 1.2. Talabalar diqqatini mavzuga jalb etadigan savollar beradi	1.1. Mavzuni tinglaydi 1.2. Mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob beradi

2-bosqich. Asosiy (70 daqiqa)	2.1. “Aqliy hujum” orqali islomgacha boʻlgan davr dinlari haqida talabalar fikrini aniqlash. 2.2. Islomgacha boʻlgan davr dinlarining mazhab va oqimlari haqida talabalarga tushuntirish. 2.3. Fetishizm, totemizm, anemizm qoldiqlarining ijtimoiy hayotdagi koʻrinishlarini talabalar bilan muhokama qiladi	2.1. Tinglaydi va daftariga yozib oladi 2.2. Mavzuga oid savollar tuzadi va ularga javob beradi. 2.3. Slaydlar tezislarini daftarlariga yozib oladi
3-bosqich. Yakuniy-xulosaviy (5 daqiqa)	3.1.Mavzu yuzasidan xulosa qilinadi, asosiy jarayonga talabalarining eʼtiborini jamlaydi, qilingan ishning professional faoliyat uchun zarur boʻlgan jihatlariga talabalar diqqatini qaratadi. 3.2. Alohida talabalarining faolligini eʼtirof qiladi va oʻz-oʻzini baholashni nihoyasiga yetkazadi 3.3. Darsning maqsadi tahlil qilinadi va maqsadga erishilganlik holati baholanadi 3.4.Auditoriyadan tashqari mustaqil ish vazifalari beriladi	3.1. Baholanadi. 3.2. Uy vazifasini oladi

VII mavzu. Abu Muslim ijtimoiy harakati va uning xalifalik bilan munosabatlari.

O`quv vaqti 2 soat	Talabalar soni 36	
<i>O`quv mashg`uloti shakli</i>	<i>Ma`ruza</i>	
<i>O`quv mashg`uloti rejası</i>	1. VIII asrda xalifalikdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol. 2. Abu Muslim harakatining vujudga kelishi. 3. Abu Muslim harakatining natijalari.	
<i>O`quv mashg`uloti maqsadi:</i> Talabalarda VIII asrda xalifalikdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, Abu Muslim harakatining vujudga kelishi, Abu Muslim harakatining natijalari, Abu Muslim shaxsi va uning xalifalik bilan munosabatlari haqida tushuncha hosil qilish.		
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Talabalarda VIII asrda xalifalikdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol to`g`risida talabalar bilan muhokama qilish; Abu Muslim harakatining vujudga kelishi haqida talabalarga tushuncha berish; Abu Muslim harakatining natijalari hamda Abu Muslim shaxsi va uning xalifalik bilan munosabatlari xususida fikr uyg`otish, mavzu doirasida umumiy xulosalar berish.	<i>O`quv faoliyati natijalari:</i> Talabalar VIII asrda xalifalikdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol to`g`risida muhokama qila oladilar; talabalar Abu Muslim harakatining vujudga kelishi haqida tushunchaga ega bo`ladilar; Abu Muslim harakatining natijalari hamda Abu Muslim shaxsi va uning xalifalik bilan munosabatlari xususida fikr uyg`onadi, mavzu doirasida umumiy xulosalarga ega bo`ladilar.	
<i>O`qitish metodlari va texnikasi</i>	Seminar, interaktiv, bayon qilish, tahlil etish, tushuntirish, mulohaza, muammoli savollar. “Aqliy hujum” metodining yozma varianti.”Loyiha” metodi. “Tushunchalar tahlili” metodi.	
<i>O`quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari</i>	Kichik guruhlarda, individual, jamoa bo`lib.	

<i>O`qitish vositalari</i>	Tarqatma o`quv materiallari, ilmiy adabiyotlar, ko`rgazmali materiallar, ma`ruza matni, jadvallar, doska, proektor, ekran, o`quv vazifalari va savollar, oq qog`ozlar, rangli flomasterlar.
<i>Monitoring va baholash</i>	Eshitish, yozish va gapirish (reyting ishlanmasiga asosan)

Ma`ruzaning texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzu bilan tanishtiradi va dars rejasini bayon etadi; 1.2. Talabalar diqqatini mavzuga jalb etadigan savollar beradi	1.1.Mavzuni tinglaydi 1.2.Mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob beradi
2-bosqich. Asosiy (70 daqiqa)	2.1. "Aqliy hujum" orqali VIII asrda xalifalikdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol haqida talabalar fikrini aniqlash. 2.2. Talabalarda Abu Muslim harakatining vujudga kelishi to`g`risida tushuncha hosil qilish. 2.3. Abu Muslim harakatining natijalari haqida talabalar bilan muhokama qilish. 2.4. Bahs-munozara orqali mavzu mohiyatiga kirib borish.	2.1. Tinglaydi va daftariga yozib oladi 2.2. Mavzuga oid savollar tuzadi va ularga javob beradi. 2.3. Slaydlar tezislarini daftarlariga yozib oladi 2.4. Suhbat
3-bosqich. Yakuniy-xulosaviy (5 daqiqa)	3.1. Mavzu yuzasidan xulosa qilinadi, asosiy jarayonga talabalarining e`tiborini jamlaydi, qilingan ishning professional faoliyat uchun zarur bo`lgan jihatlariga talabalar diqqatini qaratadi. 3.2. Alohida talabalarining faolligini e`tirof qiladi va o`z-o`zini baholashni nihoyasiga yetkazadi 3.3. Darsning maqsadi tahlil qilinadi va maqsadga erishilganlik holati baholanadi 3.4.Auditoriyadan tashqari mustaqil ish vazifalari beriladi	3.1. Baholanadi. 3.2. Uy vazifasini oladi

VIII mavzu. Markaziy Osiyoning ijtimoiy hayotida tasavvuf, uning suluk va tariqatlari

O`quv vaqti 2 soat	Talabalar soni 37
<i>O`quv mashg`uloti shakli</i>	<i>Ma`ruza</i>
<i>O`quv mashg`uloti rejas</i>	1. Tasavvuf ta`limotining vujudga kelishi tarixidan. 2. Markaziy Osiyo mamlakatlarining o`rta asr tarixida tasavvuf ta`limotini paydo bo`lishi va milliy qadriyatlarning hamohangligi. 3. Tasavvuf ta`limotining ijtimoiy hayotdagi o`rni.
7	1	1	Kimning tasavvuf ta'limotida Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat ulug'langan?	*"Kubroviya" ta'limotida	"Naqishbandiy a" ta'limotida	"Yassaviya" ta'limotida	"Oq jamoa" ta'limotida
5	1	3	Tasavvuf ta'limoti qachon va qayerda paydo bo'lgan?	*VIII asrda Iroqda	VIII asrda Eronda	IX asrda Misrda	X asrda Mavorounnahrd a
5	1	2	"Dil ba yor-u dast ba kor" (ko'ngil Allohda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'lsin) hikmati kimga tegishli?	*Bahouddin Naqshband	Ahmad Yassaviy	Alisher Navoiy	Najmiddin Kubro
5	1	2	Naqshbandiya ta'limoti taraqqiyotiga keying asrlarda kimlar katta hissa qo'shdilar?	*Alisher Navoiy, Xoja Axror va Abdurahmon Jomiy	Muhammad Solix Qozizoda Rumiy va Lutfiy	Atoyi, Sayfi Saroyi va Xusrav Dehlaviy	Bobur, Hofiz Ko'hakiy, Boborahim Mashrab
7	1	1	Islom ta'limotini asoslab beruvchi diniy ilm bu?	*Kalom	Falsafa	Metafizika	Tariqat
5	1	1	Qaysi sulola davrida machitlar xristian cherkovlarini buzish yoki qayta qurish orqali ham barpo etilgan?	*Ummaviylar davrida	Abbosiylar davrida	Xalifalik davrida	Payg'ambarlar davrida
5	1	3	Qubbat as-Saxra machiti qachon qurilgan?	*687-691y	680-689y	685-690y	687-690y
5	1	2	Qubbat as-Saxra machiti qayerda joylashgan?	*Ierusalimda	Quddusda	Qohirada	Bog'dodda
5	1	3	Valid I buyrug'i bilan Damashqda katta machit qachon qurilgan?	*705-715 yillarda	709-716yillarda	710-719yillarda	708-714yillarda
1 2	1	3	Hindistonda toshdan ibodatxonalar qurishning yangi davri nechanchi asrda boshlandi?	*VII asrda	IX asrda	VIII asr oxiri	X asr boshlari
1 2	1	3	Hindistondagi g'orlarda ibodatxonalar qurishning ikkinchi davri nechanchi asrlarni o'z ichiga oladi?	*VII-VIII asrlarni	VIII-X asrlarni	V-VII asrlarni	IX-X asrlarni
1 2	1	2	Shiva xudosiga va u bilan bog'liq bo'lgan obrazlarga bag'ishlab barpo etilgan ibodatxonani toping?	*Kaylasanatxa ibodatxonasi	Maxabalipura m ibodatxonasi	Shivaibodatxo nasi	Ratx ibodatxonasi
7	1	2	Qutb-Minor Hindistonning qaysi shahrida joylashgan?	*Dehlida	Agrada	Kalkutta	Tanjurda

1 2	1	2	Hindistonda XVII asrda qurilgan me'moriy inshootlar ichida Muhammad Odilshoh maqbarasi qachon qurilgan?	*1656 y	1568 y	1652 y	1592 y
1 2	2	2	Humoyun maqbarasi Hindistonning qaysi shahrida joylashgan? Qachon qurilgan?	*Dehlida	Agrada	Kalkutta	Tanjurda
1 2	1	3	Hindistonning Moxenjadaro va Xarappa madaniyatlari qachon inqirozga yul tutadi?	*mil.avv. 2 ming yillikda	mil.av 1ming yillikda	er.av 4 ming yillikda	milodiy 2ming yillikda
1 2	1	2	Hindistonning kadimgi xaykaltaroshligining namunasi raqqosa xaykali qayerdan topilgan?	* Xarappadan	Sarnatxedan	Moxenjadaro	Saichidan
1 3	1	3	Qayerdan Buddaviylik bilan bog'liq yodgorliklardan toshdan kurilgan me'morial ustunlar topilgan?	*Sarnatxedan	Saichidan	Moxenjadaro	Xarappadan
5	1	2	Ashtarxoniylar davrida Naqshbandiya tariqati bilan qaysi tariqat rivojlandi?	*Yassaviya tariqati	Kubroviya tariqati	Axroriya tariqati	Imom A'zam tariqati
5	2	3	Ashtarxoniylar davrida Naqshbandiylikning xalq orasida qaysi mashhur kishilar yashagan?	*So'fi Olloyor, So'fi Dehqon, Hoji Habibullo	Imom A'zam, Sulton Halil, Abdurasul	Musaxon Dahbediy, So'fi Dehqon	Sulton Halil, Abdurasul, Aziza Otim
7	1	2	Yassaviylik tariqatining markazini aniqlang?	*Samarqand, Karmana, Aliobod	Buxoro, Naxshab, Karmana	Samarqand, Buxoro, Kesh	Farg'ona, Buxoro, Samarqand
5	1	1	Ashtarxoniylar davrida yozilgan asarlarni ko'rsating:	*"Ubaydullano ma", "Tarixi Muqimxoniy", "Tarixi Abulfayzxoniyy"	"Boburnoma", "Abdullanoma", "Qissasi Rabg'uziy"	"Tarixi Muqimxoniy", "Abdullanoma", "Zafarnoma"	"Qissasi Rabg'uziy", "Tarixi Abulfayzxoniyy", "Abdullanoma"
5	1	1	Shayboniylar davrida tasavvuf namoyondalari orasida o'z ilmiy-manaviy merosi bilan mashhur shaxs?	*Mahdumi A'zam Dahbediy	Jo'yborixon	Abdullaxon	Ashtarxon
1 6	1	2	XX asrda Sharq mamlakatlarida qaysi tasaffuv ta'limoti mashhur bo'lgan?	*Naqshbandiya Yassaviya,	Shayboniy, Yassaviya, Hasaniya	Jo'yboriya, Hasaniya, Safariya	Naqshbandiya, Shayboniy, Safariya

UMUMIY SAVOLLAR

1. Ilk ijtimoiy tasavvurlar va ularning turli shakllari hamda insonlar dunyoqarashida aks etishi
2. Totemizim, fetishizm, animizm; ibtidoiy diniy tasavvurlar.
3. Zardushtiylik diniy, axloqiy dunyoqarash tizimining xalqlar tarixidagi o'rni
4. Zardushtiylikda zurvanizm va uning mohiyati.
5. Zardushtiylik dinining tarqalish geografiyasi.
6. Mazdakiylik ijtimoiy oqimining o'rni
7. Mazdakiylik ta'minotining yoyilishi, uning ijtimoiy oqibatlari.
8. Islomgacha bo'lgan davr dinlari, ularning mazhab va oqimlari
9. Islom barqarorligi va birligi uchun olib borilayotgan harakatlar.
10. Markaziy Osiyoda Islom dini. Uning mazhab va oqimlari
11. Muqaddas ziyoratgohlar, aziz va avliyolar qadamjoylari.
12. Abu Muslim ijtimoiy harakati va uning xalifalik bilan munosabatlari
13. Abu Muslimning shaxsi, faoliyati haqidagi tarixiy haqiqat.
14. Markaziy Osiyoning ijtimoiy hayotida tasavvuf, uning suluk va tariqatlari
15. Fiqh ilmining Movarounnahrda tutgan o'rni.
16. Pioneerlarning temurchilik harakati va Markaziy Osiyo xalqlari.
17. Sovet mafkurasining o'rni.
18. Mo'g'ullar va Temuriylar davrida sarbadorlar harakati va uning g'oyaviy asoslari
19. Mo'g'ullarning shomoniylar dinidan islom diniga o'tishlari.
20. O'rta Osiyo xonliklari tarixida darveshlik harakati
21. Qalandar va qalandarlik.
22. Ijtimoiy oqimida xalq folklorida darvesh, qalandar obrazlari.
23. XIX asr oxiri - XX asr boshida jadidchilik harakati
24. Jadid namoyandalarning kyyingi ijtimoiy harakatlaridagi o'rni.
25. Jadid harakatlarining Dunyo mamlakatlari ijtimoiy hayotidagi o'rni.
26. Buddaviylik dini tarixi, falsafasi, jahon madaniyati tarixida tutgan o'rni
27. Bugungi kundagi buddaviylik dini.
28. Nirvana ta'limoti.
29. Buddaviylik dini ning ko'rinishlari.
30. Qadimgi O'zbekiston hududida buddaviylik dini izlari, me'moriy-arxeologik inshootlar
31. Tasviriy san'at namunalari.
32. O'zbek urf-odatlarida buddaviylik dini ko'rinishlari.
33. Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy dunyoqarashi masalalari
34. Madaniy va ijtimoiy muhitni bir-biriga ta'siri, o'zaro bog'liqlik tamoyillari.
35. Bahoiylik ta'limotining tarixi
36. Turkiston o'lkasiga bahoiylikni kirib kelishi, tarqalishi.
37. Bugungi kundagi bahoiylik ta'limoti.
38. Dinlararo transformatsiya jarayonlari
39. Mahatmi Gandi, Muhammad Taraqiy qarashlari.
40. Sovet davrida ijtimoiy ta'limotlar tushunchasi
41. "Hujum" harakati.
42. Staxanovchilik harakati.
43. Temurchililar harakati.

44. Mustaqillik yillarida MO davlatlaridagi ijtimoiy harakatlari
45. Mustaqillik davri ijtimoiy harakatlari.
46. An'anaviy urf-odatlar va diniy marosimlarning ahamiyati.
47. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalarida, Hukumat va Prezidentning Qaror va Farmonlarida diniy bag'rikenglik, vijdon erkinligi masalalari
48. Hukumat tomonidan olib borilayotgan bag'rikenglik siyosati.
49. Madaniy va ijtimoiy muhitni bir-biriga ta'siri, o'zaro bog'liqlik tamoyillari.
50. Bahoiylik ta'limotining tarixi

**“MARKAZIY OSIYODA IJTIMOIIY-SIYOSIY
TA’LIMOTLAR TARIXI”
FANIDAN TARQATMA VA TAQDIMOT
MATERIALLARI
(diskda ilova qilinadi)**

“MARKAZIY OSIYODA IJTIMOIIY-SIYOSIY TA’LIMOTLAR TARIXI” FANIDAN MUSTAQIL ISH TURLARI VA MAVZULARI

Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni

“Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar tarixi” fani bo’yicha talabaning mustaqil ta’limi shu fanni o’rganish jarayonining tarkibiy qismi bo’lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to’la ta’minlangan.

Talabalar auditoriya mashg’ulotlarida professor-o’qituvchilarning ma’ruzasini tinglaydilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlardan foydalanib konspekt qiladi, berilgan uy vazifasini tayyorlaydilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o’rganish maqsadida qo’shimcha adabiyotlarni o’qib referatlar tayyorlaydi va testlar yechadi. Mustaqil ta’lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifani bajarish, qo’shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o’rganish, kerakli ma’lumotlarni izlash va ularni topish yo’llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma’lumotlar to’plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to’garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma’ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta’limsiz o’quv faoliyati samarali bo’lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg’ulot olib boruvchi o’qituvchi tomonidan, konspektlardan va mavzuni o’zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma’ruza darslarini olib boruvchi o’qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

Mustaqil ta’lim shakllari:

- ✓ Referat
- ✓ Yozma ish
- ✓ Ma’ruza
- ✓ Slayd-taqdimot
- ✓ Xarita-taqdimot
- ✓ Fotoalbom
- ✓ Buklet
- ✓ Elektron materiallar, matnlar
- ✓ Ilmiy adabiyotning sharhi va tahlili
- ✓ Internetda mavzuga oid saytlar, kutubxona kataloglarining taqdimoti

I. Taqdimot shakllari:

1. Individual (ma’ruza, referat himoyasi) – konferensiya shaklida;
2. Guruhlarda (“3 x 4”, “Bumerang”, “Loyiha”, “Klaster”, “Venna”, “Rezyume”, “Muammoli” va shu kabi metod va texnologiyalar yordamida);
3. Slayd-taqdimot (kompyuter, internet, Power-Point dasturida bajarilgan ishlar taqdimoti, himoyasi, muhokamasi);
4. Xarita-taqdimot (guruhlarda, vatmanda, qog’ozda ijodiy yondashgan holda mavzuni aks etish va taqdimot qilish, himoya va muhokama qilish);
5. Fotoalbom (mavzuga oid ko’rgazmali ma’lumotlar yig’indisi, izohlari);
6. Buklet (mavzuga oid izohli sur’atlar to’plamining individual tarzda, o’quv mashg’uloti davomida taqdimoti);

7. Elektron materiallar, matnlar (masalaga oid materiallarning matnli ko‘rinishining topshirilishi);

8. Ilmiy adabiyotning sharhi va tahlili (mavzuga oid ilmiy, tarixiy adabiyotlarning individual tarzda dars vaqtida izohlanishi va tahlil etilishi);

9. Internetda mavzuga oid saytlar, kutubxona kataloglarining taqdimoti (internet tarmog‘ida mavzuga oid saytlar yoki elektron kutubxonalar, kataloglarning taqdimoti).

Mustaqil ishlarni tashkillashtirish va bajarish uchun tavsiyalar

1. Barcha bajarilgan mustaqil ta’lim shakllarini kichik guruhlar, individual tarzda baxs-munozara, muhokama, savol-javob, diskussiya, konferensiya, shaklida ped.texnologiyalar (“Klaster”, “Bumerang”, “3 x 4”, “O‘yinli-rolli”, “Charxpalak” va b.) yordamida o‘tkazish samarali hisoblanadi.

2. Slayd-taqdimot, xarita- taqdimot shakllari himoya, muhokama, munozara, baxs tarzida o‘tkazilishi tavsiya etiladi. (individual va guruhlarda).

3.Referat,dokladlarning muhokamasi ilmiy-amaliy anjuman (konferensiya, kollokvium) tarzida o‘tkazilishi tavsiya etiladi. Mavzuga oid ko‘rgazmali ma’lumotlarni,shuningdek, fotoalbom shaklida to‘plab, ko‘rgazmali mustaqil ish himoyasi tarzida o‘tkazish mumkin (individual). Fan yakunida guruhlararo “Eng mukammal referat, doklad, slayd-taqdimot, xarita-taqdimot, fotoalbom” ko‘rik-tanlovini va ko‘rgazmasini tashkillashtirish, mualliflarini rag‘batlantirish ularni o‘qishi, ijodiy faoliyatini oshiradi, bilimga intilishini oshiradi.

4. O‘qituvchi talabalarga har bir mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, qo‘llanmalar, darsliklar, qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxatini berishi lozim.

Mustaqil ishlarni bajarish uchun yo‘nalish, reja, tarkibiy qismlari borasida maslahatlar berishi maqsadga muvofiqdir.

5. Talabalarining mustaqil ijodiy ishlarini bajarishda kutubxonalar, arxiv fondlari, kompyuter va axborot texnologiyalaridan (internet, Power Point, Microsoft Word dasturlari) unumli foydalanishga yo‘naltirish zarur.

6. Mustaqil ishlarni qaysi shaklda bo‘lmasin, tarkibiy qismlarini bergan holda texnik jihatlarini e’tiborga olib bajarishga harakat qilish ya’ni, mavzuning nomi, fan nomi, institut, tahsil olayotgan fakultet, yo‘nalish, guruhi, bosqichi, ism-sharifi, qabul qiluvchi o‘qituvchining ismi sharifi; mavzuning rejasi, tayanch iboralar; foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (yakunida); matni, qo‘shimcha ma’lumot (xarita, jadval, foto-arxiv, surat) lari va xulosalar berilishi lozim.

7. Tayyorlangan mustaqil ishning hajmlari o‘rtacha darajada talab etilishi lozim. Masalan, referat, doklad o‘rtacha 8-10 bet; slayd-taqdimot o‘rtacha 15-20 ta slayddan iborat.

8. Tadqiq etilgan mavzuning har qanday shaklini og‘zaki taqdim etish, himoya qilib, mualliflar va shaxsiy fikr-xulosalarini asoslab berishda alohida e’tiborni nutqiga, harakatlariga, o‘zini to‘g‘ri tutishga, auditoriyani qiziqtirib mavzuga jalb eta olishiga, matnni o‘qib berib emas, tushuntirib, gapirib berishga, savollarni to‘g‘ri tushunib, aniq javob berishga, to‘g‘ri savol bera olishga qaratish lozim.

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. Qadimiy davrlarda ijtimoiy harakat va uni harakatlantiruvchi omillar.
2. Ilk bosqich davlatchilik asoslarining vujudga kelishida ijtimoiy munosabatlar
3. Jamiyatning ma’naviy mafkuraviy hayotida ijtimoiy qatlamlarning o‘rni.

4. Diniy ijtimoiy falsafiy harakatlar.
5. Mulkiy tabaqalanish va ijtimoiy harakatlar.
6. Zardushtiylikning ijtimoiy asoslari.
7. Buddaviylik, xinayana va maxayana yo'nalishlarining ijtimoiy mohiyati.
8. Mazdakchilik ijtimoiy harakati.
9. Islom davri ijtimoiy harakatlari: Abo Muslim ijtimoiy harakati.
10. Islomda mazxabchilik ijtimoiy harakatlari.
11. Tasavvufning ijtimoiy asoslari.
12. Yangi davr ijtimoiy ma'rifiy va siyosiy oqimlar: Jadidchilik.
13. Sovet davrida ijtimoiy harakatlar.
14. "Hujum" va uning mohiyati
15. "Staxanovchilik" ijtimoiy harakati
16. "Timurchilar" ijtimoiy harakati
17. "Tursunoychilik" ijtimoiy harakati
18. "O'zim uchun va o'sha yigit uchun" ijtimoiy harakati
19. "Mingtonnachilik" ijtimoiy harakati.
20. "Ko'pstanokchilik" ijtimoiy harakati
21. XX asr oxiri XXI asr boshidagi reaksiya-diniy ijtimoiy oqimlar.
22. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati.

Ta’lim jarayonida interfaol usullardan foydalanish

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o’qitishning zamonaviy usullarini qo’llash, o’qitish jarayonida yuqori natijalarga olib keladi. Ta’lim usullarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni turli-tuman zamonaviy usullar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish darajasini ko’tarilishini ta’minlaydi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag’batlantirilib turilishi, o’quv materialini kichik-kichik bo’laklarga bo’lib, ularning mazmunini ochishda interfaol usullarni qo’llash va ta’lim oluvchilarni ommaviy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu usullar qo’llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi.

Interfaol usullarni qo’llash bo’yicha **umumiy metodik tavsiyalar**: **1.** Ishlash uchun joyni tayyorlash. Auditoriyani shunday tayyorlash kerakki, bunda ishtirokchilar kichik yoki katta guruhlarda ishlash uchun qulay joylashishlar zarur. **2.** Jarayon va reglamentga jiddiy munosabatda bo’lish. Barcha tinglovchilar har bir nuqtai nazarga sabrli bo’lib, so’z erkinligini hurmat qilishlari kerak. **3.** Tinglovchilarning guruhlariga bo’linishiga jiddiy e’tibor berish. **4.** Tinglovchilarning hammasi u yoki bu darajada ishga jalb qilingan bo’lishi kerak. **5.** Tinglovchilarning mashg’ulotga ruhiy tayyorgarligiga ko’maklashish. **6.** Interfaol usullar asosida mashg’ulotlar o’tkazilganda guruhda ta’lim oluvchilar soni ko’p bo’lmasligi kerak. 4-6 kishidan iborat bo’lgan kichik guruhlarda samarali ish olib borish mumkin.

Ta’lim jarayonida qo’llanadigan ayrim interfaol usullar

“Aqliy hujum” usuli-g’oyalarni ishlab chiqish usuli. Qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar: uni yechish uchun shaxsiy g’oyalarni ilgari suradilar. “Aqliy hujum” quyidagi qoidalar bo’yicha o’tkaziladi: -fikir hech qanday cheklanmagan holda, iloji boricha balandroq ovozda aytilishi lozim; -har qanday fikrni aytish mumkin, u qabul qilinadi; -g’oyalarga tushuntirish berilmaydi, ular vazifalarga bevosita bog’liq holda aytiladi; -takliflar berish to’xtatilmaguncha, aytilgan g’oyalarni tanqid yoki muhokama qilishga yo’l qo’yilmaydi.

Samarali aqliy hujum uchun bosqichlar: **1.** Ishtirokchilarni majburiy bo’lmagan holda o’tkazing. **2.** Fikrlarni bayon qilish uchun qog’oz va doskani tayyorlang. **3.** Aqliy hujum ishtirokchilariga muammoni yetkazish kerak. **4.** Ish tartibini aniqlang: **a)** fikrlar tashlanganda ularni baholamang **b)** doimiy fikrlash ozodligi **v)** qancha aqli fikr ko’p bo’lsa, shuncha yaxshi **g)** “ushlang”, “tuting” boshqalarning fikrlarini rivojlantiring **5.** Fikrlar to’g’risida surishtiring va tezda ularni yozing. **6.** Qog’oz varag’i to’ldirilganda, uni muhokama uchun qo’ying. **7.** O’z g’oalaringizni qo’shib yangi g’oyani rag’batlantiring. **8.** Boshqalar fikrini tanqid qilish yoki ustidan kulish kerak emas, kulgiga yo’l qo’yimg.

Aqliy hujumning asosiy ko’rinishlaridan biri juftlikdagi aqliy hujumdur. Agar ish daliliy axborotga bog’liq bo’lsa, unda ta’lim oluvchilarga dalillar ro’yxatini tuzish taklifi beriladi. Ikki daqiqadan so’ng individual ishdan keyin ular bir-birlari bilan muloqotda bo’lib muhokama qiladilar va o’zlarining ro’yxatlarini birlashtiradilar.

“Charxpalak” texnologiyasi-ushbu texnologiya ta’lim oluvchilarni o‘tilgan barcha mavzularni yod olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berishga va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida ularni baholay olishga qaratilgan. O‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki o‘quv predmetining biror-bir bo‘limi tugallanganda o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash, yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun mo‘ljallangan.

O‘tkazish texnologiyasi: 1.Ishtirokchilar kichik guruhlariga bo‘lib olinadi (sharoitga qarab). 2.Mashg‘ulotni o‘tkazishga qo‘yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtirish. 3.Guruh ishtirokchilari mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifani bajaradilar. 4.Har bir guruh ishtirokchisi o‘zi ishlab chiqqan tarqatma materialning o‘ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o‘zining biror bir belgisini chizib qo‘yishi kerak. 5.Vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga tarqatiladi. 6.Yangi guruh a‘zolari berilgan materiallarni o‘rganib, unga o‘z o‘zgartirishlarini kiritadilar. 7.Tuzatish, o‘zgartirish kiritilgan materiallar yana bir marta boshqa guruhlariga uzatiladi (guruhlar soniga qarab). 8.Guruhlar materiallarni bir-birlari bilan oxirgi almashganlaridan so‘ng har bir guruh ishtirokchisi o‘zining birinchi to‘ldirgan materialini (guruh raqami va o‘zi qo‘ygan belgi asosida) tanlab oladilar. 9.Har bir guruh ishtirokchisi tarqatma materialdagi o‘zi belgilagan javoblarini boshqa guruh ishtirokchilari kiritgan tuzatishlari bilan taqqoslaydilar va tahlil qiladilar. 10.Ta’lim beruvchi tarqatma materialda berilgan vazifani o‘qib, guruhlar bilan to‘g‘ri javobni belgilaydilar. 11.Har bir ishtirokchi to‘g‘ri javob bilan belgilangan javoblar o‘rtasidagi farqni aniqlab, shunga mos ballni to‘playdi va o‘z-o‘zini baholaydi.

Bilaman/bilishni xohlayman/bilib oldim (B/Bh/B)-biror matn yoki mavzuni interfaol o‘qish-o‘zlashtirish usullaridan biri bo‘lib, jadval ko‘rinishida bajariladi va quyidagicha qo‘llaniladi: ta’lim oluvchilarga biror mavzu e‘lon qilinadi. Bu to‘g‘rida ularga ma’lum bo‘lgan axborotlarni jadvalning “Bilaman” qismiga, mavzu bo‘yicha yana qanday ma’lumotlarni bilishni xohlashsa, ularni jadvalning “Bilishni xohlayman” qismiga yozadilar. So‘ngra, ularga mavzuga oid matn tarqatiladi.Ular mikroguruhlar tarkibida matnni mustaqil o‘zlashtirib, jadvalning “Bildim” qismini to‘ldiradilar. Har bir guruh sardori tuzilgan jadvallarni taqdim qiladi. Jadvalning barcha qismlari taqqoslanadi.

“FSMU” texnologiyasi –ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv seminari yakunida, biror bir bo‘lim o‘rganilgandan so‘ng qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda ta’lim oluvchilarni o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga ham tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi. **F**-fikringizni bayon eting,**S**-fikringiz bayoniga biror bir sabab ko‘rsating, **M**-ko‘rsatilgan sababni isbotlovchi misol keltiring, **U**-fikringizni umumlashitiring

“Davra suhbat”-aniq ish tajribasini o‘rganish, axborot almashish kabi faoliyatlarni o‘tkazishda ko‘maklashadi. Davra suhbatini ikki xil shaklda o‘tkazish mumkin: **1) Yozma davra suhbat**-o‘zaro hamkorlikda muammo yoki g‘oya-fikrlarni samarali usulini topishning usuli. A‘zolar ko‘rilayotgan u yoki bu masala yuzasidan o‘z g‘oyasi yoki taklifini yozadi, so‘ng yozilgan qog‘ozni yonidagi a‘zoga uzatadi. Navbatdagi a‘zo berilgan g‘oya yoki taklif yuzasidan mustaqil bilimi va qarashlariga

asoslangan holda tushuncha va izohlarini qo‘shimcha qiladi va navbatdagi a‘zoga uzatadi. Har bir ishtirokchi fikrlarini o‘zi tanlagan rangli qalam bilan yozadi. Bu har bir ishtirokchining suhbatda qatnashganlik darajasini yaqqol ko‘rsatadi. Jarayon to barcha a‘zolar o‘rganilayotgan masala yuzasidan o‘z bilim va munosabatlari asosida mustaqil fikr yoki savollari bilan ishtirok etib bo‘lishlariga qadar davom ettiriladi. **2) Og‘zaki davra suhbat**-bu yuqorida ko‘rsatilgan usulga o‘xshash bo‘lib, faqatgina og‘zaki shaklda o‘tkaziladi. Har bir ishtirokchi navbat bilan, undan oldin taklif etilgan fikrlarni qabul qilib olib, uni rivojlantiradi.

“Taqqimot”. Taqqimotni muvaffaqiyatli amalga oshirishda e‘tibor qaratiladigan jihatlar: **1.** Qaysi masala yuzasidan fikr yuritmoqchi bo‘lsangiz, uni har jihatdan mukammal o‘rganing. Uch aniq vazifani amalga oshirish asosida masala har jihatdan samarali yoritilishiga erishish mumkin. A) Yoritib beriladigan masalaning asosiy mazmun-mohiyati nimada? degan savolga javob topish. B) Yoritib beriladigan masala yuzasidan shaxsiy nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda kalit so‘zlari, tezislar, dalillarni kema-ket tartibda belgilash. V) Taqqimot o‘tkazilgandan so‘ng, sizga nisbatan auditoriyaning munosabati qanday bo‘lishi to‘g‘risida o‘ziga xayolan savol bilan murojaat etish. **2.** Masala yuzasidan yoritadigan materiallarni tizimlashtirish: kalit so‘zlar, tezislar, dalillar uchun qisqa, aniq va lo‘nda jumlar tuzish. Har bir jumlaning qo‘llab quvvatlovchi uchta asosni tanlab, belgilab oling. -masalani har tomonlama yoritib berishga qalban ishonch uyg‘otish; -nutq so‘zini juda ham ma‘nodor epigraf bilan boshlash; -masalani mazmun-mohiyatini ochib beruvchi, asoslangan ochiq so‘zlarga ega bo‘lish. **3.** Tajribadan o‘tkazish asosida puxta tayorgarlik ko‘rish. Taqqimot materiallarini tizimlashtirib bo‘lgandan so‘ng, quyidagi jadvalni tayorgarlik ko‘rish uchun ishlatish: Masala nomi. Ustuvor tamoyillar. Nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda kalit so‘zlar. Qo‘llab-quvvatlovchi asoslar. Tarixiy manbalar.

“Bumerang”. Mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo‘naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga yaroqli bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan ta‘lim oluvchi yoki ta‘lim beruvchi ro‘lida bo‘lishi, kerakli ballni to‘plashiga imkoniyat beradi. Asosiy tushunchalar quyidagilar: Ochiq savollar-bu savollar muomala, so‘zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas. Yopiq savollar-bu savollar oldindan “ha” yoki “yo‘q” tipidagi to‘g‘ri, ochiq javoblarni berishni ko‘zda tutadi. Ko‘ndalang so‘roq-bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo‘lib, bu o‘ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir. Ko‘ndalang so‘roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

“Sinkveyn” usuli-o‘rganilayotgan materialni to‘laqonli anglash uchun qo‘llaniladi. Sinkveyn-fransuzcha besh qatorli o‘ziga xos, qofiyasiz she‘r bo‘lib, unda o‘rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to‘g‘risidagi axborot yozilgan holda o‘quv so‘zi turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish qoidasi quyidagicha: Birinchi qatorda mavzu (topshiriq) bir so‘z, odatda ot so‘z turkumi bilan ifodalanadi. (kim? nima?). Ikkinchi qatorga mavzuga oid ikkita sifat yoziladi. (qanday? qanaqa). Uchinchi qatorga mavzu doirasidagi hatti-harakat uchta so‘z (fe‘l) bilan ifodalanadi. To‘rtinchi qatorga mavzuga nisbatan tasavvur anglatuvchi va

to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr yoziladi. Oxirgi qatorga mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga o'xshash bo'lgan bitta so'z (sinonim) yoziladi.

“Klaster” (g'uncha, bog'lam) usuli ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Bu turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster usuli aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatini bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Usuldan ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Bunda ilg'ri surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyati yaratiladi. Klaster usulidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi: nimaniki o'ylagan bo'lsangiz shuni qog'ozga yozish; fikringizning sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib borish; so'zlardagi imlo xatolar va boshqa jihatlarga e'tibor bermaslik; belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to'xtamaslik; agar ma'lum bir muddat biror bir g'oyani o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsani rasmini chiza boshlash, bu harakatni yangi g'oya tug'ulguniga qadar davom ettirish; muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilg'ri surish hamda g'oyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qilish; g'oyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamaslik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Авесто: Яшт китоби / М. Исҳоқов таржимаси. – Т.: Шарқ, 2001. 128 б.
2. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. - Т., 1957.
3. Ёвқочев Ш. ва б. Марказий Осиё халқларининг ижтимоий-сиёсий ва диний ҳаракатлари тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: Тошкент Ислом ун-ти, 2011. 168 б.
4. Жамолхожи И.Н. Марказий Осиё халқлари ижтимоий-сиёсий ва диний таълимотлари тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДШИ, 2009. 106 б.
5. Из истории развития общественно-экономической мысли в Узбекистане в XV - XVI вв. – Т.: Фан, 1960. 114 с.
6. Искандаров Б. Ўрта Осиёда фалсафий ва ижтимоий-сиёсий фикрнинг шаклланиши тарихидан лавҳалар: Олий ўқув юрт. талабалари учун ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – 109 б.
7. Исҳоқов М.М. Ўлмас обидалар. - Т., 1989.
8. Қаюмов А., Исҳоқов М., Отахўжаев А., Содиков Қ. Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Т.: Ёзувчи, 2000. 230 б.
9. Мифы народов мира. Энциклопедия: в 2-х томах / Гл. ред. С.А. Токарев.
- М.: Советская энциклопедия, 1991. – Т.1. А-К. – 671 с.;
- М.: Советская энциклопедия, 1992. - Т.2. К-Я.- 719 с.
10. Нуритдинов М.Н. Из истории общественно-философской мысли Средней Азии в XVI-XVII веках. – Т.: Ибн Сино, 1996.–216с.
11. Содиков Қ. Қадимги турк фалсафаси. – Т.: ТошДШИ, 2008. 136 б.
12. Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. - Т.: Ўзбекистон, 1998. 336 б.
13. Туленов Ж. Ҳаёт фалсафаси. – Т.: Ўзбекистон, 1993. 320 б.
14. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар: Олий ўқув юрт. талабалари учун ўқув қўлланма // тузувчилар: М. Хайруллаев, Х. Алиқулов. – Т.: Ўзбекистон, 1995. – 240 б.
15. Усмон Турон. Туркий халқлар мафкураси. - Т.: Чўлпон, 1995. 104б.
16. Хайруллаев М. Форобий рухий процесслар ва таълим-тарбия тўғрисида. – Т.: Ўқитувчи, 1966. – 96 б.
17. Бойс М. Зороастрийцы, верования и обычаи. - М., 1987.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Бабаходжаев М. Республика Узбекистан: очерки межнациональных и межконфессиональных отношений, внешнеэкономических связей.-Т., 1996.
2. Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти.- Т., 2005.
3. Муҳаммадсодиқ Муҳаммадйусуф. Ҳаёт ва ҳадис. Кўп жилдлик.-Т.,2001-2007.
4. Бобохонов Ш. Сўнмас зиё. - Т., 1998.
5. Аскарлов А. Сапаллитепа. - Т., 1973.
6. Қаипбергенов Т. Бобомга хатлар.– Т.: Ғафур Ғулом номид. нашр., 1995.128б.
7. Лев Д.Н. Древний палеолит в Аман-Кутане. - Самарканд, 1949.
8. Маркс К., Энгельс Ф. Дин тўғрисида. – Т.: Ўздавнашр., 1956. 324 б.
9. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – Т., 1964.
10. Ҳуснитдинов З. Ислом дини: мазҳаблар, оқимлар.- Т., 2001.
11. Шониёзов К.Ш. Қанғ давлати ва қанғлилар. - Т.: Фан, 1990. 168 б.

XORIJY ADABIYOTLAR

1. Массон В.М. Первобытнообщинный строй на территории Туркмении (энеолит, бронза, эпоха раннего железа). Тр. ЮТАКЭ, Т.7. - М., 1956.
2. Ницше Ф. Так говорил Заратустра. (Пер. с нем.) – М.: Интербук, 1990. 301 с.
3. Маркс К., Энгельс Ф., Ленин В.И. О религии. – М.: Политиздат, 1975. 440 с.
4. Островский Э.В. Основы философских знаний. – М.: ЮНИТИ, 1998. 256 с.
5. Лосев А.Ф. Дерзание духа. – М.: Мысль, 1988.
6. Гумилёв Л.Н. История людей и история природы. – М.: Прогресс, 1993.
7. История философии. Запад – Россия – Восток. В 3х кн. – М., 1996-1998.
8. Сорокин П. Человек, цивилизация, общество. - М.: Политиздат, 1992.
9. Франк С.Л. Духовные основы общества. – М.: Республика, 1992.
10. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М.: Республика, 1994.
11. Окладников А.П. Тешикташ. Палеолитический человек. - М., 1949.
12. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма. - М., 1968.
13. Коробкова Г. Орудия труда и хоз-во неолитических племен Ср.Аз.-Л., 1969.
14. Кошеленко Г.А. Культура Парфии. - М., 1966.
15. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргиани. - М.-Л., 1959.
16. Раппопорт Ю.А. Из истории религии древнего Хорезма. - М., 1971.
17. Пяньков И.В. Ктесий о Зороастре. - Душанбе, 1968.
18. Струве В.В. Родина зороастризма. - Сталинабад, 1945.
19. Гафуров Б.Г. Александр Македонский и Восток. - М., 1980.
20. Ковалев С.И. Александр Македонский.- Л., 1937.
21. Ранович А.Б. Эллинизм и его историческая роль. - М.-Л., 1950.
22. Гумилев Л.Н. Хунны. - М., 1960.
23. Бичурин И.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена: в 3-х частях / Отв. ред. С.П. Толстов –
- М.-Л.: АН СССР, 1950. – Ч.1. – 382 с.;
- М.-Л.: АН СССР, 1950. - Ч.2. - 335 с.;
- М.: АН СССР, 1953. – Ч.3. – 327 с.
26. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. - Л., 1962.
27. Гафуров Б. Кушанская эпоха и мировая цивилизация. - М., 1968.
28. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. - СПб, 2003.
29. Зеймал Е.В. Кушанская хронология. - М., 1968.
30. Зеймал Е.В. Начальная дата Канишки - 278 г. н.э. - М., 1968.
31. История и культура народов Средней Азии. - М., 1976.

Internet saytlari:

www.iste'dod.uz
www.edu.ioffe.ru
www.rambler.ru
www.krugosvet.ru
www.yandex.ru
www.google.uz
www.yahoo.ru
www.ziyo.net
www.mail.ru
www.centrasia.ru

Abbosiylar - tar. Bag'dodda 132-656 xijriy yoki 750-1258 milodiy yillarda xukmronlik qilgan arab xalifalari sulolasi va uning vakillari.

Avesto - Zardushtiylikning muqaddas kitoblari to'plami. U O'rta Osiyoda, xususan Xorazmda mil. avv. 1-ming yillikning 1-yarmida paydo bo'lgan. Zardushtiylikning asoschisi afsonaviy payg'ambar Zardusht (Zoroastr)dir. Avesto deyarli 2 ming yil ichida yaxlit holga keltirilgan. Dastlabki yozma nusxasi 12 ming mol terisiga bitilgan, deb rivoyat qilinadi. Avestoning axloqiy-falsafiy mohiyati «ezgu fikr», «ezgu so'z», «ezgu amal» tushunchalarida o'z ifodasini topgan. Zardushtiylarning ibodat oldidan aytiladigan niyati, so'zlari shu 3 ibora b-n boshlangan. Avestoda diniy, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar bayon etilgan. Avestoga ko'ra, olam ikki asos, ya'ni yorug'lik bilan zulmatning, yaxshilik bilan yomonlikning to'xtovsiz kurashidan iborat. Axuramazda yorug'lik va yaxshilik xudosi, kaxramaynu zulmat va yomonlik xudosi hisoblanadi. Axuramazda b-n Axramaynu to'xtovsiz kurashadi. Bu kurash pirovardida Axuramazda g'alaba qiladi, ezgulik barqaror bo'ladi.

Avesto hajmi katta kitob bo'lganligi sababli dindorlar kundalik faoliyatida foydalanish uchun uning ixchamlashtirilgan shakli - Kichik Avesto yaratilgan. 2001-yili O'zbekistonda Avesto kitobining 2700 yilligi tantanali nishonlandi. Yerga ishlov berish, qoramolga yaxshi munosabatda bo'lish, don yetishtirish g'oyasi ulug'lanadi. Kimki don yetishtirsa, u haqiqatni yetishtiradi. Xamir ovqat pishirilgan xonadonga devlar ham kirolmaydi. Zardushtiylikda, shuningdek, saxiylik, er-xotin vafodorligi, bola tarbiyasi kabi insoniylik munosabatlari ham nazarda tutilgan.

Adventistlar harakati - (lot. - "kelish") Amerikada XIX asrning 30-yillari og'ir iqtisodiy, umumiy ishsizlik davrida vujudga keldi. Asoschisi Vilyam Miller (1782-1849). Adventistlar bir necha mustaqil cherkovlarga bo'lingan bo'lib, ularning eng kattasi «Yettinchi kun adventistlari» sanaladi. Ularning g'oyasi Isoning ikkinchi bor yerga tushishi va insoniyatni shayton va uning tarafdorlaridan mutloq, xalos etishidir. Ular odamlarni Isoni kutib olish uchun xushyorlik bo'lishga chaqiradilar. Dindorlardan mablag'larining o'ndan birini cherkov hisobiga o'tkazishlarini va targ'ibot ishlarini uzluksiz olib borishlarini talab qiladilar. Iso payg'ambarning ikkinchi marta yerga qaytishi haqidagi bashorat «najot yuli» deb hisoblanadi.

Axmadiylar - Axmadiya xarakati XIX asrning oxirida Panjob (Pokiston)da xristian-protestant diniy oqimining islomga qarshi faoliyatining faollashuvi hamda axdi hadis maktabi bilan xanafiya vakillarining Qur'on va Sunnaning asosiy masalalari haqidagi munozaralari natijasida vujudga keldi. Axmadiya harakatining paydo bo'lishi barcha islomga oid oqimlarning intilishlarini birlashtirish va ularning asosiy platformasini tashkil qilish bilan bog'liqdir. Shuningdek, boshqa din vakillarining tinch-totuv yashashlari ham bu harakatning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Axmadiya harakatining asoschisi Mirzo G'ulom Ahmad Xondir.

Akromiylar - taxminan 1997-1999 yilda Farg'ona vodiysida vujudga kelgan ushbu diniy-siyosiy harakat vakillari Alloxxagina e'tiqod qiladilar va Payg'ambarga imon keltirmaydilar. Akromiylar bugungi mavjud barcha tuzumlarni tan olmaydi, davlatga, qonun-qoidalarga ham, ota-onaga ham emas, faqat oqim sardorlariga bo'ysunish lozim deb hisoblaydilar. Uning asoschisi 1960-yilda Andijon shahrida tug'ilgan Yo'ldoshev Akrom Sotvoldievich danbaliy mazhabi vaxobiylik oqimi ta'limotiga tayanib 1992-yilda

12 darsdan iborat "Imonga yo'l" deb nomlangan dasturni ishlab chiqqan. Ushbu dasturda oqimning pirovard maqsadi islom davlatini barpo etishdan iborat ekani ta'kidlangan.

Animizm - (lotin tilida "anima" - "rux", "jon" ma' nolarini anglatadi). Animizm - ruxlar mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini iloxiylashtirish, hayvonot, o'simlik va jonsiz jismlarda ruh, ong va tabiiy qudrat borligi haqidagi ta'limotni ilgari suruvchi ilk diniy shakllardan biri. Ilk animistik tasavvurlar qadim o'tmishda extimol, totemistik qarashlar paydo bo'lgunicha, oilaviy jamoalarning shakllanganicha vujudga kelgandir.

Ateizm - («A» - inkor kushimchasi, "teo" - xudo suzidan) Xudoning borligiga ishonmaslik, Xudoni inkor etish demakdir. Ateistlar, ya'ni ateizm tarafdorlari xudoning borligiga ishonmaydigan kishilardir. O'zbekistonda ham ateistlar mavjud bulib, ular jamiyatning kichik bir qismini tashkil etadi. O'zbekistonda ateizmning kelib chiqishi Sovet davriga to'g'ri keladi. Ma'lumki, sovet dahriy tuzumi davrida davlat tomonidan fuqarolarning diniy e'tiqodi masalalari jiddiy ta'qib etildi. Oddiy milliy urf-odatlariga rioya qilish din propagandasi sifatida qoralandi. Marksizm nazariyotchilari tomonidan aytilgan «din - xalq uchun afyundir» shiori xalqning ongiga muntazam singdirib borildi. Bu jarayonda ayniqsa kommunistik partiya katta rol o'ynadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi fuqarolarni tom ma'nodagi vijdon erkilligi va e'tiqod xurligi bilan ta'minladi.

Baptizm - Protestant ta'limotining eng ko'p sonli davomchilari baptistlardir. Baptizm (yunoncha «suvga cho'ktirish») XVII asr boshlarida vujudga kelgan bo'lib, hozirgi kunda dunyoning 130 mamlakatida o'z tarafdorlariga ega. Bu ta'limot tarafdorlari faqat o'spirinlarnigina cho'qintirishga olib boradilar. «Hech kim, jumladan, ota-onalar ham kishi uchun biror dinni tanlay olmaydilar. Kishi dinni ongli ravishda o'zi ixtiyor qilmog'i zarur» degan qoida baptistlar va zabur xristianlarining asosiy qoidasidir. Ularda ibodat o'ta soddalashtirilgan. Zabur xristianlari to'rtta rusumni saqlab qolishgan: cho'qintirish (o'spirinlar uchun). tanovul, nikoh, kul bilan silab qo'yish. Bu xristianlar uchun but extirom ramzi emas.

Vijdon erkinligi - fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitusiyaviy huquqidir.

Diniy bag'rikenglik - xilma xil diniy e'tiqodda bo'lgan kishilarning hamkor va hamjihat bo'lib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo'lida xizmat qilishini anglatadi. Diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir. Diniy bag'rikenglikni komponentlari: a) ma'rifatlilik; b) sog'lom e'tiqodlilik; v) diniy an'analarga sodiqlik; g) terang dunyoqarash.

Genezis - (yunon tilida "genesis" — "kelib chiqish", "yuzaga kelish") ma'nolarini anglatib, biror narsani yuzaga kelish, hosil bo'lishi jarayoni bilan bog'liqlik ma'no ifodasidir. Ushbu atamani mavzuda Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan diniy e'tiqod va ta'limotlarni yoritishda qo'llanildi.

Zardushtiylik - Zardusht asos solgan, miloddan avvalgi 7-6 asrlarda paydo bo'lgan otashparastlik dini; majusiylik uzoq tarixga ega bo'lib, ushbu tushuncha asrlar davomida shakllana bordi va bu jarayon hozirda ham davom etmoqda.

Bid'at - biror odam yoki jamoa to'g'risida boshqa odamlar tomonidan aytilgan turli-tuman noxolis fikrlar majmuidir. Bid'atlar murakkab fikrlar majmui bo'lib, ular ko'pincha g'arazli maqsadlarda atayin tarqatiladi. Odatda bid'atlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini bilish ancha mushkul hisoblanadi. Bid'atlar doimiy shaklga kirsalar ular xurofotga aylanadi.

Ma'rifatparvarlik - madaniyat va ma'naviyat sohasidagi oqim. Uning negizini fan, bilim imkoniyatlariga katta ishonch tashkil qiladi. Ma'rifatparvarlar bilimlari yordamida ijtimoiy hayotdagi nomutanosibliklar va kamchiliklarni bartaraf qilish mumkinligiga ishonganlar. Shu nuqtai nazardan ularni mafkuraviy, ijtimoiy-falsafiy oqim deyish mumkin. Ilm-fanni egallash va targ'ib qilish qadim zamonlarda boshlangan bo'lsada, ma'rifatparvarlik oqim sifatida G'arbda 17-asr oxiri — 18-asr boshlarida, Sharqda esa 19 asrning oxiri -20-asr boshlarida maydonga keldi.

Missionerlik - (missiya suzidan), tabshir, mubashshirlik - biror dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib qilish. Missionerlik asosan, xristianlikka xos. 4-asrdan paydo bo'lgan.

Mutaassiblik (fanatizm) - fanatizm (lot) - diniy e'tiqodlarga, xurofotga yoki biror nazariy qarashlarga qattiq; yopishib olib, boshqa har kandy qarashlarni rad etish, o'taketgan mutaassiblik, joxillik demakdir.

Panislamizm - 19-asr oxirida butun musulmon olamini mustamlakachilarga qarshi kurashda birlashtirish to'g'risidagi harakatga Rossiya va Angliya imperiyalari, shuningdek, SSSR tomonidan berilgan sun'iy nom.

Protestantizm - Protestantizm tarixi Martin Lyuterdan (1483-1546) boshlanadi. U XVI asrda Yevropada katoliklarga qarshi qaratilgan Reformatsiya harakati bilan bog'liq juda ko'p mustaqil cherkovlar va sektalarni o'z ichiga oladi.

Sintez - (yunon tilida "synthesis" — "birikish"). Ushbu atama kimyo sohasida ko'p ishlatilib, oddiyroq birikmalardan murakkab birikmalar olishda qollaniladi. Ushbu atama dinshunoslik sohasida, Markaziy Osiyodagi dinlar, ta'limotlar va milliy an'analarning o'zaro qorishuvi jarayonlarini eritishda qollaniladi.

Sekulyarizm - dunyoviy turmush tarziga dinning moslashishi jarayonini ifodalash va din bilan siyosatning o'zaro nisbatini tavsiflash uchun ilmiy adabiyotlarda «sekulyarizasiya» (lotincha «secular» - «dunyoviy» so'zidan) atamasi keng qo'llaniladi.

Tasavvuf - sufiylik — Islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo'llovchi ta'limot. Tasavvuf so'zining o'zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va taxminlar bildirishgan.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT



**Jamolhoji
Ilhomjon
Nazirjon o'g'li**
1961. Noya., 7. O'zbek.

1990 yilda Toshkent davlat universiteti (hoz. O'zMU), tarix fakultetini tugatgan.

1990-2004 yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix institutida kichik ilmiy xodim, ilmiy xodim bo'lib ishlagan, aspirantura (1997-2000)da tahsil olgan.

2005 yildan buyon TDSHI Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasida katta o'qituvchi bo'lib ishlaydi, tarix fanlari nomzodi (2004).

O'zMU huzurida faoliyat ko'rsatayotgan K.067.02.12 raqamli Ixtisoslashgan Kengash qoshidagi ilmiy seminar a'zosi. Hozirga qadar 2 ta nomzodlik dissertasiyasiga rasmiy opponentlik qilgan va bir nomzodlik dissertasiyasi seminar ishiga taqrizchi bo'lgan.

Nomzodlik dissertasiyasi: «Farg'ona vodiysida neft sanoatining shakllanish va rivojlanish tarixi (1860-1917 yy)».

Doktorlik dissertasiyasi: «Farg'ona vodiysida konchilik, tog'-kon sanoatining shakllanish va rivojlanish tarixi (XIX-XX asr boshi)».

MUNDARIJA

1. ANNOTATSIYA.....	3
2. KIRISH.....	4
3. FANNING ME'YORIY HUJJATLARI.....	6
4. O'QUV DASTURI.....	7
5. ISHCHI O'QUV DASTUR.....	21
6. FANNING TAYANCH KONSPEKTI.....	46
7. SEMINAR MASHG'ULOTLARI UCHUN MASHQ, MASALA, TOPSHIRIQLAR TO'PLAMI.....	93
8. O'QUV MATERIALLARI (DARSLIK, O'QUV QO'LLANMA diskda).....	98
9. TA'LIM TEXNOLOGIYASI.....	99
10. TALABALAR BILIMINI BAHOLASH MEZONI.....	127
11. REFERAT VA KURS ISHLARI (KO'ZDA TUTILGAN BO'LSA) USLUBIY KO'RSATMA.....	132
12. FANNING NAZORAT TURLARI UCHUN TAYYORLANGAN TOPSHIRIQLAR VARIANTI.....	133
13. TEST SAVOLLARI (200 ta).....	137
14. UMUMIY SAVOLLAR (50 ta)	157
15. TARQATMA VA TAQDIMOT MATERIALLARI (diskda ilova).....	159
16. MUSTAQIL ISH TURLARI VA MAVZULARI.....	160
17. FANNI O'ZLASHTIRISH BO'YICHA MASLAHAT VA TAVSIYALAR.....	163
18. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	167
19. XORIJIY ADABIYOTLAR.....	168
20. GLOSSARIY.....	169
21. MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT.....	172
22. MUNDARIJA.....	173

